

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**



NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

N.SOTVOLDIYEV

**KORXONA IQTISODIYOTI VA
INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH**

**FANI BO‘YICHA
O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

Bilim sohasi: 200000 - Ijtimoiy soha, iqtisodiyot va huquq
Ta‘lim sohasi: 230000 - Iqtisodiyot
Mutaxassislik: 5A230102 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

NAMANGAN – 2021

Sotvoldiyev N. “Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish” fani boʻyicha oʻquv-uslubiy majmua. – Namangan: NamDU, 2021. - 196 b.

Taqrizchilar:

Q.Umarqulov – “Menejment” kafedrasining mudiri
K.Sirojiddinov – “Iqtisodiyot” kafedrasining dotsenti.

Fanning oʻquv uslubiy majmuasi “Menejment” kafedrasining 2021 yil “__”
_____dagi __ “__” sonli yigʻilishi muhokamasidan oʻtkazilgan va fakultet
Kengashida koʻrib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

Q.Umarqulov

Fanning oʻquv uslubiy majmuasi “Iqtisodiyot” fakultetining Kengashi
muhokamasidan oʻtkazilgan va oʻquv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan
(2021 yil “__” _____dagi __ “__” sonli bayonnoma).

Fakultet dekani

R. Imomov

O'QUV-USLUBIY MAJMUANING TARKIBIY TUZILISHI

№	Majmuaning tarkibiy qismlari	betlar
	Majmuaning qisqacha annotatsiyasi.....	4
I.	Fanning me'yoriy-uslubiy ta'minoti.....	6
1.	O'quv dasturi.....	7
2.	O'quv kursi prospekti.....	18
3.	Ma'ruza mashg'ulotlari rejasi.....	30
II.	Fanning mazmuni va axborot-resurs ta'minoti.....	45
1.	Mavzular bo'yicha matn annotatsiyasi va oxirgi yangiliklar (<i>Mavzuga oid adabiyotlar, jurnallar va internet tarmog'idan olingan tarqatma materiallar, maqolalar</i>).....	46
2.	Mavzular bo'yicha taqdimot slaydlari va video roliklar.....	114
III	Fanni o'qitishning interaktiv texnologiyalari.....	178
1.	Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar sharhi.....	179
2.	Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar.....	190
3.	Glossariylar.....	192
4.	Tavsiya etiladigan elektron jurnallar va internet saytlar.....	195

MAJMUANING QISQACHA ANNOTATSIYASI

O'quv-uslubiy majmua – Namangan davlat universitetida bakalavriat va magistratura ta'lim bosqichlarining O'quv rejalarida aks etgan fanlar bo'yicha professor-o'qituvchining dars jarayoniga o'quv-uslubiy tayyorligini tasdiqlovchi eng muhim mezon, me'yoriy-uslubiy hujjatdir.

Majmuaning asosiy maqsadi – avvalombor fanning o'qituvchisi, xuddi shuningdek talaba uchun, fanni har tomonlama sermazmun, chuqur nazariy, uslubiy va amaliy tarzda yetkazish (talaba uchun – o'zlashtirish) uchun yagona o'quv-uslubiy va axborot-resurs manbaini yaratish hisoblanadi.

O'quv-uslubiy majmua Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistratura ta'lim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, u jumladan quyidagi tarkibiy tuzilishga ega:

- *fanning me'yoriy-uslubiy ta'minoti,*
- *fanning mazmuni va axborot-resurs ta'minoti,*
- *fanni o'qitishning interaktiv texnologiyalari,*
- *talabalarining bilimni baholash uslubiyoti,*
- *qo'shimcha elektron ta'lim resurslarini o'z ichiga olgan.*

Ilg'or xorijiy tajriba bilan uzviylik.

Mazkur majmua ilg'or xorijiy tajribani keng o'rganish, umumlashtirish va undan ta'lim va tadqiqotlar jarayonida samarali foydalanish mahsulidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 20 aprelda imzolangan “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»”gi qarorda “har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta'lim muassasalari magistrant, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o'tashlarini, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish”¹ vazifalari alohida ta'kidlangan.

Ushbu qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ta'lim va tadqiqotlarning mazkur axborot-resurs manbaini ishlab chiqishda Dankin Universiteti, Massachusetts Texnologiya instituti va Nyu-York Davlat Universiteti (AQSH), Oksford Universiteti, Bat Universiteti va London Metropoliten Universiteti (Buyuk Britaniya), Bremerxafen Universiteti (Germaniya), Vaseda Universiteti (Yaponiya), Kemyong Universiteti (Koreya Respublikasi), SHanxay Universiteti (XXR) va boshqa yetakchi xorijiy universitetlar boy ijobiy tajribasidan samarali foydalanildi.

Majmuani takomillashtirish masalalari

Elektron o'quv-uslubiy majmua o'quv yili mobaynida xalqaro va milliy iqtisodiyot tizimidagi o'zgarishlar va tendentsiyalar, yangi qabul qilingan qonunlar, farmonlar va qarorlarni, xorijda va respublikada chop etilgan yangi o'quv va ilmiy adabiyotlarni, fan-

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»”gi 2909-sonli Qarori. “Xalq so'zi” gazetasi, 2017 yil 21 aprel.

texnika va texnologiya borasida erishilgan yangi yutuqlarni hisobga olgan holda muntazam takomillashtirilib boriladi.

“**Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish**” fani o‘z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

- **birinchidan**, korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalar to‘g‘risida tushunchani hosil qilish va mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;

- **ikkinchidan**, korxonalar iqtisodiyoti va innovatsion muhit to‘g‘risida umumiy tushuncha hosil qilish va yirik ishlab chiqaruvchi korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish yo‘llari va usullarini bilish;

- **uchinchidan**, korxonalar iqtisodiyoti va innovatsion faoliyat samaradorligini aniqlash va istiqboldagi vaziyatni baholashni amalga oshirish;

- **to‘rtinchidan**, korxonalar iqtisodiyoti va investorlar va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan turli vaziyatlarni mantiqiy evristik va iqtisodiy matematik modellar orqali tahlil qilish va istiqbollashni amalga oshirishni;

SHuningdek, “**Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish**” fani fundamental fanlardan biri bo‘lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

FANNING ME'YORIY-USLUBIY TA'MINOTI

O'quv dasturi

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu fan O'zbekistonda real sektorni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, tarmoq korxonalarida istiqbolli loyihalarni amalga oshirish orqali yangi zamonaviy texnika, dastgoh va uskunalar, texnologiya va nou-xaularni joriy etish eng avvalo samarali investitsion faoliyatni tashkil etishni va to'g'ri yo'naltirilgan investitsion siyosatni olib borishni taqozo etadi. Bunda korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarishning ichki imkoniyatlaridan to'la foydalanish jarayonlarining mohiyatini tushinishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

“Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish” fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 1-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. "Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish" fani iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini nazariy va amaliy masalalarini o'rganish va uni mo'tadil rivojlantirishning yechimlarini topishda hamda magistratura ta'limi “real sektor” bo'yicha mutaxassislarini shakllanishida katta ahamiyatga ega. Ushbu fanning yutuq va xulosalaridan mamlakat real sektor korxonalarini investitsiyalashning belgilangan dasturlarini ishlab chiqishda keng foydalaniladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan asosiy maqsad – iqtisodiyot sohasida magistrarga Real sektorda korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

«Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish» kursini o'rganishning asosiy vazifasi magistrlarda real sektor va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsion siyosati, strategiyasi va taktikasini belgilab beruvchi asosiy omillar va shart sharoitlarni belgilash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ularning samaradorligini baholash bo'yicha bilimlar majmuini shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar qo'yiladi.

Talaba:

- korxonalar funktsiyalari va belgilarini;
- korxonalar faoliyatiga taalluqli va unga aloqasi bo'lgan qonunlar va qonun hujjatlarini;
- muammo va vazifalarni mantiqiy, ketma-ketligini va o'zaro aloqadorligini; turli xil iqtisodiy va tashkiliy-texnikaviy tadbirlarni hisoblash va tahlil qilish uslublarini o'rganishdan iboratdir.
- innovatsiyalarning iqtisodiy mohiyati va turlari,
- innovatsion jarayonning mazmuni va asosiy bosqichlarini bilish,
- moliya bozorlari va institutlari faoliyatini o'rganish, moliyaviy instrumentlarni qo'llay olish **haqida tasavvurga ega bo'lishi;**
- korxonalar iqtisodiyoti va innovatsion boshqarish asoslarini, iqtisodiy qonunlar, tushunchalar, kategoriyalarni, iqtisodiy jarayonlarning xususiyatlarini **bilishi va ulardan foydalana olishi;**
- talaba iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, iqtisodiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-Mavzu. Innovatsiyalar nazariyasi: texnologiya va samaradorlik

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasidan kelib chiqqan holda fanning vazifalari. 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish masalalarini o'rganish. Iqtisodiyot jamiyat hayotining asosi sifatida. Iqtisodiy tizimlarning turli modellari. Iqtisodiyotni rivojlantirishning bozor modeli. Iqtisodiyot fan va ishlab chiqarish faoliyatining sohasi sifatida. Korxonalar iqtisodiyoti iqtisodiy fanning tarkibiy qismi va mustaqil bilimlar sohasi. Fanning o'rganish ob'ekti va predmeti. Fanni o'rganish uslubiyati va usullari. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqasi. Fanni o'rganishning qonunchilik va me'yoriy-huquqiy asoslari. Fanni o'rganishda milliy va xorijiy adabiyotlar, ilg'or korxonalar yutuqlaridan foydalanish.

2-Mavzu. Korxonalar - mustaqil xo'jalik faoliyatini yurituvchi bozor sub'ekti

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyotni rivojlanishi va aholi bandligini ta'minlashda korxonalar o'rni va roli. Zamonaviy korxonalar tasnifi. Prezident SH.M. Mirziyoevning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli asarida keltirilgan kichik biznes korxonalarini yanada qo'llab-quvvatlashning o'rni va ahamiyati. Korxonalar birlashmalari. Korxonalar mustaqilligi va mas'uliyati. Bozor munosabatlari sharoitida davlat va korxonalar o'rtasidagi munosabat. Korxonalar erkinligi va cheklanishlar. Korxonalar ichki va tashqi muhiti. Korxonalar ishlab chiqarish va bozor munosabatlari (aloqalari). Raqobat sharoitida korxonalar xarakterlari (o'zini tutishi). Xo'jalik yuritishning zamonaviy bozor tizimi tomonidan korxonalar faoliyatiga qo'yiladigan talablar. Korxonalar jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyati.

3-Mavzu. Korxonalar tashkil etish va faoliyatini to'xtatish

Korxonalar tashkil etishning huquqiy asoslari va tamoyillari. Korxonalar tashkil etish tartibi va bosqichlari. Korxonalar tashkil etish uchun zaruriy ta'sis hujjatlari. Tashkil etilayotgan korxonalar davlat ro'yxatidan o'tkazish. Korxonalar mulki va rekvizitlari. Yangidan tashkil etilayotgan korxonalar faoliyatining boshlanishi va uning asosiy vazifalari. Korxonalar qayta tashkil etish va faoliyatini to'xtatish. Korxonalar qayta tashkil etish va tugatishning asosiy tamoyillari. Tugatish hay'ati va uning vazifalari.

4-Mavzu. Korxonalar boshqarish

Boshqaruv korxonalar faoliyatidagi ob'ektiv zarurat. Boshqaruvning ob'ekti va sub'ekti. Boshqaruv munosabatlari. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida boshqaruvning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning mas'uliyati korporativ boshqaruvning o'ziga xos jihatlari, uning ustunliklari va kamchiliklari. Boshqaruvning asosiy funktsiyalari. Boshqaruv xodimlarining kasb mahorati va kompetentligi. Boshqaruv tizimini ishlab chiqarishning samaradorligiga erishish va korxonalar iqtisodiy barqarorligiga yo'naltirish. Boshqaruv qarorlari samaradorligini baholash.

5-Mavzu. Korxonalar faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida biznes-rejalashtirish korxonalar boshqarishdagi muhim qurol sifatida. Rejalashtirishni bozor mexanizmlari bilan mos kelishi. Rejalashtirishning uslubiy asoslari. Korxonalar rejalashtirish turlari. Rejalar tizimi - rejalashtirish natijalarini aks ettirish sifatida. Rejaviy qarorlarni tayyorlash davri: strategik muammolarni taxlil qilish, korxonalar

faoliyati kelgusi sharoitlarining prognozi, ishlab chiqarish topshiriqlarini va ularni amalga oshirish yo'llarini (vositalarini) aniqlash. Joriy reja - korxonada faoliyatining asosiy hujjati sifatida. Korxonada faoliyatida biznes-reja. Biznes-rejani ishlab chiqarishdagi asosiy vazifalari va uning tartibi. Biznes-rejani korxonani rivojlantirish strategiyasi bilan bog'liqligi. Biznes-rejaning asosiy bo'limlari va ko'rsatkichlari.

2-Modul. Korxonada iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

6-Mavzu. Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi

Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida samaradorlik korxonada faoliyatining «oynasi» sifatida. Bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikning o'rnini va ahamiyati. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishida korxonaning faoliyati. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari va ko'rsatkichlari. Ishlab chiqarishning umumiy va solishtirma iqtisodiy samaradorligi. Xarajatlarning qoplanish davri - innovatsion yechimlarni, xarajatlarning samaradorligining muhim ko'rsatkichi sifatida. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.

7-Mavzu. Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvati

Asosiy fondlarning mohiyati va ularning korxonada faoliyatidagi o'rnini. "2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib korxonada ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishni yaxshilash yo'nalishlari va ahamiyati. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlari. Asosiy fondlar tuzilmasining ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri. Asosiy fondlarni baholash, eskirishi va ta'mirlash. Asosiy fondlarning amortizatsiyasi va amortizatsiya ajratmalari. Amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullari. Asosiy fondlarni korxonaning ishlab chiqarish quvvati bilan aloqasi. Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish ko'rsatkichlari, ularni hisoblash uslubi. Korxonada asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni yaxshilash yo'llari.

8-Mavzu. Korxonaning aylanma mablag'lari

Aylanma mablag'lar tushunchasi, ularning tarkibi va tuzilmasi. Korxonada aylanma mablag'larining asosiy vositalardan farqi. Bozor munosabatlari sharoitida aylanma mablag'larni shakllantirish manbalari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aylanma mablag'larni korxonaning iqtisodiy barqarorligiga ta'siri. Prezident SH.M. Mirziyovning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli asarida keltirilgan resurslar tejamliligini ta'minlashning o'rnini va ahamiyati. Aylanma mablag'larni me'yoralashtirish. Korxonaning aylanma mablag'larga bo'lgan talabini hisoblash. Korxonaning qarzga olingan va xususiy aylanma mablag'lari. Korxonaning ishlab chiqarish zahiralari. Zahiralarning turlari va ularni hisoblash uslubi.

Zahiralarni boshqarish va moddiy resurslarni tejash. Korxonada aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlarini va ularni hisoblash uslubi. Korxonaning aylanma mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

9-Mavzu. Korxonada mehnat resurslari va ulardan foydalanish, mehnatni tashkil etish va haq to'lash

2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib korxonalarda yangi ish o'rnini tashkil etish yo'nalishlarini yoritilishi. Xodimlar va ularning korxonada faoliyatidagi o'rnini. Zamonaviy sharoitlarda korxonaning kadrlar siyosati. Korxonada hodimlari, ularning tarkibi va tuzilmasi. Korxonada hodimlari harakati va uni rejalashtirish. Ishchilar – korxonada ishlab chiqarish personalining asosiy qismi. Korxonada mehnat unumdorligi va uni oshirish rezervlari.

Korxonada mehnatga haq to'lash. Mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlari. Mehnatga haq to'lashning tarifsiz tizimi. Mehnatni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish. Kadrlar siyosati va mehnatga haq to'lashni tashkil etishda korxonaning vakolatlari.

10-Mavzu. Ishlab chiqarish harajatlari, foyda va rentabellik

Ishlab chiqarish xarajatlari, foyda va rentabellik tushunchalari. Mahsulot bahosi va tannarxi. Maxsulot tannarxini rejalashtirish va kalkulyatsiyasi. 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib korxonalar xarajatlarini kamaytirish yo'nalishlarini yoritilishi. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining tasnifi. Ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlashning xorij tajribasi. Foyda korxonalar faoliyatining yakuniy natijasi sifatida. Foydani ishlab chiqarish rentabelligi bilan aloqasi. Korxonada rentabellikni aniqlash uslubi. Foydani maksimallashtirish. Baho va xarajatlarning tarkibini o'zgarishining foydaga ta'sirini tahlil qilish. Ishlab chiqarish rentabelligini oshirish yo'llari.

3-Modul. Korxonalarining faol investitsion siyosati

11-Mavzu. Korxonalarining investitsion faoliyati

Investitsion jarayon va investitsiyalar tasnifi. Korxonalarining investitsion siyosati. 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib faol investitsion siyosat natijalari va uni davom ettirish yo'nalishlarining yoritilishi. Korxonalarining investitsion «portfeli». Investitsiyalarning asosiy manbalari. Korxonalarining ishlab chiqarish bazasini rivojlantirishga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Korxonalar darajasida investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish. Investitsion loyiha samaradorligini aniqlash uslublari va ko'rsatkichlari. Tavakkalchilik omilini hisobga olgan holda investitsion loyihalar samaradorligini baholash xususiyatlari.

12-Mavzu. Chet el investitsiyalari va ularni jalb etish bo'yicha investitsion siyosat

Davlatning investitsion siyosati. Chet el investitsiyalari tushunchasi. O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb qilishning zaruriyati. Investitsion muhitning jozibadorligini oshirish. Iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini jalb qilishning huquqiy asoslari. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va portfel shaklidagi chet el investitsiyalari. Real sektorga chet el investitsiyalarini jalb etish dinamikasi. Halqaro bozorlarga chiqishning asosiy shakllari orasida to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarining o'rnini va roli. To'g'ridan - to'g'ri chet el investitsiyalari motivlari va gepotizalari. To'g'ridan - to'g'ri chet el investitsiyalarining makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy gepotizalari. Tashqi savdo nazariyasida to'g'ridan - to'g'ri chet el investitsiyalarining gepotizalari va modellari.

13-Mavzu. Korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi va tijorat siri

Korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning maqsadi va vazifalari. Korxonalar xavfsizligi kontseptsiyasi. Korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tamoyillari. Korxonalar xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish va boshqarish. Xavfsizlik xizmatining funktsiyalari va uning tuzilmasi. Korxonalarining tijorat siri. Korxonalar tijorat sirini himoya qilish samaradorligining korxonalar iqtisodiga ta'siri. Raqobatchilar to'g'risida ma'lumot olish uslublari. Korxonalar tijorat sirini himoya qilish.

4-Modul. Real sektor korxonalarida innovatsion faoliyat asoslari

14-Mavzu. Real sektorda innovatsion faoliyat tushunchasi, innovatsion faoliyat funktsiyalari va innovatsiyalar tasnifi

Innovatsion faoliyat tushunchasi. Innovatsion loyiha, innovatsion jarayon tushunchalari. Korxonalar innovatsion menejerning asosiy vazifalari. Innovatsion jarayonga ta'sir qiluvchi omillar. Innovatsiyalar tushunchasi va ularning tasnifi. 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish

harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib Davlat dasturidan o'rin olgan ijtimoiy-iqtisodiy masalalar. Innovatsion tovarni yaratish jarayonining bosqichlari. Innovatsion faoliyatni boshqarish tizimlariga qo'yiladigan asosiy talablar. Ilmiy-tadqiqot va tajriba – konstruktorlik ishlarini boshqarish tizimi.

15- Mavzu. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishi

O'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatning huquqiy asoslari. Innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. Ilmiy izlanishlar, fundamental tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlovchi jamg'armalar. Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlanishning nodavlat shakllari. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda xorij tajribasi. Sanoati rivojlangan davlatlarda ilmiy-innovatsion rivojlanish modellari.

16- Mavzu. Real sektorda innovatsion faoliyatning tashkiliy shakllari va uning xususiyatlari

Innovatsion tashkilotlar tasnifi. Violentlar, patentlar, kommutantlar va ekplerentlar strategiyalari. Kichik biznesning xususiyatlari. Ixtisoslashgan va kompleks innovatsion tashkilotlarining o'ziga xos xususiyatlari. Loyiha konstruktorlik tashkilotlari va maxsus konstruktorlik byurolari, ilmiy-tadqiqot, marketing tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, qurilish-montaj tashkilotlari, texnopark, texnopolis kabi tashkilotlarda innovatsion faoliyatini olib borish. Innovatsion tashkilotlarning tuzilmalari tasnifi va vazifalari. Tuzilmaviy qayta qurish – tashkilotning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy vositasi.

17- Mavzu. Real sektorda innovatsion faoliyatning ilmiy asoslari

Asosiy iqtisodiy qonunlarning mohiyati va ularning statika va dinamikadagi ko'rinishlari. Innovatsion faoliyatga tizimli yondashuv: asosiy atamalar va tushunchalar. Tizimlar tasnifi va ularning mazmuni hamda xossalari. Tizimli yondashuvni qo'llashning qoidalari. Takror ishlab chiqarish – evolyutsion yondashuv Bench Markingning instrumenti. Funktsional yondashuv. Marketing yondashuvi. Normativ yondashuv. Integratsion yondashuv. Dinamik va jaryonli yondashuv. Optimallik asosidagi, direktiv va xatti-harakatlar asosidagi hamda vaziyatli yondashuv. Innovatsion boshqaruv tamoyillari va asosiy usullarining tasnifi.

18- Mavzu. Real sektorda innovatsion faoliyatda tavakkalchilikni boshqarish asoslari

Tavakkalchilik tushunchasi va uning mohiyati. Tavakkalchilikning ob'ekti va sub'ekti. Tavakkalchilik tasnifi. Tavakkalchilikni pasaytirish usullari va omillari: tavakkalchilikdan qochish; tavakkalchilikni taqsimlash; tavakkalchilik manbalarini lokalizatsiyalash va diversifikatsiyalash; sug'urtalash va xedjirlashtirish. Tavakkalchilikni boshqarishning uslubiy asoslari. Prezident SH.M. Mirziyovning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli asarlarida keltirilgan fikrlar. Tavakkalchilikning ichki va tashqi omillarining monitoringi va tahlili. Tavakkalchilikni baholash va uni optimallashtirish. Tavakkalchilikni boshqarish samaradorligini baholash.

19- Mavzu. Real sektorda innovatsion faoliyatning kompleks ta'minoti

Innovatsion faoliyatning huquqiy ta'minoti. Me'yoriy-uslubiy ta'minot. Normativ aktlar va standartlar. Qoidalar va yo'riqnomalar. Innovatsion faoliyatni boshqarishning resurs ta'minoti va resurslar turlari. Moliyaviy ta'minot, moliyalashtirishni tashkil etishning tamoyillari va vazifalari. Innovatsion faoliyatni boshqarishning axborot ta'minoti va innovatsiyalar statistikasi. Kommunikatsiyalar va axborotlar sifatiga bo'lgan asosiy talablar. Ilmiy-texnikaviy axborot resurslarini yaratish. Fan va innovatsiyalar statiskasining xalqaro standartlari.

20- Mavzu. Real sektorda yangiliklar va innovatsiyalar portfelini shakllantirish

Innovatsiya ob'ektlarini ularning nodirligi asosida raqobatbardoshligini ta'minlash asoslari. Raqobat ustunliklarini baholash. Turli ob'ektlarning raqobat ustunliklarini ta'minlovchi an'anaviy omillar. Tashqi va ichki omillar. Personal, mahsulot va xizmatlar. Tarmoq, mintaqa va mamlakat miqyosida raqobat ustunliklarini ta'minlash. Raqobat qonunini tahlil qilish. Takshilot va uning raqobatchilarining raqobatbardoshligin tahlil qilish. Yangiliklar va innovatsiyalar portfelining tarkibi.

21- Mavzu. Venchur shaklidagi innovatsion biznes

Venchur kapitalining iqtisodiy vazifalari. Venchur kapitali va venchur biznesi. Tavakkalchilikka asoslangan biznesni moliyalashtirishning asosiy xususiyatlari. Venchur asosidagi moliyalashtirishning ustivor yo'nalishlari. Moliyaviy tavakkalchilikni minimallashtirishning asosiy tamoyillari. Venchur kapitali manbaalari. Venchur asosidagi biznesni davlat tomonidan tartibga solish. Tavakkalchilikka asoslangan investitsiyalarni moliyaviy baholash usullari va asosiy tushunchalari. O'zbekistonda venchur asosida moliyalashning istiqborllari.

22- Mavzu. Yangiliklar dasturi va loyihalarni ishlab chiqish

Innovatsion loyiha tushunchasi va uning asosiy elementlari. Innovatsion loyiha turlari va uning mazmuni. Innovatsion loyihalarni ishlab chiqish tartibi. Innovatsion g'oyaning shakllanishi va loyiha maqsadlarini qo'yish. Loyiha g'oyasi bo'yicha marketing tadqiqotlari. Innovatsion loyihani rejalashtirish. Rejalar tizimi. Innovatsion loyihani yakuniy bosqichi. Loyihani topshirish va shartnomani yopish tartibi. Innovatsion loyihalarni boshqarish va amalga oshirishning dasturli-maqsadli usullari.

23- Mavzu. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini tashkil etish

Ilmiy-tadqiqot tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI), vazifalari, tamoyillari va bosqichlari. Fundamental tadqiqotlar, amaliy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlari bosqichlari. ITTKI asoslanadigan tarmoqlararo hujjatlar tizimi. Innovatsiya tashkilotining patent-litsenzion faoliyati. Ixtiroga bo'lgan huquqni rasmiylashtirish. Patent va litsenziya tushunchalari. Innovatsion loyihalashtirish asoslari. Innovatsion loyihalar ekspertizasi va uni olib borish usullari.

24- Mavzu. Intelektual mulk va intellektual mulk bozori

Intelektual mulkning mohiyati va ob'ektlari. Intelektual mulkning hozirgi sharoitdagi ahamiyati. Intelektual mulk bozorini rivojlanishining tarixiy asoslari. Intelektual mulk turlari. Intelektual mulk ob'ektlarini himoya qilishning huquqiy asoslari. Intelektual mulk ob'ektlarini sotish, ayirboshlash va uzatish shakllari. Litsenzion to'lovlarning asosiy to'lovlari va litsenziya bahosini baholash. Franchayzing. Nomoddiy aktivlarni baholash. Intelektual mulk huquqlarini buzilishi bilan kurash. Intelektual mulkni himoya qilishning jahon tajribasi. O'zbekistondagi intellektual mulk bozori.

25- Mavzu. Yangiliklarni ishlab chiqarishni tashkiliy – texnologik tayyorgarligining asoslari

Texnologiyalarning rivojlanish tendentsiyasi va ularning tasnifi. Ishlab chiqarishni tashkiliy-texnologik tayyorgarligining vazifalari, xususiyatlari va bosqichlari. Ishlab chiqarishning tashkiliy-texnikaviy darajasini tahlil qilish va uning istiqboli. Ishlab chiqarishning texnikaviy va tashkiliy darajasi, ularga ta'sir qiluvchi omillar. Injiniring va reinjiniring jarayonlari.

26- Mavzu. Real sektorda innovatsion faoliyatida bashorat qilish asoslari

Bashorat qilish tushunchasi va usullari. Innovatsiyalari bashorat qilish. Innovatsiyalar ta'minotini bashorat qilish: axborot, texnikaviy, moliyaviy va xodimlar ta'minoti bashorati. Innovatsiyalarni ijtimoiy va ekologik oqibatlarini bashorat qilish. Texnologik bashorat qilish: yondashuvlar evolyutsiyasi, asosiy tushunchalar va uslublari. Axborot texnologiyalari,

biotexnologiyalar, yangi materiallar va energetika sohalarida innovatsion-texnologik rivojlanishning jahon miqyosidagi bashoratlari.

27- Mavzu. Real sektorda innovatsiyalar marketingi

Innovatsiyalar marketingining o'ziga xos xususiyatlari. Mustaqil ilmiy texnikaviy tashkilotlardagi marketingning xususiyatlari. Ilmiy- texnikaviy tashkilotning mikro-makro muhiti. Ilmiy-texnikaviy mahsulotning bozordagi harakati. Bozor segmenti sig'imini aniqlash. Ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan texnologik yangiliklar marketingi. Tijorat sinovlaridan o'tgan texnologiyalar marketingi. Vertikal integratsiya doirasida texnologiyaoarni uzatish marketingi. Iste'molchilar tashabbusi bilan yuzaga kelgan innovatsiyalar marketingi.

28- Mavzu. Real sektorda innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi

Innovatsion faoliyatga kiritilgan investitsiyalar. Innovatsion faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari tizimi. Innovatsion faoliyat samaradorligini baholash bo'yicha YuNIDO uslubiyoti. Yangiliklarning hayotiylik davri. Innovatsion tashkilotning innovatsion faoliyatdan olgan foydasi. Innovatsiyalarni amalga oshirishdan va yangiliklarni sotishdan olinadigan iqtisodiy samara. Iqtisodiy samara. Ilmiy-texnikaviy samara. Ijtimoiy samara. Ekologik samara. Innovatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilishni tashkil etish.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish» kursining mazmuni va vazifasi
2. Korxonalar - mustaqil xo'jalik faoliyatini yurituvchi bozor sub'ekti
3. Korxonani tashkil etish va faoliyatini to'xtatish
4. Korxonani boshqarish
5. Korxonalar faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish
6. Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi
7. Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvati
8. Korxonaning aylanma mablag'lari
9. Korxonada mehnat resurslari va ulardan foydalanish, mehnatni tashkil etish va haq to'lash
10. Ishlab chiqarish harajatlari, foyda va rentabellik
11. Korxonaning investitsion faoliyati
12. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va tijorat siri
13. Real sektorda innovatsion faoliyat tushunchasi, innovatsion faoliyat funktsiyalari va innovatsiyalar tasnifi.
14. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishi.
15. Real sektorda innovatsion faoliyatning tashkiliy shakllari va uning xususiyatlari.
16. Real sektorda innovatsion faoliyatning ilmiy asoslari.
17. Sanoat innovatsion faoliyatda tavakkalchilikni boshqarish asoslari.
18. Real sektorda innovatsion faoliyatning kompleks ta'minoti.
19. Real sektorda yangiliklar va innovatsiyalar portfelini shakllantirish.
20. Yirik sanoat korporatsiyalari rivojlanish strategiyalarining evolyutsiyasi .
21. Venchur shaklidagi innovatsion biznes.
22. Yangiliklar dasturi va loyihalarni ishlab chiqish
23. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini tashkil etish
24. Intelektual mulk va intellektual mulk bozori
25. Yangiliklarni ishlab chiqarishni tashkiliy – texnologik tayyorgarligining asoslari
26. Sanoat innovatsion faoliyatida bashorat qilish asoslari
27. Real sektorda innovatsiyalar marketingi
28. Real sektorda innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Prezident Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari uchun mamlakatimizda hal etilishi lozim bo'lgan ustuvor yo'nalishlar.
2. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida korxonada aylanma mablag'lardan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari.
3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash yo'llari va rivojlantirish tadbirlari.
4. Korxonada mehnatga haq to'lashni tashkil etish va takomillashtirish.
5. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda kichik va yirik korxonalar kooperatsiyasini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari.
6. Korxonaning tijorat siri va iqtisodiy xavfsizligi.
7. Korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligi.
8. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonaning innovatsion faoliyati va uning samaradorligini oshirish yo'llari.
9. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida korxonada foydani shakllantirish va undan samarali foydalanish yo'llari.
10. Sanoat korxonasida ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish imkoniyatlari va yo'llari.
11. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonasi rentabelligini oshirishning asosiy omillari
12. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida real sektor korxonalarini investitsiyalashning mohiyati va vazifalari.
13. Real sektor korxonalarida investitsiyalash ob'ektlari.
14. Real sektorga investitsiya jalb qiluvchi sub'ektlar tomonidan investitsiyalar haqida qaror qabul qilishda qo'llanadigan usullar.
15. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida real sektorni investitsiyalash usullari.
16. Real sektor korxonalariga investitsiyani jalb qilish uslubi va uni tashkil etish.
17. Real sektor korxonalariga investitsiya kiritishda investorlarning roli.
18. Real sektorda investitsion va innovatsion faoliyatning ahamiyati.
19. Real sektor korxonalariga investitsiya loyihalari asosida mablag'larni jalb qilishni tashkil etish.
20. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida real sektor korxonalarini investitsiyalash.
21. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida real sektor korxonalarida investitsiya siyosati va uni rejalashtirish.
22. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekistonda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishi.
23. Real sektor tarmoqlarida innovatsion faoliyatning tashkiliy-huquqiy shakllari va uning xususiyatlari.
24. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida real sektorda innovatsion faoliyatning ilmiy va amaliy asoslari.
25. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida real sektor innovatsion faoliyatida tavakkalchilikni boshqarish.
26. Real sektorda innovatsion faoliyatning kompleks ta'minoti.
27. Real sektorda yangiliklar va innovatsiyalar portfelini shakllantirish.
28. Yirik real sektor korporatsiyalari rivojlanish strategiyalarining evolyutsiyasi.
29. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yangiliklar dasturi va loyihalarni ishlab chiqish.
30. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini tashkil etish.

31. Yangiliklarni ishlab chiqarishni tashkiliy – texnologik tayyorgarligining asoslari.
32. bashorat qilish asoslari.
33. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida real sektorda innovatsiyalar marketingi.
34. Real sektorda innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Fan bo'yicha kurs ishi. Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishining hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari ishchi fan dasturida va tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Kurs ishi uchun tahminiy mavzular:

1. Prezident Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil yakunlari va 2019 yil istiqbollari uchun mamlakatimizda hal etilishi lozim bo'lgan ustuvor yo'nalishlar.
2. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida korxonada aylanma mablag'lardan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari.
3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash yo'llari va rivojlantirish tadbirlari.
4. Korxonada mehnatga haq to'lashni tashkil etish va takomillashtirish.
5. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda kichik va yirik korxonalar kooperatsiyasini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari.
6. Korxonaning tijorat siri va iqtisodiy xavfsizligi.
7. Korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligi.
8. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonaning innovatsion faoliyati va uning samaradorligini oshirish yo'llari.
9. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida korxonada foydani shakllantirish va undan samarali foydalanish yo'llari.
10. Sanoat korxonasida ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish imkoniyatlari va yo'llari.
11. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonasi rentabelligini oshirishning asosiy omillari
12. O'zbekistonda innovatsion soha rivojlanishi.
13. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsiyalarning o'rni.
14. O'zbekistonda investitsion faoliyat va korxonaning innovatsion siyosati.
15. Davlat tomonidan innovatsion faoliyatni qo'llab quvvatlash va boshqarish.
16. Korxonaning innovatsion faoliyati (qorxonada misolida).
17. Korxonaning investitsion va innovatsion faoliyati samaradorligi.
18. O'zbekistonda innovatsion siyosatni amalga oshirish usullari va yo'nalishlari.
19. Kichik biznesda innovatsiya
20. Real sektorda innovatsion faoliyat samaradorligi.
21. Innovatsiya boshqaruv ob'ektining sifatida.
22. Investitsion loyihani baholash usullari.
23. Korxonaning investitsion loyihasini baholash (qorxonada misolida).
24. Inson kapitaliga investitsiyalar.
25. Korxonaning real investitsiyalarini boshqarish
26. Xarakteristik strategiyasi asosida O'zbekiston Respublikasiga xorij investitsiyalarini jalb etish
27. Xorij investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar faoliyati (qorxonada misolida).

28. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan sharoitda investitsiya loyihasini tuzish.

29. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya faoliyatini kreditlash

30. Investitsiya loyihasini tuzishda biznes rejalashtirish

31. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya muhitini belgilovchi omillar

32. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya muhitini ijtimoiy jihatlari

33. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya jarayoni, yuzaga kelish shartlari

34. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat investitsiyalarini boshqarish

35. O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosati strategiyasi

36. Investitsiya jarayonini moliyalashtirish manbalari

37. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya risklari

38. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya siyosatni ishlab chiqishda hisobga olinadigan omillar

39. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarida investitsion faoliyat.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. Goncharenko L.P, Arutyunov Yu.A. Innovatsionnaya politika. Uchebnik. – M.: 2009. – 352 str.
2. Ivasenko A.G. Inostrannye investitsii: uchebnoe posobie / A.G. Ivasenko, Ya.I. Nikonova. – M.: KNORUS, 2010. – 272 str.
3. Filosofova T.G., Быков V.A. Konkurentsia innovatsii. Uchebnoe posobie. – M.: 2008. – 295 str.
4. Fatxuddinov R.A. Innovatsionnyy menedjment. Uchebnik, – SPB.: Piter, 2004. – 400 str.
5. Xazanovich E.S. Inostrannye investitsii: ucheb. pos. – M.: KNORUS, 2009. – 320 str.
6. SHvandara V.A, Gorfinkelya V.Ya. Innovatsionnyy menedjment. 2006. – 382 str.
7. R.S. Muratov, I.A. Djalalova, S.Sh. Oripov. Korxonona iqtisodiyoti. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2014, – 424 bet.
8. B.A. Adukarimov va boshq. Korxonona iqtisodiyoti. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2013, – 368 bet.
9. Volkova O.I., Devyatkina O.V. Ekonomika predpriyatiya. Uchebnoe posobie. - M.: INFRA-M, 2008. – 601 str.
10. Gorfinkel V.Ya., prof. SHvandar V.A. Ekonomika predpriyatiya. Uchebnoe posobie. -M.: YuNITI-DANA, 2008, – 718 str.
11. Gruzinov V.P. Ekonomika predpriyatiya. Uchebnik. 2-izdanie. Uchebnoe posobie. -M.: YuNITI-DANA, 2008, - 295 str.
12. Kantor Ye.L, i dr. Ekonomika predpriyatii. Uchebnoe posobie. – SP.: Piter, 2009. – 224 str.

Qo'shimcha adabiyotlar

14. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2015. – 46 b.

15. Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

16. 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

17. Statisticheskiy yezegodnik regionov Uzbekistana. 2016. – T.: Goskomstat Uzbekistana. 2017. - 130 str.

18. Kazantseva A.K., Rubval'tera D.A. Gosudarstvenno - chastnoe partnerstvo v nauchno-

innovatsionnoy sferе. – M.: 2009. – 330 str.

19. Maxmudov E.X. Korxonа iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. – 170 bet.

20. Мильнера В.З.. Innovatsionnoe razvitie: ekonomika, intellektual'nyye resursy, upravlenie znaniyami. Uchebnik. – M.: 2010. – 624 str.

21. SHarp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii: Per. s angl. - M. INFRA-M, 2007. 1028 str.

Internet saytlari

22. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.

23. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

24. www.economics.ru

25. www.ser.uz

26. www.uza.uz

27. www.lex.uz

28. www.ziyonet.uz

O'QUV KURSINING PROSPEKTI

O'QUV KURSINING PROSPEKTI

(2021/2022 o'quv yili)

O'quv kursining to'liq nomi:	Korxonada iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish
O'quv kursining statusi	Asosiy o'quv kursi
Dastlabki tayyorgarlik:	“Real sektorda sifatni boshqarish”, “Biznesni tadqiq etish usullari”, “Korxonani rivojlantirish strategiyasi”
<p>Kursning predmeti va mazmuni: O'zbekistonda real sektorni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, tarmoq korxonalarida istiqbolli loyihalarni amalga oshirish orqali yangi zamonaviy texnika, dastgoh va uskunalar, texnologiya va nou-xaularni joriy etish eng avvalo samarali investitsion faoliyatni tashkil etishni va to'g'ri yo'naltirilgan investitsion siyosatni olib borishni taqozo etadi. Bunda investitsiya manbalarining ichki imkoniyatlaridan to'la foydalanish va investitsion jozibadorlikni oshirish orqali xorijiy investorlarni keng jalb etish asosiy vazifa hisoblanadi.</p> <p>"Korxonada iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish" fani iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini nazariy va amaliy masalalarini o'rganish va uni mo'tadil rivojlantirishning yechimlarini topishda hamda magistratura ta'limi "real sektor" yo'nalishi mutaxassislarini shakllanishida katta ahamiyatga ega va bu iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar, ushbu soha bo'yicha bilim va ko'nikmalarining yuksak darajada shakllangan bo'lishini taqozo etadi.</p>	
<p>Kursni o'qitishning maqsadi va vazifalari: "Korxonada iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish" fanini o'qitishdan maqsad – iqtisodiyot sohasida talabalarni, mamlakat real sektor tarmoqlari iqtisodiyotining nazariy va amaliy masalalari to'g'risida hamda ushbu tarmoqlarda innovatsion faoliyatni tashkil etish bo'yicha mutaxassislik profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.</p> <p>Fanning asosiy vazifalari:</p> <ul style="list-style-type: none">- real sektorda innovatsion iqtisodiyot mohiyati va turlarini o'rganish;- innovatsion iqtisodiyot jarayonining mazmuni va asosiy bosqichlarini o'rganish;- innovatsion faoliyat tushunchasi, innovatsion faoliyat funktsiyalari va innovatsiyalar tasnifini bilish;- real sektor korxonalarining innovatsion faoliyati tashkiliy shakllari va uning xususiyatlarini o'rganadi. <p>SHuningdek, "Korxonada iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish" fani fundamental fanlardan biri bo'lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.</p> <p>"Korxonada iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none">- Korxonalarda innovatsiya iqtisodiyotining mohiyati va turlari, innovatsion jarayonning mazmuni va asosiy bosqichlarini bilish, Moliya bozorlari va institutlari faoliyatini o'rganish, moliyaviy instrumentlarni qo'llay olish. Kapital qo'yilmalar, ko'chmas mulkka va qurilishga investitsiyalar kiritish haqida tushunchaga ega bo'lish. Kapital qurilishning investitsion jarayondagi o'rni, kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish usullari, investitsion loyihalar va ularning tasnifini <i>bilishi</i> kerak;- Innovatsion loyihalarni baholash uslublarini qo'llay olish, qimmatli qog'ozlarning investitsion sifatini baholay olish, qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish, chet el investitsiyalarini jalb qilish, chet el kapitalini jalb etish bo'yicha investitsion siyosatni ishlab chiqish, to'g'ridan – to'g'ri chet el investitsiyalarining xususiyati va tartibga solish uslublarini tahlil qilish va baholash amaliyoti bo'yicha <i>ko'nikmalarga ega bo'lishi</i> kerak;	

- mamlakatlar bo'yicha tavakkalchilik va chet el investitsiyalarini tartibga solish uslublari, real sektor korxonalarining innovatsion siyosati bo'yicha bilimlarni shakllantirishning asosiy maqsadlari, vazifalari va yondashuvlari haqida *malakalariga ega bo'lishi kerak.*

Kursning tematik tarkibi va mazmuni

1-semestr

№	Mavzular	Ma'ruza	Amaliy (seminar)	Mustaqil ish
1	Korxonani iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish» kursining mazmuni va vazifasi	2	2	2
2	Korxonani - mustaqil xo'jalik faoliyatini yurituvchi bozor sub'ekti	4	4	4
3	Korxonani tashkil etish va faoliyatini to'xtatish	4	4	4
4	Korxonani boshqarish	2	2	2
5	Korxonani faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish	4	4	4
6	Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi	2	2	2
7	Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvati	4	4	2
8	Korxonaning aylanma mablag'lari	4	4	2
9	Korxonada mehnat resurslari va ulardan foydalanish, mehnatni tashkil etish va haq to'lash	2	2	2
10	Ishlab chiqarish harajatlari, tannarx, foyda va rentabellik	2	2	2
11	Korxonaning investitsion faoliyati	2	2	2
12	CHet el investitsiyalari va ularni jalb etish bo'yicha investitsion siyosat	2	2	4
13	Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va tijorat siri	2	2	2
Jami		36	36	34

2-semestr

№	Mavzular	Ma'ruza	Amaliy (seminar)	Mustaqil ish
14	Real sektorda innovatsion faoliyat tushunchasi, innovatsion faoliyat funktsiyalari va innovatsiyalar tasnifi	2	2	2
15	Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishi	2	2	2

16	Real sektorda innovatsion faoliyatning tashkiliy shakllari va uning xususiyatlari	2	2	4
17	Real sektorda innovatsion faoliyatning ilmiy asoslari	2	2	4
18	Real sektorda innovatsion faoliyatda tavakkalchilikni boshqarish asoslari.	2	2	2
19	Real sektorda innovatsion faoliyatning kompleks ta'minoti	2	2	2
20	Real sektorda yangiliklar va innovatsiyalar portfelini shakllantirish	2	2	2
21	Venchur shaklidagi innovatsion biznes	2	2	2
22	Yangiliklar dasturi va loyihalarni ishlab chiqish	2	2	2
23	Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini tashkil etish	2	2	2
24	Intelektual mulk va intellektual mulk bozori	2	2	2
25	Yangiliklarni ishlab chiqarishni tashkiliy – texnologik tayyorgarligining asoslari	2	2	2
26	Real sektorda innovatsion faoliyatida bashorat qilish asoslari	4	4	2
27	Real sektorda innovatsiyalar marketingi	4	4	2
28	Real sektorda innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi	4	4	2
	2-semestr jami	36	36	34
	Jami	72	72	68

1-Mavzu. Korxonada iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish» kursining mazmuni va vazifasi

2. Abdulkarimov I.T. va boshqalar Korxonalar iqtisodiy salohiyati tahlili. T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2009. – 25-38 betlar.

3. «O'z Ishingizni yarating yoki tadbirkor nimalarni bilishi lozim» - Toshkent shahri, YuNIDO, «Biznes maslahat markazi» loyihasi, 2009. – 139-163 betlar.

4. Ekonomika predpriyatiya. 3-e izd., pererab. i dop. Uchebnik dlya vuzov / Pod red. prof. V.Ya. Gorfinkelya, prof. V.A.Shvandara M.: YUNITI-DANA 2010.

21- Mavzu. Venchur shaklidagi innovatsion biznes (2 soat)

Reja:

1. Venchur kapitalining iqtisodiy vazifalari.

2. Tavakkalchilikka asoslangan biznesni moliyalashtirishning asosiy xususiyatlari.

3. Venchur asosidagi moliyalashtirishning ustivor yo'nalishlari.

4. Moliyaviy tavakkalchilikni minimallashtirishning asosiy tamoyillari.

5. Venchur asosidagi biznesni davlat tomonidan tartibga solish.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: "Nima uchun?", jamoada ishlash, baliq skeleti.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti: O'quv.qo'll. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2010. – 93-105 betlar.

2. Abdulkarimov I.T. va boshqalar Korxonalar iqtisodiy salohiyati tahlili. T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2009. – 25-38 betlar.

3. «O'z Ishingizni yarating yoki tadbirkor nimalarni bilishi lozim» - Toshkent shahri, YuNIDO, «Biznes maslahat markazi» loyihasi, 2009. – 139-163 betlar.

4. Ekonomika predpriyatiya. 3-e izd., pererab. i dop. Uchebnik dlya vuzov / Pod red. prof. V.Ya. Gorfinkelya, prof. V.A.Shvandara M.: YUNITI-DANA 2010.

22- Mavzu. Yangiliklar dasturi va loyihalarni ishlab chiqish (2 soat)

Reja:

1. Innovatsion loyiha tushunchasi va uning asosiy elementlari.

2. Innovatsion loyiha turlari va uning mazmuni.

3. Innovatsion loyihalarni ishlab chiqish tartibi.

4. Innovatsion g'oyaning shakllanishi va loyiha maqsadlarini qo'yish. Loyiha g'oyasi bo'yicha marketing tadqiqotlari.

5. Innovatsion loyihalarni boshqarish va amalga oshirishning dasturli-maqсадli usullari.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: [insert texnikasi](#), nilufar guli, guruhlarda ishlash, T jadvali

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti: O'quv.qo'll. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2010. – 93-105 betlar.

2. Abdulkarimov I.T. va boshqalar Korxonalar iqtisodiy salohiyati tahlili. T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2009. – 25-38 betlar.

3. «O'z Ishingizni yarating yoki tadbirkor nimalarni bilishi lozim» - Toshkent shahri, YuNIDO, «Biznes maslahat markazi» loyihasi, 2009. – 139-163 betlar.

4. Ekonomika predpriyatiya. 3-e izd., pererab. i dop. Uchebnik dlya vuzov / Pod red. prof. V.Ya. Gorfinkelya, prof. V.A.Shvandara M.: YUNITI-DANA 2010.

23- Mavzu. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini tashkil etish (2 soat)

Reja:

1. Ilmiy-tadqiqot tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI), vazifalari, tamoyillari va bosqichlari.

2. Fundamental tadqiqotlar, amaliy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlari bosqichlari. ITTKI asoslanadigan tarmoqlararo hujjatlar tizimi.

3. Innovatsiya tashkilotining patent-litsenziya faoliyati. Ixtiroga bo'lgan huquqni rasmiylashtirish.

4. Innovatsion loyihalashtirish asoslari.

5. Innovatsion loyihalar ekspertizasi va uni olib borish usullari.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: "Nima uchun?", jamoada ishlash, baliq skeleti.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti: O'quv.qo'll. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2010. – 93-105 betlar.

2. Abdulkarimov I.T. va boshqalar Korxonalar iqtisodiy salohiyati tahlili. T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2009. – 25-38 betlar.

3. «O'z Ishingizni yarating yoki tadbirkor nimalarni bilishi lozim» - Toshkent shahri, YuNIDO, «Biznes maslahat markazi» loyihasi, 2009. – 139-163 betlar.

4. Ekonomika predpriyatiya. 3-e izd., pererab. i dop. Uchebnik dlya vuzov / Pod red. prof. V.Ya. Gorfinkelya, prof. V.A.Shvandara M.: YUNITI-DANA 2010.

24- Mavzu. Intelektual mulk va intellektual mulk bozori (2 soat)

Reja:

1.Intelektual mulkning mohiyati va ob'ektlari.

2.Intelektual mulkning hozirgi sharoitdagi ahamiyati.

3. Intelektual mulk bozorini rivojlanishining tarixiy asoslari.

4.Intelektual mulk turlari.

5.Intelektual mulk ob'ektlarini himoya qilishning huquqiy asoslari.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar:[insert texnikasi](#), nilufar guli, guruhlarda ishlash, T jadvali

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti: O'quv.qo'll. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2010. – 93-105 betlar.

2. Abdulkarimov I.T. va boshqalar Korxonalar iqtisodiy salohiyati tahlili. T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2009. – 25-38 betlar.

3. «O'z Ishingizni yarating yoki tadbirkor nimalarni bilishi lozim» - Toshkent shahri, YuNIDO, «Biznes maslahat markazi» loyihasi, 2009. – 139-163 betlar.

4. Ekonomika predpriyatiya. 3-e izd., pererab. i dop. Uchebnik dlya vuzov / Pod red. prof. V.Ya. Gorfinkelya, prof. V.A.Shvandara M.: YUNITI-DANA 2010.

25- Mavzu. Yangiliklarni ishlab chiqarishni tashkiliy – texnologik tayyorgarligining asoslari (2 soat)

Reja:

1.Texnologiyalarning rivojlanish tendentsiyasi va ularning tasnifi.

2.Ishlab chiqarishni tashkiliy-texnologik tayyorgarligining vazifalari, xususiyatlari va bosqichlari.

3.Ishlab chiqarishning tashkiliy-texnikaviy darajasini tahlil qilish va uning istiqboli.

4.Ishlab chiqarishning texnikaviy va tashkiliy darajasi, ularga ta'sir qiluvchi omillar.

5.Injiniring va reinjiniring jarayonlari.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: "Nima uchun?", jamoada ishlash, baliq skeleti.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti: O'quv.qo'll. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2010. – 93-105 betlar.
2. Abdulkarimov I.T. va boshqalar Korxonalar iqtisodiy salohiyati tahlili. T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2009. – 25-38 betlar.
3. «O'z Ishingizni yarating yoki tadbirkor nimalarni bilishi lozim» - Toshkent shahri, YuNIDO, «Biznes maslahat markazi» loyihasi, 2009. – 139-163 betlar.
4. Ekonomika predpriyatiya. 3-e izd., pererab. i dop. Uchebnik dlya vuzov / Pod red. prof. V.Ya. Gorfinkelya, prof. V.A.SHvandara M.: YuNITI-DANA 2010.

26- Mavzu. Real sektorda innovatsion faoliyatida bashorat qilish asoslari (2 soat)

Reja:

1. Bashorat qilish tushunchasi va usullari.
2. Innovatsiyalari bashorat qilish. Innovatsiyalar ta'minotini bashorat qilish: axborot, texnikaviy, moliyaviy va xodimlar ta'minoti bashorati.
3. Innovatsiyalarni ijtimoiy va ekologik oqibatlarini bashorat qilish.
4. Texnologik bashorat qilish: yondashuvlar evolyutsiyasi, asosiy tushunchalar va uslublari.
5. Axborot texnologiyalari, biotexnologiyalar, yangi materiallar va energetika sohalarida innovatsion-texnologik rivojlanishning jahon miqyosidagi bashoratlari.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: "Qanday?" usuli, nilufar guli.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti: O'quv.qo'll. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2010. – 93-105 betlar.
2. Abdulkarimov I.T. va boshqalar Korxonalar iqtisodiy salohiyati tahlili. T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2009. – 25-38 betlar.
3. «O'z Ishingizni yarating yoki tadbirkor nimalarni bilishi lozim» - Toshkent shahri, YuNIDO, «Biznes maslahat markazi» loyihasi, 2009. – 139-163 betlar.
4. Ekonomika predpriyatiya. 3-e izd., pererab. i dop. Uchebnik dlya vuzov / Pod red. prof. V.Ya. Gorfinkelya, prof. V.A.SHvandara M.: YuNITI-DANA 2010.

27- Mavzu. Real sektorda innovatsiyalar marketingi (2 soat)

Reja:

1. Innovatsiyalar marketingining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Mustaqil ilmiy texnikaviy tashkilotlardagi marketingning xususiyatlari.
3. Ilmiy- texnikaviy tashkilotning mikro-makro muhiti.
4. Ilmiy-texnikaviy mahsulotning bozordagi harakati.
5. Ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan texnologik yangiliklar marketingi.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: "Qanday?" usuli, nilufar guli.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti: O'quv.qo'll. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2010. – 93-105 betlar.
2. Abdulkarimov I.T. va boshqalar Korxonalar iqtisodiy salohiyati tahlili. T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2009. – 25-38 betlar.

3. «O'z Ishingizni yarating yoki tadbirkor nimalarni bilishi lozim» - Toshkent shahri, YuNIDO, «Biznes maslahat markazi» loyihasi, 2009. – 139-163 betlar.

4. Ekonomika predpriyatiya. 3-e izd., pererab. i dop. Uchebnik dlya vuzov / Pod red. prof. V.Ya. Gorfinkelya, prof. V.A.SHvandara M.: YuNITI-DANA 2010.

28- Mavzu. Real sektorda innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi (2 soat)

Reja:

1. Innovatsion faoliyatga kiritilgan investitsiyalar.
2. Innovatsion faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari tizimi.
3. Innovatsion faoliyat samaradorligini baholash bo'yicha YuNIDO uslubiyoti.
4. Innovatsiyalarni amalga oshirishdan va yangiliklarni sotishdan olinadigan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy, ekologik samara.
5. Innovatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilishni tashkil etish.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: [insert texnikasi](#), nilufar guli, guruhlarda ishlash, T jadvali

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti: O'quv.qo'll. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2010. – 93-105 betlar.

2. Abdulkarimov I.T. va boshqalar Korxonalar iqtisodiy salohiyati tahlili. T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2009. – 25-38 betlar.

3. «O'z Ishingizni yarating yoki tadbirkor nimalarni bilishi lozim» - Toshkent shahri, YuNIDO, «Biznes maslahat markazi» loyihasi, 2009. – 139-163 betlar.

4. Ekonomika predpriyatiya. 3-e izd., pererab. i dop. Uchebnik dlya vuzov / Pod red. prof. V.Ya. Gorfinkelya, prof. V.A.SHvandara M.: YuNITI-DANA 2010.

**FANNING MAZMUNI VA AXBOROT-RESURS
TA'MINOTI**

Mavzular bo'yicha matn annotatsiyasi va oxirgi yangiliklar

1-mavzu. Innovatsiyalar nazariyasi: texnologiya va samaradorlik(4 soat)

Raja:

- 1.1. Innovatsiyalar to'g'risida umumiy tushunchalar
- 1.2. Innovatsiyalar nazariyasi
- 1.3. Texnologiyalar ko'rinishidagi innovatsiyalar va ularning samaradorligi

1.1. Innovatsiyalar to'g'risida umumiy tushunchalar

Mustaqil O'zbekiston rivojlanishining hozirgi bosqichida innovatsiya insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylanmoqda. Innovatsiya jarayonining doimiy rivojlanib borishi insoniyat va ijtimoiy hayot o'zgarishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

“Innovatsion iqtisodiyot” fani “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”, “Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modellari”, “Axborot tizimlari”, “Huquqshunoslik”, “Innovatsion marketing” va “Makro- va mikroiqtisodiyot” kabi fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganiladi.

Ushbu sohada eng yangi va zamonaviy ilmiy izlanishlarni olib borgan va shu sohaga oid ilmiy asarlar muallifi bo'lgan Jati Senguptaning (1-ilova) innovatsiyalarga bergan ta'rifiga to'xtalib o'tsak. “Innovatsiyalar turli shakllarda bo'lishi mumkin, ammo har qanday shaklda u mahsulot tannarxini kamaytirish va/yoki bozor talabini kengaytirishga yordam qiladi. Innovatsiyalarning ba'zi bir muhim turlari sifatida:

1. Texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalar
2. Endogen yoki ekzogen innovatsiyalar
3. Sanoat rivojlanishida tanlov mexanizmi innovatsiyasi
4. Texnologiyalar konsortsiumi orqali shakllantiriladigan innovatsiyalar”¹ qabul qilinadi.

Fanning vazifasi – o'rganuvchida innovatsion faoliyatning mohiyati, roli, asosiy elementlari va bosqichlari bo'yicha tizimli tushunchalarni shakllantirish, innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi mohiyatini ochib berish, intellektual mulk ob'ektlarini yaratish, huquqiy muhofazasi va himoyasini ta'minlash, ixtiro, kashfiyotlar tizimini tashkil qilish va boshqarish sohasidagi asosiy tushunchalar va ta'riflarni, O'zbekiston va boshqa davlatlarning innovatsion tizimi va shu sohadagi qonunlarni o'rgatishdan iboratdir.

Agar innovatsiyalarning Jati Sengupta bergan ta'rifiga o'tadigan bo'lsak, u quyidagicha ketma-ketlikda keltirilishi mumkin. “Texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalar mahsulot innovatsiyasi, sanoatda “ilmiy izlanish va rivojlanish”² ko'rinishidagi investitsiyalar va taqlid va takomillashtirishni o'z ichiga olgan texnologiyalar transferini o'zida mujassam etadi.

Endogen innovatsiyalar [1] o'z ichiga innovatsiyalarga investitsiya kiritishga moyillikni bozor tomonidan rag'batlantirishni qamrab oladi. Bozor rag'bati deganda

¹ Jati Sengupta. Theory of innovation. A new paradigm of growth. Springer International Publishing Switzerland 2014. P 12 keyingi havolalarda ushbu kitobning faqat betlari keltiriladi

² Ingliz ilmiy adabiyotlarida uchraydi R&D (research and development) - “ilmiy izlanish va rivojlanish (IIR)” degani bo'lib, rivojlanishga olib keluvchi, turtki bo'luvchi ilmiy izlanish deganidir.

monopoliyadan patentlash qonunlari orqali himoyalaniş va texnologik musobaqada g'olib chiqishni nazarda tutadi"¹.

Ta'kidlash joizki, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq innovatsion faoliyatni rivojlantirish, intellektual mulk huquqini yaratish, ularni muhofaza qilish, huquq egalariining manfaatlarini himoya qilish, respublikamizning sohaga oid xalqaro integratsiyalashuvini jadallashtirish, xalqaro shartnomalarga kirish orqali mamlakatimiz mualliflarining huquqlarini butun dunyoda muhofaza qilish kabi muhim masalalar davlat ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab olindi. Hozirgi globallashuv jarayonlarida "Innovatsion iqtisodiyot" fanining ahamiyati benihoya kattadir. Iqtisodiyotni rivojlantirishda intellektual mulk, ixtirolar, yangi kashfiyotlar hamda ularni patentlash, litsenziyalash va sertifikatsiyalashning o'rni salmoqlidir. Chunki, dunyoning qaysi burchagida bo'lmasin bunyod etilgan ixtiro bu mulk hisoblanib, undan barcha xalqlar foydalanishi mumkin. Bu masala o'z navbatida patent olish va uni sotish orqali tartibga solinadi.

"Ekzogen innovatsiyalarni ilmiy va notijorat institutlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasini misol sifatida keltirish orqali yoritadigan bo'lsak, innovatsiyalarning bu turi ba'zan yangi mahsulot va yangi jarayonga sababchi bo'lishi mumkinligi aniqlangan. Solunig iqtisodiy o'sish modelida barcha texnologik rivojlanishlar ekzogen innovatsiya sifatida qaralgan bo'lsada, pirovardida sanoatda va butun bir mamlakat uchun ishlab chiqarish imkoniyatlarini keskin o'zgartirdi.

Innovatsiyalarning keyingi ikki turi kamroq e'tiborga sazovor bo'lishi mumkin. Evolyutsion tanlov mexanizmi firmalarni dinamik bozor samaradorligi va patent tizimi orqali tanlaydi. Bu mexanizm texnologik o'zgarishlarning ham kumulyativ xususiyatini, ham bozor strukturasiining endogen aspektlarini hisobga oladi.

Patentlash tizimi texnologik tanlovning ikkinchi instrumentlar tizimidir. U mulkchilik huquqini aniqlashtirib texnologik innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Masalan, farmatsevtik sanoatda shunday rag'batga erishish uchun IIRdan foydalanishadi. Adabiyotshunoslik texnologiyasida patentlash tizimi cheklangan darajada texnologiya va bilimlarni tarqalishini o'z ichiga olgan. Bu esa o'z o'rnida texnologik izlanishda innovatsiyalarning keng ko'lamli eksperimentlarni olib borilishiga turtki bo'ladi"².

1.2. Innovatsiyalar nazariyasi

Mamlakatimizda iqtisodiyot rivojlanishining so'nggi bosqichlarida innovatsion jarayonni jadallashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Prezident I.A.Karimovning 2008 yildagi "Ishlab chiqarishga innovatsion loyihalar va texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirishning qo'shimcha choralari" №916-sonli qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarining innovatsion jarayonining natijaviyligi jami omillar, ya'ni amalga oshirish sharoiti, resurslar ta'minoti, menejment tiziminiing to'g'ri yo'lga qo'yilganligi bilan aniqlanadi. Innovatsion salohiyat tushunchasi iqtisodiyot fanida XX asrning so'nggi yillarida paydo bo'ldi. Innovatsion salohiyat mamlakatning texnika va texnologiyasi yangilanishi, unda ilmiy-texnika rivojlanishi darajasini, diversifikatsiya siyosatining kuchayishini anglatadi. Ba'zi iqtisodchi olimlarimiz innovatsion salohiyatni iqtisodiy salohiyatdan yuqori qo'yishadi. Bunda ular ilmiy-texnika darajasiga ko'proq e'tibor qaratishadi. Bizning fikrimizcha, bunday qarashlar unchalik to'g'ri emas. Chunki har qanday holatda iqtisodiy salohiyat innovatsion salohiyatga qaraganda ancha keng tushuncha bo'lib, u mamlakatdagi ishlab chiqarish salohiyati, resurslar salohiyati, moddiy-mineral

¹12

²12

salohiyati, qazilma boyliklar salohiyati va boshqalarni qamrab oladi. Hozirgi davrda O'zbekistonda iqtisodiyot salohiyati 3,0 trl. AQSH dollaridan ortiqdir. Innovatsion salohiyatni kuchaytirish katta hajmda investitsiyani jalb etishni talab qiladi. Hozirda iqtisodiy rivojlangan davlatlar yangi texnika va texnologiyani yaratishga, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga YaIMning 5-7 %ini sarflaydi. O'zbekistonda esa bu raqam biroz past. SHu bilan birga respublikamizda intellektual salohiyat boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha yuqori.

Ma'lumki, respublika Prezidenti rahbarligida 2014-2019 yillarga mo'ljallangan katta investitsion loyiha-dastur qabul qilindi. Dasturga muvofiq, 2014-2019 yillarda respublikamizda 55,4 milliard AQSH dollarilik 550 ta investitsion loyiha bajarilishi kerak (1-jadval).

1-jadval

**2014-2019 yillarda muhim investitsion loyihalarni
amalga oshirish dasturi**

Sanoat tarmoqlari	Loyiha qiymati, mlrd. AQSH doll.	Tuzilishi (loyihaning umumiy qiymatidan), %
Neft-gaz sektori	15,3	27,6
Neft-gaz kimyo sanoati	12,1	21,8
Transport va infratuzilma	7,5	13,5
Energetika	5,8	10,5
Kimyo sanoati	5,6	10,1
Tog'-ruda va metallurgiya sanoati	4,4	7,9
To'qimachilik sanoati	1,9	3,4
Mashinasozlik	1,4	2,5
Qurilish materiallari sanoati	0,8	1,4
Boshqa tarmoqlar	0,6	1,3
Jami:	55,4	100,0

Manba: Azimov R.S. Effektivnost' antikrizisnoy programmy i vajneyshie prioritety postkrizisnogo razvitiya Uzbekistana. 12 aprelya 2019 g.

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda innovatsion salohiyatni kuchaytirishda ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, yaqin yillardagi innovatsion salohiyatga katta hissasini qo'shadigan ustuvor yo'nalishlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tarmoqlar ustuvorligini ta'minlash;
- bandlikni ta'minlash uchun raqobat afzallikka ega bo'lgan fan sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish;
- eksport tuzilishida tovar diversifikatsiyasini kengaytirish.

1.3. Texnologiyalar ko'rinishidagi innovatsiyalar va ularning samaradorligi

Innovatsiyalarni joriy qilishning eng optimal darajalarini e'tiborga olgan holda innovatsion faoliyatga kuyidagicha ta'rif va tavsiflarni berish mumkin (1-rasm).

Innovatsion faoliyat - bu ishlab chiqarishni, uning moddiy-texnika bazasini yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi g'oyalar va ishlanmalarni yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan jarayonlar majmuasidir.



1-rasm. Innovatsiyani iqtisodiy faoliyat sifatida turlari

“Kumulyativ ilmiy izlanish tajribalardan biri kumulyativ mahsulotni o’z ichiga olib, ushbu kumulyativ mahsulot texnologik jarayonning tarkibiy qismidir. Norzvorzi va Janglarning (1992) sanoat unumdorligini o’sishiga oid empirik izlanishlari orqali texnologik rivojlanishni tannarxini kamaytirish yo’lini mikroelektronika, telekommunikatsiya va mos sanoat turlarida aniqladilar”¹.

Ushbu usullarga tayangan holda makon va zamonda innovatsion imkoniyatni quyidagi turlarga ajratish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Innovatsion imkoniyatning iqtisodiy kategoriya sifatida tasnifi

Innovatsion imkoniyat yoki quvvat ob’ekt innovatsion taraqqiyotining oxirgi chegarasidir. Davlatning innovatsion imkoniyatini uch xil usul bilan aniqlash mumkin:

- hududiy (hudud innovatsion imkoniyatining o’rtacha solishtirma ko’rsatkichi);
- tarkibiy (xo’jalik yuritish tarmog’ining innovatsion imkoniyatini o’rtacha solishtirma ko’rsatkichi);
- ijtimoiy (xalq innovatsion imkoniyatining o’rtacha solishtirma ko’rsatkichi).

Takrorlash uchun savollar

1. Innovatsion faoliyat kontseptsiyasi tushunchasini sharxlab bering.
2. Korxonaning innovatsion salohiyati va uni amaliyotda foydalanish qobiliyatini qanday aniqlash mumkin?
3. Intellektual salohiyat qanday aniqlanadi va uni innovatsion salohiyati bilan qanday farqi bor?
4. Korxonaning innovatsion salohiyati qanday baholanadi?

¹ 2

2-mavzu. Innovatsiyalarning endogen xususiyatlari(4 soat)

Reja:

- 2.1. Bozor tuzilmasi va uning yangi texnologiyalar rivojlanishiga ta'siri
- 2.2. Endogen o'sish nazariyasi va kapital jamlanishi ta'siri
- 2.3. Bilim diffuziyasi

2.1. Bozor tuzilmasi va uning yangi texnologiyalar rivojlanishiga ta'siri.

Innovatsion faoliyatning pirovard natijasi bo'lib innovatsiya mahsuloti (texnologiya) hisoblanadi. Innovatsiya mahsuloti (texnologiyasi) o'zining hajmi bilan farqlanadi, u yangi texnologiyani joriy etilishi evaziga korxonada ishlab chiqarish imkoniyatlarini o'sishini ifodalovchi ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi.

Innovatsion faoliyat o'z ichiga ma'lum bosqichli jarayonlarni oladi. Ushbu bosqichli jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin (1.3-rasm).



3-rasm. Innovatsion faoliyatni tashkil etuvchi jarayonlar

Innovatsion faoliyatni mazmun va mohiyatiga, pirovard olinadigan natijasiga ko'ra korxonalar tomonidan olib boriladigan ichki investitsiya faoliyatining tarkibiy qismi, ya'ni uning bir bo'lagi deb hisoblash mumkin. Ichki investitsiya faoliyati innovatsion faoliyatdan tashqari kapital qurilish, yangi texnika va texnologiyalarni sotib olish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, kengaytirish, rekonstruktsiya qilish kabi ishlarni ham bevosita o'z ichiga oladi. Demak, ichki investitsion faoliyat innovatsion faoliyatga nisbatan mazmunan keng tushuncha hisoblanadi. Innovatsion faoliyatga sarflangan mablag'lar jami kapital investitsiyaning yangi g'oya, ishlanmalar, jarayonlar, mahsulot, xizmat turlarini yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga taalluqli bo'lgan qismidir.

SHunday qilib, innovatsion faoliyat makon va zamonda yuz bergan va berayotgan, o'zining moddiy va nomoddiy ko'rinishdagi hamda pulda baholanadigan mulk shaklidagi pirovard mahsuliga ega bo'lgan, bunga erishish uchun ma'lum sarf-xarajatlarni talab qiladigan xo'jalik faoliyatining bir turi hisoblanadi. Aynan shu mazmunda korxonalarining innovatsion faoliyati ularda yuritilayotgan buxgalteriya hisobi hamda o'tkaziladigan audit predmetini tashkil qiluvchi ob'ektlardan biri hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat sub'ektlari quyidagilardan iborat:

- innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslar;
- innovatsiyalarni amalga oshiruvchi turli mulkchilik shaklidagi innovatsion korxonalar;

- innovatsion faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan intellektual mulk egalari: korxonalar loyihalari, qurilmalar, sanoat namunalari, texnologik jarayonlar, “nou-xau”, kashfiyot va ixtirolar mualliflari, dizaynerlar;
- innovatsiyalar amalga oshirishga kapital kirituvchi investorlar: banklar, fondlar, korporatsiyalar, lizing firmalari va h.k.;
- innovatsion jarayonga xizmat ko’rsatadigan va uning infratuzilmasini ta’minlaydigan vositachilar: konsalting va injiniring firmalari, texnologik inkubatorlar, texnoparklar, texnopolislar, axborot markazlari va h.k.;
- innovatsion faoliyatni boshqarish, muvofiqlashtirish va tartibga solishda ishtirok etadigan davlat organlari va mahalliy o’zini-o’zi boshqarish organlari.

2.2. Endogen o’sish nazariyasi va kapital jamlanishi ta’siri

“Keyingi paytlardagi innovatsiyalar oqimi IIRda uyushtirilgan “poyga” uchun stoxastik jarayonlar modellashtirilgandir”¹. XXI asrda innovatsion loyihalar va yangi g’oyalarning hayotga keng tatbiq etilishi jamiyat va insoniyat taraqqiyoti uchun samarali hisoblanadi. Texnologiya taraqqiyoti asrida ilmiy loyihalarni ishlab chiqarish va hayotga joriy etish, mamlakat iqtisodiyotining yuksalishida va yangilanishida muhim omil sanaladi. Innovatsion faoliyat infratuzilmasining rivojlanish darajasi innovatsion siyosatni amalga oshirishga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biridir.

Xorijiy adabiyotlarda “innovatsion infratuzilma” atamasi yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonni yaratish, ishlab chiqarishda o’zlashtirish va amaliyotda qo’llash bo’yicha xizmatlar ko’rsatadigan tashkilotlar yig’indisi sifatida ta’riflanadi.

Innovatsion faoliyat infratuzilmasi - innovatsion faoliyat sub’ektlariga innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan xizmatlar ko’rsatuvchi tashkilotlar jamlanmasidir.

“Agar muvaffaqiyatli innovatsiyalar Puassonning stoxastik jarayoni sababli tez sur’atli (u) ravishda amalga oshadi deb qabul qilsak, unda ma’lum bir davrda firmaning muvaffaqiyatli innovatsiyalardan foydalanayotganligi dt udt ga o’zgaradi. SHunda kutilgan monopoliya daromadi π SHumpeter bo’yicha muvaffaqiyatli tadbirkor uchun quyidagi ko’rinishda bo’ladi:

$$\pi(n, u) = r(n)u - c(u, f) \quad (1.2)$$

bu yerda:

$r=r(n)$ – oniy monopol daromad bo’lib, u innovatsion musobaqa g’olibi tomonidan erishiladi va $c(u, f)$ – xarajatlar funksiyasi tez sur’atlilik u va o’zgarmas harajatlar f kesishganligi”².

2.3. Bilimlar diffuziyasi

Innovatsion jarayonning mohiyati shunda namoyon bo’ladiki, u innovatsiyalar tashabbusi bilan chiqish, yangi mahsulot va operatsiyalar ishlab chiqish, ularni bozorda sotish va diffuziyalash bo’yicha maqsadli yo’naltirilgan harakatlar zanjirini ifodalaydi. Innovatsion jarayon yettita elementni o’z ichiga oladi, ularning umumiy bir ketma-ketlikdagi zanjirga birlashuvi innovatsion jarayon strukturasi tashkil etadi.

¹ 6

² 6

“Vaqtinchalik monopol foydani qo’llab quvvatlanishi ustundir. Ortiqchalikni inkor etilishi ta’siri firmalarning investitsiyaviy qarorlarini keskinlik bilan qabul qilishiga olib keladi. Chunki, kutilgan daromad aslida yuqoriroq bo’ladi. Shu ortiqchalik samarasiga bog’liq holda bilimlar diffuziyasi dasturiy ta’minotlar texnologiyasi va transmilliy kompaniyalar tomonidan ko’paytirilgan bevosita investitsiyalar orqali sur’atlar tezlashtiriladi”¹.

Takrorlash uchun savollar

1. Bozor tuzilmasi va uning yangi texnologiyalar rivojlanishiga ta’siri qanday?
2. Endogen o’sish nazariyasi va kapital jamlanishi tushunchasiga ta’rif bering?
3. Bilimlar diffuziyasi tushunchasiga ta’rif bering?
4. Innovatsiyaning hayotiylik davri nechiga bo’linadi.

3-mavzu. Tanlov va sanoatning rivojlanishi(4 soat)

Reja:

- 2.4. Innovatsion va sanoat rivojlanishi
- 2.5. Innovatsiyalarni amalga oshirishda tanlovning ahamiyati
- 2.6. Innovatsion faoliyatning bugungi infratuzilmasi

3.1. Innovatsion va sanoat rivojlanishi

XXI asrda innovatsion loyihalar va yangi g’oyalarning hayotga keng tatbiq etilishi jamiyat va insoniyat taraqqiyoti uchun samarali hisoblanadi. Texnologiya taraqqiyoti asrda ilmiy loyihalarni ishlab chiqarish va hayotga joriy etish, mamlakat iqtisodiyotining yuksalishida va yangilanishida muhim omil sanaladi. Innovatsion faoliyat infratuzilmasining rivojlanish darajasi innovatsion siyosatni amalga oshirishga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biridir.

Davlatning fan-texnika taraqqiyotini tartibga solish sohasidagi tartibga solish tizimi quyidagi elementlarni o’z ichiga olishi zarur:

- davlat siyosatining aniq belgilangan maqsadlarini;
- belgilangan maqsadlarni amalga oshiradigan boshqaruv organlari va ularning funktsiyalarini;
- boshqaruv funktsiyalarini to’liq amalga oshirishda tartibga solish ob’ekti va axborot beradigan axborot tizimini;
- davlat boshqaruv organlarining qo’llab-quvvatlash va tartibga solish instrumentlari - davlatning fan-texnika taraqqiyotini tartibga solishning asosiy instrumentlariga nafaqat uning elementlari taalluqli bo’ladi, balki davlatning ilmiy imtiyozlar tizimiga muvofiq, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar sohasi o’rtasida byudjet va byudjetdan tashqari resurslarni taqsimlash orqali ilmiy texnika yangiliklarini davlat tomonidan to’g’ridan-to’g’ri qo’llab-quvvatlashni;
- innovatsion jarayonlarning sub’ektlariga turli xil imtiyozlarni taqdim etishni (ham innovatsiyalarni amalga oshirayotgan bevosita tadbirkorlarga, ham ularni yoki bu darajada qo’llab-quvvatlayotgan infratuzilma elementlariga);

¹ 7

– iqtisodiyotda innovatsion muhitni shakllantirish va ilmiy texnik axborotlar milliy xizmatini, patentlash va litsenziyalash, standartlashtirish, sertifikatlash, statistika, xorijiy tajribani o'rganuvchi tahliliy markazlar, ilmiy-texnik rivojlanish, prognozlashtiruvchi kadrlarni tayyorlash kabilarni o'z ichiga oluvchi tadqiqotlar va ishlanmalar ta'minoti infratuzilmasi hamda ular asosida qaror qabul qiluvchi shaxslarni ustuvor ilmiy, milliy tizimlar bilan ta'minlashdan iborat.

“Yovanovich (1982) va Matstsukato (2000) stoxastik parametrlarga bog'liq bo'lgan xarajatlar samarasi ustida ish olib borishgan. Sanoatning hayot tsiklida stoxastik parametrlar tomonidan mahsulot dizayni hali standartlashtirilmasdan noaniqliklar taqdim qilingan”¹.

3.2. Innovatsiyalarni amalga oshirishda tanlovning ahamiyati

Ekspertlarning hisoblashicha, “korxonalarini yangi mahalliy va xorijiy texnologiyalarni joriy qilishga rag'batlantiruvchi, asosiysi buning uchun imkoniyat taqdim etuvchi tashkiliy va institutsional muhit yaratish birlamchi ahamiyat kasb etadi”. Bizning bozorda faqat hukumatgina innovatsiyalar ruhini uyg'otishi mumkin degan yolg'on tasavvur vujudga kelishi mumkin. Faqat uning strategik muammosi kuchli iroda, real stimul va resurslar bilan ta'minlangan holda tadbirkorlikning rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berishi mumkin.

Demak, davlatning iqtisodiy siyosatida top-down va bottom-up yondashuvlari imkoniyatlarini birlashtiruvchi kompleksli innovatsion siyosat zarur bo'ladi. Mahalliy kompaniyalar, akademiya va OO'Yu esa birinchi bo'lishning uddasidan chiqa olmasada, hech bo'lmasa hammadan ortda qolmaslik uchun diqqat-e'tiborni susaytirmasliklari lozim.

“Sanoat evolyutsiyasi asosan innovatsiyalar va bozor strukturasi dinamikasi orqali tanlov mexanizmiga bog'liqdir. Bu yerda yangi texnologiyalar va firmalarning kirish va chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi”².

Umumiy jihatdan innovatsion jarayon bu voqea-hodisalarning ketma-ketlikdagi zanjiri bo'lib, uning davomida yangilik oddiy bir g'oyadan muayyan mahsulot, texnologiya yoki xizmatgacha “pishib yetadi”³ va xo'jalik amaliyotida tarqaladi.

Bu jarayonni quyidagi sxema ko'rinishida aks ettirish mumkin:

$Ft \leftrightarrow At \leftrightarrow I \leftrightarrow L \leftrightarrow Q \leftrightarrow O' \leftrightarrow Si \leftrightarrow M \leftrightarrow S;$

bu yerda:

Ft - fundamental tadqiqotlar;

At - amaliy tadqiqotlar;

I - ishlanmalar;

L - loyihalashtirish;

Q - qurilish;

O' - o'zlashtirish;

Si - sanoat ishlab chiqarishi;

M - marketing;

S - sotuv.

3.3 Innovatsion faoliyatning bugungi infratuzilmasi

Innovatsion tadbirkorlik infratuzilmasi birinchi navbatda, alohida bo'lib o'tadigan va innovatsion deb nomlangan turga moslashib oladigan tadbirkorlikni ta'minlovchi tizimni

¹10

²9

³Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. – T.: TDIU, 2013. 34-b.

ifodalaydi. U innovatsion sohaning tadqiqotchilik-loyihalash sektorini iqtisodiyotning real sektori va yakuni iste'molchi bilan birlashtiradi.

Bevosita innovatsiyalash, ya'ni innovatsiyalarni taklif sifatida yaratish uchun va innovatsion tadbirkorlik, ya'ni bu takliflarni amalga oshirish va ilgari surish uchun infratuzilma elementlarining mazmun-mohiyatiga kengroq e'tibor qaratish zarur (2-jadval).

Mazkur infratuzilma turlarining ayrim elementlari mos kelishi yoki umumiy bo'lishi mumkin, bu - axborot xizmatlari ko'rsatuvchi firmalar, tajriba va muhandislik markazlari, moliyaviy strukturalar, patentli-litsenziyalik tashkilotlardir.

2-jadval

Infratuzilma elementlarining qiyosiy jadvali

Innovatsion tadbirkorlik uchun	Bevosita innovatsiyalash uchun
Joriy qiluvchi firmalar	Sanoat universitetlari va xalq
Muhandislik markazlari	xo'jaligining boshqa sektorlari
Injeniring firmalari	Tadqiqotchilik majmualari
Axborot xizmati ko'rsatuvchi firmalar	Fanlar akademiyasi
Konsalting firmalari	Kutubxonalar va ma'lumotlar to'plamlari
Reklama faoliyati bo'yicha firmalar	Sinov tariqasidagi ishlab chiqarishlar
Banklar va boshqa kredit tashkilotlari	Tajriba laboratoriyalari va markazlari
Innovatika ixtisoslashgan auditorlik firmalari	Axborot xizmati ko'rsatuvchi firmalar
Ilmiy-texnik shirkatlar	Patent-litsenziyalik tashkilotlar
Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari	Ilmiy parklar
Sertifikatsiya markazlari	Innovatsion markazlar
Lizing kompaniyalari	Innovatsion-ishlab chiqarish
Patent-litsenziyalik tashkilotlar	komplekslari
Biznes-inkubatorlar	
Texnologiyalar transferi markazlari	
Sug'urta kompaniyalari	

Takrorlash uchun savollar

1. Innovatsiyalarni amalga oshirishda tanlovning ahamiyati nimada.
2. Innovatsion faoliyatning bugungi infratuzilmasini tushuntiring.
3. Iqtisodiyotning tarmoq korxonalari faoliyatini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha qanday davlat dasturlari ilab chiqilgan.

4-mavzu. Texnologiyalar konsortsiumi va innovatsiyalar(4 soat)

Reja:

- 4.1. Texnologiyalar transferi to'g'risida umumiy tushunchalar
- 4.2. Texnologiyalar konsortsiumining innovatsiyalarga ta'siri
- 4.3. Jaryonlar bo'yicha innovatsiyalar

4.1. Texnologiyalar transferi to'g'risida umumiy tushunchalar

Texnologiyalar transferi markazlari (TTM) ilmiy-texnik natijalarning tijoratlashuvini tezlatishi, kichik innovatsion korxonalar, jumladan, texnoparklar va innovatsion-texnologik markazlar tarkibida yaratishni ta'minlashi ko'zda tutilgan (3-jadval).

3-jadval¹

¹Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. – T.: TDIU, 2013. 24-25 b.

Texnologiyalar transferi markazining asosiy vazifalari

Texnologiyaning rivojlanish bosqichlari	Texnologiyalar transferi bosqichlari
Ilmiy-tadqiqotchilik ishlari bosqichlarini bajarish Texnologiyani amalga oshirish imkoniyatini tekshirish	Tadqiqot natijalarini e'lon qilish Patent arizalari berish Anjuman va ko'rgazmalarda qatnashish Ilmiy-tadqiqotchilik ishlari natijalariga egalikhuquqini sotish
Tajriba-konstruktorlik ishlari bosqichlarini bajarish Mahsulotning sinov namunasi Texnologiya prototipi Texnik jihatdan amalga oshirish imkoniyatini tasdiqlash	Texnologiyani amalga oshirish uchun kichik korxonani tashkil etish Texnologiyani sotish
Texnologiyani maromiga yetkazish Bozor namunalari yaratish Sinov tariqasidagi sotuvlar Servisni tashkil qilish Ruxsatnoma olish Sertifikatsiya	Mahsulotni ko'paytirish (kichik seriyada) va sotish Foydalanuvchilarni o'rgatish Dillerlarni o'rgatish Servis Texnologiyani sotish Korxonani aktsiyalarini sotish Biznesni sotish
Sanoat texnologiyasi yaratish Ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish Mahsulotni sertifikatlash va ishlab chiqarish Diversifikatsiya	Mahsulot va xizmatlarni sotish Servis Texnologiyani sotish Korxonani aktsiyalarini sotish Biznesni sotish
Ishlab chiqarishni kengaytirish Mahsulotlarni ko'paytirish Ishlab chiqarishni sertifikatlash Ishlab chiqarish va mahsulotni yangilash Diversifikatsiya	Mahsulot va xizmatlar sotish Servis Foydalanuvchilarni o'rgatish Dillerlarni o'rgatish Texnologiyani sotish Korxonani aktsiyalarini sotish Biznesni sotish

SHuni ta'kidlash joizki, TTM tizimining samarali ishlashiga qator omillar to'sqinlik qiladi. Ularning orasidan quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

- mintaqalar miqyosida innovatsion jarayonlarni boshqarishning sust tashkil etilganligi;

- ko'pchilik TTMda ham ichki, ham xorijiy bozorlarga chiqish bilan bog'liq muammolar;

- TTM tashkil qilish va faoliyat ko'rsatishi uchun resurslar bazasining yetarli emasligi;

- innovatsion faoliyat kuchayishini rag'batlantiradigan me'yoriy-huquqiy asoslarning yo'qligi.

“Qanchalar qiziq tuyulmasin, Internet tarmog'ida ommalashib borayotgan Cloud tizimi iqtisodiyotda ham o'z ta'siriga egadir. Bunga misol sifatida texnologiyalar konsortiumini tuzilishini keltirish mumkin. Unga ko'ra, firmalar gorizontali yo'nalishda koalitsiyalar [2] tuzishadi. Bu koalitsiyalarning maqsadi birgalikda innovatsiyalarni joriy

etish, joriy etish bo'yicha tajriba almashinish va birgalikda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdir. Ushbu ishlar texnologik innovatsiyalarni yaratishda tannarx pasayiga olib kelishini hisobga oladigan bo'lsak, ular eng samarali hamkorlikda ishlardan biridir"¹.

4.2. Texnologiyalar konsortsiyalarining innovatsiyalarga ta'siri

Texnologik innovatsiyalar deganda yuridik shaxsning texnologik yangi mahsulotlar va jarayonlarni, shuningdek mahsulotlar va jarayonlarda sezilarli darajada takomillashtirishlarni, texnologik yangi va sezilarli darajada takomillashtirilgan xizmatlarni, xizmatlar ishlab chiqarilishi (etkazib berilishi) bo'yicha yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarni ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq faoliyati nazarda tutiladi. Texnologik innovatsiyalar yuridik shaxs tomonidan birinchi marotaba ishlab chiqilayotgan mahsulotlar, jarayonlar, xizmatlar va usullar shaklida (agar ular boshqa yuridik shaxslar tomonidan qo'llanilayotgan bo'lsa ham) bo'lishi mumkin.

Texnologik innovatsiyalarning ikkita turi mavjud. Bular: mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar va jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar.

Sanoat ishlab chiqarishida mahsulot bo'yicha innovatsiyalar texnologik yangi va takomillashtirilgan mahsulotlarni tayyorlash va joriy etishni o'z ichiga oladi. Texnologik yangi mahsulot – texnologik xususiyatlari (funktional belgilari, konstruktiv yo'l bilan bajarilishi, qo'shimcha operatsiyalari, shuningdek qo'llaniladigan tarkibiy qismlar va materiallar tarkibi) yoki qo'llanilish maqsadi printsiptial jihatdan yangi yoki yuridik shaxs tomonidan ilgari ishlab chiqarilgan shunga o'xshash mahsulotdan sezilarli darajada farq qiluvchi mahsulotdir. Bunday innovatsiyalar printsiptial jihatdan yangi texnologiyalarga yoki mavjud texnologiyalardan, tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanishga asoslangan bo'lishi mumkin.

“Texnologik konsortsiyularning 4 turi mavjud bo'lib, ular:

1. Ishlab chiqarish samaradorligini koalitsiyalar orqali takomillashtirish.
2. O'zgarmas kapitalga investitsiyalar kiritishdagi xarajatlarni bo'lishish.
3. Texnologiyalarni ortiqchalik samarsini oshirish uchun o'zaro bo'lishish.
4. Narx diskriminatsiyasi orqali innovatsiyalar xarajatini o'zaro taqsimlash”².

Texnologik jihatdan takomillashtirilgan mahsulot – bu yuqoriroq samarali tarkibiy qismlar va materiallardan foydalanish, bir yoki undan ortiq texnik tarkibiy qismlarini qisman o'zgartirish (kompleks mahsulotlarda) yo'li bilan ishlab chiqarilishining sifat bo'yicha xususiyatlari yaxshilanadigan va iqtisodiy samaradorligi oshadigan mahsulotdir.

4.3 Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar

Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar texnologik yangi yoki texnologik jihatdan sezilarli darajada takomillashtirilgan ishlab chiqarish, shuningdek mahsulotlarini yetkazib berish usullarini ishlab chiqish yoki joriy etishni o'z ichiga oladi. Bu turdagi innovatsiyalar yangi ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning yangi usullaridan foydalanishga yoki ularni birgalikda qo'llashga, shuningdek tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanishga asoslangan bo'lishi mumkin. Bunday innovatsiyalar, odatda, tashkilotda ilgari mavjud bo'lgan mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki yetkazib berishning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi, shuningdek odatdagi usullar yordamida amalga oshirish imkoni bo'lmaydigan texnologik jihatdan yangi yoki

¹21

²22

takomillashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalarni tashkilot birinchi bo'lib joriy qilgan bo'lishi muhim emas.

Texnologik innovatsiyalarga quyidagilar kirmaydi:

- mahsulotdagi estetik (rangida, bezatilishida) o'zgartirishlar;
- mahsulotning konstruktiv vazifalarini o'zgartirmaydigan, uning yoki tarkibiy qismi hisoblangan materiallar va komponentlarning ko'rsatkichlariga, xususiyatlariga, narxiga yetarlicha sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan texnik va tashqi ko'rinishda sezilarsiz darajadagi o'zgartirishlar;

- vaqtinchalik talabni va tashkilotning daromadlarini ta'minlash maqsadida tashkilot tomonidan ilgari ishlab chiqarilmagan, ammo mahsulotlar, ishlar, xizmatlar bozorida yetarlicha ma'lum bo'lgan mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish (boshqa ixtisoslik bo'yicha bo'lishi ham mumkin) evaziga ularning turlarini ko'paytirish. Masalan, mashinasozlik zavodida mavsumiy talabdan foydalangan holda yozgi davrda boshqa ixtisoslik bo'yicha mahsulot, ya'ni mix ishlab chiqarilishi;

- ma'lum modeldagi qo'shimcha dastgohlarni o'rnatish, hatto ularni shu modelning oxirgi modifikatsiyaga almashtirish evaziga ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish;

- to'laligicha boshqa tashkilot tomonidan ishlab chiqarilgan va tayyorlangan innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlarni sotish;

- tashkiliy va boshqarish bo'yicha o'zgartirishlar.

Takrorlash uchun savollar

1. Texnologiyalar transferi to'g'risida tushuncha bering.
2. Texnologiyalar transferi markazining asosiy vazifalari nimadan iborat?
3. Texnologik konsortsiumlarning qanday turlari bor?
4. Texnologiyalar konsortsiumining innovatsiyalarga ta'siri qanday?
5. Texnologik innovatsiyalar va ularning turlarini sanab bering.
6. Jaryonlar bo'yicha innovatsiyalar.
7. Texnologik jihatdan takomillashtirilgan mahsulot deb nimaga aytiladi?

5-mavzu. Innovatsiyalarning iqtisodiy ahamiyati(4 soat)

Reja:

- 5.1. Korxonaning innovatsion salohiyati
- 5.2. Innovatsiyalarning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni

5.1 Korxonaning innovatsion salohiyati

Mamlakatimizda iqtisodiyot rivojlanishining so'nggi bosqichlarida innovatsion jarayonni jadallashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Prezident I.A.Karimovning 2008 yildagi "Ishlab chiqarishga innovatsion loyihalar va texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirishning qo'shimcha choralari" №916-sonli qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarining innovatsion jarayonining natijaviyligi jami omillar, ya'ni amalga oshirish sharoiti, resurslar ta'minoti, menejment tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi bilan aniqlanadi. Innovatsion salohiyat tushunchasi iqtisodiyot fanida XX asrning so'nggi yillarida paydo bo'ldi. Innovatsion salohiyat mamlakatning texnika va texnologiyasi

yangilanishi, unda ilmiy-texnika rivojlanishi darajasini, diversifikatsiya siyosatining kuchayishini anglatadi. Ba'zi iqtisodchi olimlarimiz innovatsion salohiyatni iqtisodiy salohiyatdan yuqori qo'yishadi. Bunda ular ilmiy-texnika darajasiga ko'proq e'tibor qaratishadi. Bizning fikrimizcha, bunday qarashlar unchalik to'g'ri emas. Chunki har qanday holatda iqtisodiy salohiyat innovatsion salohiyatga qaraganda ancha keng tushuncha bo'lib, u mamlakatdagi ishlab chiqarish salohiyati, resurslar salohiyati, moddiy-mineral salohiyati, qazilma boyliklar salohiyati va boshqalarni qamrab oladi. Hozirgi davrda O'zbekistonda iqtisodiyot salohiyati 3,0 trl. AQSH dollaridan ortiqdir. Innovatsion salohiyatni kuchaytirish katta hajmda investitsiyani jalb etishni talab qiladi. Hozirda iqtisodiy rivojlangan davlatlar yangi texnika va texnologiyani yaratishga, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga YaIMning 5-7 %ini sarflaydi. O'zbekistonda esa bu raqam biroz past. SHu bilan birga respublikamizda intellektual salohiyat boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha yuqori.

SHu o'rinda aytib o'tish lozimki, korxonaning innovatsion salohiyati korxonaning barcha jihatlari, ya'ni yangilikni yaratish va undan amaliyotda foydalanish qobiliyatini ifodalaydi.

Korxonaning innovatsion salohiyati elementlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moddiy-texnik resurslar;
 - moddiy va nomoddiy aktivlar;
 - moliyaviy resurslar;
 - tashkiliy resurslar;
 - kadrlarga oid resurslar;
 - ijtimoiy-ruhiy omillar.
- SHundan kelib chiqib, korxonada innovatsion jarayonlarni tashkil etish uchun ixtiyorida quyidagilarga ega bo'lishi lozim:
- g'oya va ishlanmalarni moliyalashtirish uchun yetarli pul mablag'lar;
 - yangi mahsulotni yaratish va ommaviy ravishda ishlab chiqarish uchun tegishli moddiy-texnika bazasi;
 - yangiliklarni amalga oshirish va uni joriy etish uchun qobiliyatli xodimlar;
 - har qanday innovatsion jarayon asosida yotuvchi original (rasman) g'oyalarni ishlab chiqish imkoniyati.

5.2 Innovatsiyalarning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni

Innovatsion salohiyatni oshirish kichik korxonalarni rivojlantirish bilan bog'liq. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik korxonalar katta korxonalariga qaraganda, 4 barobar ko'p innovatsiyalar yaratadi yoki ilmiy tadqiqotga kiritilgan har bir dollarga kichik innovatsion korxonalar 2,5 barobar ko'p mahsulot yaratadilar. Korxonalarda innovatsion salohiyatni baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- ilmiy-texnik salohiyat (ilmiy darajaga ega xodimlar soni; bir xodimga to'g'ri keladigan ratsionalizatorlik takliflar soni; patentlar soni va boshqalar);
- kommertsializatsiya ko'rsatkichlari (ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmida yangi mahsulot ulushi; litsenziya shartnomalari soni va boshqalar);
- bajarilayotgan ishlarning davomiyligi (innovatsion davrning kattaligi);
- innovatsiyaning boshqarilayotgan tizimi tavsifi (korxonada innovatsion faoliyatni rag'batlantirish shakllari; yuqori darajadagi rahbarlarning innovatsion loyihalarni amalga oshirishda qatnashishi; innovatsion faoliyatga qatnashuvchilarga erkinlik darajasini ta'minlanishi).

Innovatsion faoliyat maqsadlarni amalga oshirish miqyosi va xususiyatlardan kelib chiqib, innovatsion strategiyani ishlab chiqish mumkin. Innovatsion strategiya korxonaning uzoq muddatga rivojlanishida innovatsion salohiyatdan samarali foydalanishini ta'minlaydigan tadbirlar majmuasidir. Innovatsion o'zgarishlar raqobat afzalliklari asosida o'rganilib, quyidagi strategiyalar ishlab chiqiladi:

- differentsiatsiyalash;
- xarajatlarni pasaytirish;
- eng yaxshi qiymat.

“Innovatsiyalarning iqtisodiy ahamiyatini misollarda ko'rib chiqish materialni tushunishni yanada osnolashtirishi shubxasizdir. SHunday ekan, innovatsiyalarning turli mamlakatlar, xususan, Xitoy, Tayvan, Koreya va Singapurlar misolida mamlakat sanoatida va iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati e'tiborga sazovordir. Ularning innovatsion rivojlanishi boshqa Yevropa mamlakatlariga nisbatan ancha tez bo'lganligi sababi shundaki, bu mamlakatlar innovatsiyalarni yaratish uchun texnologiyalarni horijdan sotib olib, o'zlari uni takomillashtirish ustida ishlashgan”¹.

Country	ICI rank	ICI score
Sweden	1	82.2
USA	2	77.8
Singapore	6	76.5
Taiwan	13	72.9
Japan	15	72.1
Hong Kong	16	71.3
South Korea	19	70
Malaysia	34	57.3
China	65	49.5
India	85	45.6
Brazil	87	45.2

“Bomol, innovatsion iqtisodiyot sohasining yetakchi olimlaridan biri, nima sababdan bu mamlakatlarda firmalar innovatsion rivojlanishni aynan ko'zlagan MCHJlarni tuzishgani to'g'risida batafsil to'xtalib o'tgan. U innovatsiyalar sig'imi indeksi (ISI)ni ishlab chiqib, quyidagicha analiz olib borgan(5-rasm):

Bu yerda ICI rank – innovatsiyalar sig'imi indeksi bo'yicha mamlakatlarning dunyodagi o'rinlari.

ICI score – ISI ko'rsatkichlari tartib bo'yicha keltirilgan”².

Takrorlash uchun savollar

1. Korxonaning innovatsion salohiyatiga ta'rif bering.
2. Innovatsiyalarning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni qanday.
3. Innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalarini sanab bering.

6-mavzu. Innovatsiyalarning sohalar bo'yicha turlari(4 soat)

Reja:

- 6.1. Xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar
- 6.2. Marketing innovatsiyalari
- 6.3. Narxlarni shakllantirishdagi innovatsiyalar
- 6.4. tashkiliy va biznesni yuritishdagi innovatsiyalar

6.1. Xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar

Xizmatlar sohasidagi mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar o'z ichiga quyidagilarni oladi: printsiptial jihatdan yangi xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etish; mavjud xizmatlarga

¹23

²25

yangi funktsiyalar va xususiyatlar qo'shish orqali uni takomillashtirish; xizmatlar bilan ta'minlashda (masalan, ularning samaradorligi va tezligi nuqtai-nazaridan) sezilarli darajada yaxshilanishlar.

“Xizmatlar sohasidagi jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar xizmatlarni ishlab chiqarish va taqdim etishning yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarini ishlab chiqish va joriy etishni o'z ichiga oladi”¹.

Quyidagi o'zgartirishlar, agar ular yangi yoki sezilarli yaxshilangan xizmatlarni, ularni ishlab chiqarish va yetkazib berish usullarini joriy etishga bevosita bog'liq bo'lmasa, texnologik innovatsiyalar hisoblanmaydi:

- tashkiliy va boshqarish bo'yicha o'zgartirishlar (jumladan: boshqarishning ilg'or usullariga o'tish, jiddiy o'zgartirilgan tashkiliy tuzilishni joriy etish, tashkilotning iqtisodiy strategiyasida yangi yoki sezilarli o'zgartirilgan yo'nalishlarni amalga oshirish);
- sifat standartlarini joriy etish.

6.2. Marketing innovatsiyalari

Marketing innovatsiyalari deganda yangi yoki sezilarli yaxshilangan marketing uslublarini joriy etish tushuniladi. Bular o'z ichiga: mahsulotlarning dizayni va qadoqlanishida jiddiy o'zgartirishlar; mahsulotlarni sotish va taqdimoti bo'yicha, shuningdek ularni bozorlarga tanitish va olg'a siljitish bo'yicha yangi uslublardan foydalanish; yangi narx strategiyalarini shakllantirishni oladi. Bu o'zgartirishlar mahsulot iste'molchilarining ehtiyojlarini to'laroq qondirishga, sotish hajmini ko'paytirish maqsadida mahsulotlar va xizmatlar iste'molchilarining tarkibini kengaytirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Mahsulot dizaynidagi o'zgartirishlar yangi marketing kontseptsiyasining bir qismi bo'lib, ular mahsulotning shakli va tashqi ko'rinishidagi o'zgartirishlarni o'z ichiga oladi. Bular mahsulotning funktsional va foydalanish xususiyalariga ta'sir ko'rsatmaydi. SHuningdek, bunday o'zgartirishlarga qadoqlanishi tashqi ko'rinishini ta'riflab beruvchi iste'mol mahsulotlari, ichimliklar, yuvish vositalari kabi mahsulotlarning qadog'idagi o'zgartirishlar ham kiradi.

Mahsulotlarni sotish va taqdimoti bo'yicha yangi uslublardan foydalanish sotishni kengaytirish bilan bog'liqdir. Bunga logistika (xomashyo, tarkibiy qismlar va tayyor mahsulotlarni tashish va omborxonalarda saqlashni boshqarish) usublari kirmaydi. Mahsulot (xizmat)larni bozorga tanitish va olib chiqishning yangi uslublaridan foydalanish tashkilotning mahsulot va xizmatlarini olib chiqish uchun yangi kontseptsiyalardan foydalanishni anglatadi.

6.3. Narxlarni shakllantirishdagi innovatsiyalar

Narxlarni shakllantirishdagi innovatsiyalar – tashkilotning mahsulotlar va xizmatlar bilan savdo qilishi uchun yangi narx strategiyalaridan foydalanishini bildiradi. Marketing vositalaridagi mavsumiy, doimiy yoki boshqa joriy o'zgarishlar, agar ular yangilik olib kelmasalar, marketing innovatsiyalari hisoblanmaydi. Mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar bilan marketing innovatsiyalarini bir-biridan farqlovchi asosiy mezon – bu mahsulotning funktsiyalarida yoki undan foydalanish usullarida jiddiy o'zgarishlar mavjudligidir. “Agar mahsulot va xizmatlarning funktsional yoki foydalanish xususiyatlari mavjud mahsulot va xizmatlarnikidan ancha yaxshilangan bo'lsa, bu mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar

¹Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. – T.: TDIU, 2013. 29b.

hisoblanadi. Mahsulot dizaynidagi o'zgarishlar esa, agar uning funktsional yoki iste'mol xususiyatlari sezilarli darajada o'zgarmagan bo'lsa, bu marketing innovatsiyalari hisoblanadi"¹.

Jarayonlar bo'yicha va marketing innovatsiyalari o'rtasidagi farq quyidagicha namoyon bo'ladi. Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar mahsulot birliklariga xarajatlarni kamaytirish yoki sifatini oshirishga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va mahsulotlarni yetkazib berish usullarini takomillashtirish bilan bog'liqdir. Marketing innovatsiyalari esa sotish hajmini yoki mahsulotlar narxini (yangi narx strategiyalarini qo'llagan holda) oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

6.4. Tashkiliy va biznesni yuritishdagi innovatsiyalar

Tashkiliy innovatsiyalar – bu biznesni yuritishda, ish o'rinlarini yoki tashqi aloqalarni tashkil etishda yangi uslublarni ishlab chiqishdir. Bunday innovatsiyalar boshqaruv va transaksion xarajatlarni qisqartirish, tashkilot tomonidan ishchilarning ish o'rinlari (ish vaqtlari) bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, mehnat samaradorligini oshirish, bozorda mavjud bo'lmagan aktivlarga yo'l topish yoki yetkazib berish narxini kamaytirish yo'li bilan tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Tashkilot bunday tashkiliy innovatsiyalarni birinchi bo'lib joriy etgan bo'lishi muhim emas.

“Umuman olganda innovatsiyalarni turlarga ajratganda turli olimlarni yondashuvi xilma xildir. Masalan, Val'ras va Bomol (2000) innovatsiyalarni turlarga ajratishda mikroiqtisodiy tomondan yondashib, har bir turdagi innovatsiyani model' ko'rinishidagi hisob kitobini olib borishgan. Ularga ko'ra, innovatsiyalarning mahsulot turini kengaytirishdagi ahamiyati asosiy e'tibor markazi bo'lgan. Romerning fikricha esa innovatsiyalarni turlarga ajratishda biznesga kirib kelish imkoniyatini bera olish va IIR xarajatlarini hech qiyinchiliksiz qoplay olish asosiy me'zon sifatida keltirilgan”².

Biznesni yuritishdagi innovatsiyalar tadbirkorlik faoliyatining yangi tashkiliy usullarini ishlab chiqishni bildiradi. Masalan, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: bilimlarni boshqarishning korporativ usullarini joriy etish; xodimlarning saviyasini oshirishga va ko'chib yurishini kamaytirishga mo'ljallangan o'qitish tizimini yo'lga qo'yish; ishlab chiqarish va yetkazib berishni to'liq boshqarish, jumladan yetkazib berish zanjirini, ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilishni, shuningdek sifatni boshqarish tizimini joriy etish.

Ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha innovatsiyalar – bu tashkilotning alohida faoliyat turi doirasida yoki turli faoliyatlari (tarkibiy bo'linmalari) o'rtasida ishlarning bajarilishi bo'yicha xodimlar orasida javobgarlik va vakolatlarni taqsimlashning yangi usullarini yo'lga qo'yishdir. Shuningdek, faoliyatni strukturizatsiya qilish, ya'ni faoliyatning turli yo'nalishlarini integratsiyalashtirish bo'yicha yangi kontsepsiyalarini joriy etishdir.

Takrorlash uchun savollar

1. Xizmatlar sohasidagi innovatsiyalarga ta'rif bering.
2. Marketing innovatsiyalari va narxlarni shakllantirishdagi innovatsiyalarga ta'rif bering.
3. Tashkiliy va biznesni yuritishdagi innovatsiyalar.
4. Jarayonlar bo'yicha va marketing innovatsiyalari o'rtasidagi farqimada

¹110

²102

7-mavzu. Sanoatda innovatsion modellar(4 soat)

Reja:

- 7.1. Innovatsion faoliyatni boshqarish uslubi.
- 7.2. Innovatsion jarayonning chiziqli modeli va uni joriy qilish shartlari.
- 7.3. Innovatsion faoliyatning boshqarish qonuniyati.

2.1. Innovatsion faoliyatni boshqarish uslubi

“Jati Senguptaning innovatsion modellar klassifikatsiyasi quyidagicha:

1. Raqobatdosh innovatsion modellar
2. Texnik innovatsiyalar va diffuzion modellar
3. Kurno-Nashning ortiqchalik samarasi dinamik modeli
4. Talabga oid innovatsion model¹”.

Innovatsiya statikada ham, dinamikada ham ko'rib chiqilishi mumkin. Agar statikada yangilik kiritish bu yangiliklarni tijorlashtirishning yakuniy natijasi bo'lsa, dinamikada yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish vatarqatish murakkab jarayoni hisoblanadi.

Innovatsion jarayonning mohiyati shunda namoyon bo'ladiki, u innovatsiyalar tashabbusi bilan chiqish, yangi mahsulot va operatsiyalar ishlab chiqish, ularni bozorda sotish va diffuziyalash bo'yicha maqsadli yo'naltirilgan harakatlar zanjirini ifodalaydi.

Yangi mahsulot (operatsiya) asoslab berilgach, taklif etilayotgan innovatsiyaning marketing tadqiqotlari o'tkaziladi. Marketing tadqiqotlari davomida yangi mahsulot yoki operatsiyaga talab o'rganiladi, agar ular limitlanadigan bo'lsa ularni chiqarish hajmi yoki soni belgilanadi, innovatsiyaga bozorga kirib borayotgan tovar sifatida baxshida etish lozim bo'lgan tovar tavsifnomalari va iste'mol xususiyatlari aniqlanadi. So'ngra innovatsiyani sotish, ya'ni bozorda innovatsiyaning kichik partiyasi paydo bo'lishi, uni ilgari surish, samaradorligini baholash va diffuziyalash amalga oshiriladi.

Quyidagi jadvalda innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillar tizimi ko'rsatilgan.

4-jadval

Innovatsion jarayonlar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar


Omillar guruhi	Salbiy ta'sir etuvchi omillar	Ijobiy ta'sir etuvchi omillar
<i>Iqtisodiy</i>	Investitsiya mablag'larining yetishmasligi	Zaruriy moliyaviy zaxiralarning mavjudligi
<i>Texnologik</i>	Moddiy-texnika va ilmiy-texnikaviy ishlar uchun zarur bo'lgan sharoitlarning talabga javob bermasligi. Mavjud texnologiyalarining eskiligi va hokazo	Etarli darajada moddiy-texnikaviy bazaning va ishlab chiqarish texnologiyalari, xo'jalik hamda ilmiy-texnikaviy infratuzilmaning mavjudligi
<i>Siyosiy</i>	Antimonopol qonunlar tomonidan cheklanganligi	Qonuniy chora-tadbirlarning yaratilishi
<i>Huquqiy</i>	Soliq, amortizatsiya, patent-lash va litsenziyalashtirishning talabga javob bermasligi	Innovatsion faoliyatning rivojlanishini huquqiy ta'minlash
<i>Tashkiliy</i>	Tashkiliy tarkiblarning eskirishi	Bozor sharoitlaridan kelib chiqqan holda tashkiliy tarkibni takomillashtirishga moyilligi

¹34

<i>Boshqaruv</i>	Markazlashtirilgan avtoritar boshqaruv, axborotlar bilan ta'minlashning va sub'ektlar hamda ichki sub'ektlar munosabatlarining murakkabligi. Innovatsion jarayon bo'yicha kelishuvning murakkabligi	Ishlab chiqarish tashkiliy tizimining muqobilligi, demokratik boshqaruvga asoslanishi, axborotlar bilan ta'minlanishi. Innovatsion jarayonni amalga oshirishda umumiy maqsadning shakllanishi
<i>Ijtimoiy-psixologik</i>	Ishlab chiqarish yo'nalishining o'zgarishi asosida yangi ish joylarining moslashuvi, mavjud ishlab chiqarish faoliyatini qayta tashkil etish. Ishlab chiqarish eski usullarining mavjudligi, ishlab chiqarish oldidagi qo'rquv, omadsizlik	Ma'naviy rag'batlantirish. Ijtimoiy tan olish, innovatsion mehnatga sharoit yaratish, talab darajasida psixologik sharoitlar yaratilishi
<i>Madaniy</i>	Sub'ektlar o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning talabga javob bermasligi, ishonchga, hurmatga asoslanmaganligi	O'zining innovatsion mahoratini ko'rsatishga sharoitning mavjudligi. Sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlar tenglik, ishonchlilik munosabatlariga va hurmatga asoslanishi

7.2. Innovatsion jarayonning chiziqli modeli va uni joriy qilish shartlari

XX asrning ikkinchi yarmi innovatsion rivojlanish bo'yicha hayratlanarli misollarni taqdim etdi. Jahon innovatsion maydonida o'zlarining afzalliklarini ishga solishga barcha diqqatini qaratgan, o'z milliy, ilmiy-texnikaviy va texnologik siyosatini shakllantirgan mamlakatlar raqobatbardosh bo'lib chiqdilar.




6-rasm. Innovatsion iqtisodiyotning yuzaga kelish xronologiyasi

Ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq turlicha nomlanadi: intellektual kapital, ko'rinmas aktivlar (7-rasm). Agar barcha tarkibiy elementlarni bir maxrajga keltirishga urinib ko'rilsa, unda bular turli bilim shakllari ekanligi ayon bo'ladi.



7-rasm. Intellektual kapitalning tarkibi



8-rasm. Innovatsion jarayonning chiziqli modeli

7.3. Innovatsion faoliyatning boshqarish qonuniyati

Innovatsion faoliyatning nazariy asoslari iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, Avstriyalik olim Y.SHumpeter innovatsion o'zgarishlarni besh yo'nalishga bo'lgan: yangi texnika va texnologik jarayonlar yoki ishlab chiqarishni yangi bozor asosida ta'minlash; yangi xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulot turlarini yaratish; yangi xom-ashyolardan foydalanish; ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish va yangi innovatsion tovarlar bilan ta'minlash; yangi iste'mol bozorlarini ochish¹.

¹SHumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. – M.: Progress, 1982. S. 386.

Innovatsion jarayon innovatsion faoliyatga nisbatan keng ma'noga ega bo'lib, innovatsion jarayonning amalga oshirish xususiyatlari mavjud (9-rasm).



9-rasm. Innovatsion jarayonni amalga oshirish xususiyatlari

“Asosiy rivojlanishga nafaqat innovatsiyalarni sanoat bilan bog'lash orqali, balki tarkibiy o'zgarishlarni va ularda innovatsiyalarni amalga oshirish orqali erishilganligi Metkalfе, Dosi, Montobbio, De Bresson va Andersenlarning ilmiy ishlarida aniq yoritilgandir”¹.

Takrorlash uchun savollar

1. Innovatsion jarayon, g'oyalarni murakkab zanjirini ifodalab bering.
2. Innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi asosiy omillarni ko'rsatib bering.
3. Innovatsion faoliyatni boshqarishni qanday qonuniyatlarini bilasiz?
4. Innovatsion jarayonni amalga oshirish xususiyatlarini sharxlang.

8-mavzu. Ilmiy texnika taraqqiyoti va uni boshqarish(4 soat)

Reja:

- 8.1. Ilmiy texnika taraqqiyotini boshqarishning davlat siyosati, mohiyati va uning bosh maqsadi.
- 8.2. Ilmiy texnika taraqqiyotini boshqarishning huquqiy asoslari va innovatsion siyosat yo'nalishlari.
- 8.3. Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmi.
- 8.4. Xalqaro ilmiy tadqiqot ishlari va ularning huquqiy muhofazasi.

8.1. Ilmiy texnika taraqqiyotini boshqarishning davlat siyosati, mohiyati va uning bosh maqsadi

Zamonaviy sharoitlarda innovatsion faoliyatni me'yoriy-huquqiy tartibga solish quyidagilarni ta'minlashi lozim bo'lgan qonunlar va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish va joriy qilishni nazarda tutadi:

¹34

1) innovatsion faoliyat mahsulotlarini sotishdan olingan foyda va mablag'larning bu ulushini imtiyozli soliqqa tortish hisobiga davlat, jamoat tashkilotlari, korxonalar va xususiy shaxslar o'z daromadlarining sezilarli qismini innovatsion faoliyatga kiritishdan manfaatdorligi;

2) kooperatsiya bo'yicha barcha hamkorlar va qatnashchilarning innovatsion g'oyani tovar ko'rinishigacha yetkazish va soliq to'lovlarini kamaytirish yoki soliqlardan ozod qilish hisobiga ularni bozorda tijorat asosida sotish;

3) innovatsion faoliyat qatnashchilarining kafolatlangan va imtiyozli kredit olish imkoniyati;

4) ilmiy jamoalarning ham, alohida olimlar va mutaxassislarining ham intellektual mulk huquqlari himoya qilinishini ta'minlash;

5) innovatsion jarayon qatnashchilari va ijrochilarining ham, bu jarayonlarni moliyalashtiruvchi investorlarning ham sug'urta himoyasi va umume'tirof etilgan ijtimoiy maqomini ta'minlash.

8.2. Ilmiy texnika taraqqiyotini boshqarishning huquqiy asoslari va innovatsion siyosat yo'nalishlari

“Ko'chirib o'tkazish” strategiyasi mavjud xorijiy ilmiy-texnika salohiyatidan foydalanish va yangiliklar kiritishni o'z iqtisodiyotiga ko'chirib o'tkazishdan iborat¹. Bu strategiya birinchi navbatda, Yaponiyada ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda foydalanilgan, AQSH, Angliya, Frantsiya, Rossiya kabi rivojlangan mamlakatlarda xorijda talab yuqori bo'lgan yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish uchun yuqori samarali texnologiya litsenziyalar xarid qilingan, kelgusida fundametal tadqiqotlar va loyihalardan tortib to innovatsiyalarni joriy qilish, ularni mamlakat ichkarisida va jahon bozorida amalga oshirishgacha bo'lgan butun innovatsion tsiklni ta'minlagan o'zining ilmiy-texnik va ilmiy-islomiy salohiyati yaratilgan.

“O'zlashtirish” strategiyasi shundan iboratki, arzon ishchi kuchiga tayangan o'zining yo'qotilayotgan ilmiy-texnik salohiyati bir qismidan foydalangan holda ilgari sanoati rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotni ishlab chiqarish o'zlashtiriladi, kelgusida ishlab chiqarishga muhandislik-texnik hamkorlik qilish hamda iqtisodiyotning davlat va bozor shakllarini uyg'unlashtirgan holda innovatsion faoliyatni kuchaytirishni ta'minlash, o'zining ilmiy-tadqiqotchilik va tajriba-konstruktorlik ishlarini o'tkazishga qodir bo'lgan ilmiy-texnik salohiyat tiklanadi².

8.3. Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmi


¹55

²56



10-rasm. Davlatning innovatsion tizimi modeli

8.4. Xalqaro ilmiy tadqiqot ishlari va ularning huquqiy muhofazasi.



11-rasm. Ilmiy va innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi

Takrorlash uchun savollar

1. Innovatsiya faoliyatiga davlatning faol aralashuv strategiyasining maqsadi nimadan iborat?
2. Ilmiy faolliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini tushuntiring?
3. Ilmiy-texnik raqobat nima?
4. Innovatorlar mehnatini rag'batlantirish deganda nimani tushunasiz?
5. Halqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish yo'llarini aytib bering?

9-mavzu. Intellektual kapital, intellektual mulkni shakllantirish va boshqarish

Reja:

- 9.1. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
- 9.2. Patent huquqining rivojlanish tarixi.
- 9.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida intellektual mulkni O'zbekistonda muhofazalash
- 9.4. Butun jahon intellektual mulk tashkiloti.

9.1. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni 1996-yil 30 avgust (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, 135-modda) qabul qilingan.

I. Umumiy qoidalar.

1-modda. Asosiy tushunchalar.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

«Muallif» — ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs;

«Yozuv» — ovozlari va (yoki) tasvirlarning ularni texnikaviy vositalar yordamida qayta-qayta idrok etish, takrorlash yoki uzatish imkonini beradigan biror-bir moddiy shakldagi mujassami;

«Ijrochi» — aktyor, qoʻshiqchi, musiqachi, raqqos yoki rol oʻynaydigan, oʻqiydigan, ifodali oʻqiydigan, musiqa asbobini chaladigan yohud adabiyot yoki sanʼat asarni (shu jumladan yestrada, stirk yoki qoʻirchoqli nomerni) boshqa bir tarzda ijro yetadigan shaxs, shuningdek spektaklning sahnalashtiruvchi rejissyori va dirijyor;

«Eʼlon qilish (oshkor qilish, chop etish)» – ommaning oqilona talab-ehtiyojlarini qondirish uchun hamda asarning, fonogrammaning xususiyatidan kelib chiqqani holda asar, fonogramma nusxalarini muomalaga yetarli miqdorda chiqarish;

«Manzarali amaliy sanʼag asarlari» – amalda foydalaniladigan buyumlarga koʻchirilgan ikki oʻlchovli yoki uch oʻlchovli sanʼat asari, shu jumladan, badiiy hunarmandchilik asari yoki sanoat yoʻli bilan tayyorlanadigan asar;

«Fonogramma» — biron-bir ijro yoki boshqa ovozlarning har qanday mutloq ovoqli yozuvi;

«Asar nusxasi» — asarning har qanday moddiy shaklda tayyorlangan koʻchirmasi;

«Fonogramma nusxasi» — fonogrammadan bevosita yoki bilvosita tayyorlangan va shu fonogrammaga jo boʻlgan ovozlarning hammasini yoki bir qismini qamrab olgan har qanday moddiy jismdagi fonogramma koʻchirmasi.

9.2. Patent huquqining rivojlanish tarixi

Patent huquqi. U dastlab feodalizmning soʻngi davrlarida feodal jamiyat negizida xoʻjalik yuritishning kapitalistik usuli vujudga kelib, rivojlana boshlashi bilan yuzaga keldi. Patent huquqi – ishlab chiqarishning kapitalistik usuli ustun kelishi va hokimiyatning burjuaziya yoʻliga oʻtishi natijasida shakllandi (12-rasm).



12-rasm. Milliy patent tizimlari sxemasi

“Innovatsion musobaqa patentlar poygasini oʻz ichiga olib, firmalararo innovatsiyada birinchilikka sazovor boʻlish deganidir. Patentlar poygasida birinchilikni olgan firma oʻz mahsulotini sotishda maxsus huquqqa ega boʻlib bozorda oʻz monopoliyasiga 15 yildan 20 yilgacha boʻlgan davrda erishadi”¹.

9.3. Iqtisodiyotni moderinizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida intellektual mulkni Oʻzbekistonda muhofazalash

Oʻzbekistonda muhofaza qilinadigan ixtiro, foydali modellar, sanoat namunalari tarkibidagi qurilmalarni boshqa davlat – Parij konvensiyasi ishtirokchisining transport vositasida, bu transport vositasi vaqtincha yoki tasodifan Oʻzbekiston Respublikasi hududida boʻlganda qoʻllanish, bunda bu qurilmalar faqat shu vosita ehtiyojlari uchungina foydalanilishi shart;

¹127

Tarkibida patentlangan obektlar bo'lgan vositalar ustida ilmiy tadqiqot yoki tajribalar o'tkazish.

Tabiiy ofatlar, halokatlar, yepidemiya va boshqa favqulodda hollarda tarkibida patentlangan obektlar bo'lgan vositalarning qo'llanishi. Vazirlar Mahkamasi milliy xavfsizlik manfaatlari yo'lida patentlangan obektlardan foydalanish to'g'risida patent egasining roziligini olmasdan turib qaror qabul qiladi, lekin bunday hollarda obektidan foydalanilgani uchun unga tegishli tovon to'lanadi.

Tarkibida patentlangan obektlar bo'lgan vositalarni, agar bu vositalar qonuniy yo'l bilan xo'jalik aylanmasiga kiritilgan bo'lsa, qo'llanish (masalan, patent egasining o'zi yoki uning litsenziyasi).

Dorixonalarda shifokor restepi bo'yicha dorilarni bir marta tayyorlash.

Ixtiroga patent – ixtironing ustuvorlik sanasidan boshlab yigirma-yil mobaynida amal qiladi, mohiyati bo'yicha ekspertiza o'tkazilgandan so'ng beriladi.

Ixtiroga dastlabki patent (2002-yil oktyabr oyigacha) – dastlabki ekspertiza o'tkazilgandan so'ng berilib, ustuvorlik sanasidan boshlab besh-yil mobaynida amal qiladi. Talabnoma beruvchining mohiyati bo'yicha ekspertiza o'tkazish to'g'risidagi iltimosiga ko'ra patentga aylantirilishi mumkin.

9.4. Butun jahon intellektual mulk tashkiloti

Butun jahon intellektual mulk tashkilotining tarixi 1883 va 1886-yillardan Sanoat mulkini muhofaza qilish Parij konvensiyasi va Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish Bern konvensiyasi qabul qilingandan boshlangan. Bu Konvensiyalar "Xalqaro byurolar" deb nomlangan o'z kotibiyatlarini tashkil etishni ko'zda tutgan yedi. 1893-yilda bu ikki kotibiyat "Intellektual mulkni muhofaza qilish bo'yicha birlashgan xalqaro byurolar" yoki fransuz tilida qisqartirilgan BIRPI nomi ostida yagona kotibiyatga birlashtirildi.

Hozirgi Butun jahon intellektual mulk tashkiloti (qisqartirilgan shaklda "BIMT", ingliz tilida - "WIPO", fransuz va ispan tillarida — "OMRI") 1967-yil 14-iyulda imzolangan "Butun jahon intellektual mulk tashkilotini ta'ris etish Konvensiyasi"ga muvofiq tuzilgan. Bu Konvensiya 1970-yilda kuchga kirgan.

Hozirda BIMT Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tizimi tarkibiga (1974-yil dekabr) kiruvchi ixtisoslashgan muassasadan iborat.

2001-yil 1-yanvariga kelib tashkilot 175 davlatni birlashtirdi.

10-mavzu. O'zbekiston milliy innovatsion tizimi (4 soat)

Reja:

- 10.1. O'zbekiston milliy innovatsion tizimi va uning ahamiyati.
- 10.2. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi.
- 10.3. O'zbekistonning jahon bozoridagi fan sig'imi yuqori mahsulotlardagi roli va o'rni.
- 10.4. O'zbekiston Respublikasida texnologik va sotsiogenetik innovatsiyalar.

10.1. O'zbekiston milliy innovatsion tizimi va uning ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek "O'zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli

ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi".


Bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham xaridorgir, ilm talab va yuksak texnologiyalarga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarishning o'zni katta. SHu bois butun dunyoda yangi va ilg'or texnologiyalarning bozor qiymati oshmoqda. O'zbekiston bu borada katta salohiyatga ega. Davlatimiz rahbarining ilm-fanni rivojlantirishga katta e'tibor qaratayotgani tufayli ushbu salohiyat yuksalib bormoqda. Har yili istiqbolli ilmiy g'oya va loyihalarni amalga oshirish uchun davlat grantlari ajratilmoqda. Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida ro'yobga chiqarilayotgan fundamental va amaliy tadqiqotlar jahon ilm-fani uchun ham katta ahamiyatga egadir. Olimlar o'z ishlarini, birinchi navbatda, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalar oldida turgan aniq vazifalarni hal etishga yo'naltirayotir.

10.2. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi

Fanning zimmasiga jamiyatga yangi imkoniyatlar berish kabi asosiy vazifa yuklatilsa, yangilikni joriy etishning asosiy vazifasi insonlar yashash tarziga ta'sir qilishdan iborat bo'ladi. Demak, yangilikni joriy etish birinchi bo'lib mahsulot yoki xizmatni qo'llash emas, balki yangi g'oya va ilmiy natijalarni tijorat darajasida o'zlashtirishdir.

Fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqadorlikni chizma ko'rinishida quyidagicha tasvirlash mumkin (13-rasm).

Fundamental izlanishlar o'zining harakat dinamikasiga ega. Ular amaliy ishlab chiqarish faoliyati talabiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emas. Fundamental fanlar aksariyat hollarda tub o'zgarishlarga olib keluvchi ixtirolar va yangiliklar yaratishi mumkin. Yarim o'tkazgichlar, lazer, gen muhandisligi, o'ta o'tkazuvchanlik va shu kabilar ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida yangi yo'nalishlar ochilishiga sabab bo'ladi. SHunga qaramay, yangi ixtirolar innovatsion jarayonlarning bir bo'lagi bo'lishi uchun, bozor chig'irig'idan o'tishi kerak. Fundamental fanning hamma natijalari ham ishlab chiqarishga zudlik bilan tatbiq etilavermaydi (innovatsion jarayonlar aynan ishlab chiqarish sohasida amalga oshiriladi).



13-rasm. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik

10.3. O'zbekistonning jahon bozoridagi fan sig'imi yuqori mahsulotlardagi roli va o'zni

Bugungi kunda jamiyat shu darajada taraqqiy etib ketdiki, unda o'z o'rniga ega bo'lishni istagan har qanday mamlakat yoki kompaniya raqobatga kirishmog'i shart bo'lib qoldi. Rivojlangan mamlakatlarda yohud dunyo sahnida aynan mana shunday

raqobatbardosh kompaniyalargina o'z hayotlari davomiyligini saqlab qolishi mumkin. SHunday kompaniyalar ham borki, ular insoniyat tamaddunidan 20-30 yil ilgari yurishadi.

Zamonaviy innovatsion muhit holati ayrim ob'ektiv sabablarga ko'ra qisqa muddat ichida mahalliy biznesning innovatsion darajasi yuqori bo'lishiga imkon bera olmaydi va shu sababdan uning rivojlanishi davlatning ko'plab yo'nalishlari bo'yicha kuch sarflashini talab qiladi. Bunda quyidagi muammolarga e'tibor qaratish zarur:

- biznesning ilmiy-texnik axborotlarga ega bo'lishi uchun tranzaktsiya xarajatlari juda katta;

- yangi texnologiyalarning qiymat va bozor risklari korxonalar, ayniqsa, kichik korxonalar uchun juda katta;

- innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun o'z resurslarini taklif etuvchi moliyaviy va investitsion institutlarning keng kamrovli va diversifikatsiyalangan bozori mavjud emas;

- xususiy sektordagi ko'plab korxonalarda innovatsion boshqaruv qarorlari tizimi shakllantirilmagan;

- fanni ishlab chiqarish bilan bog'lab turishi mumkin bo'lgan innovatsion vositachilar instituti rivojlangan tarmog'i yaratilmagan;

- raqobatli muhit mahalliy korxonalarni innovatsiyalarni jalb qilishga yetarli darajada rag'batlantirmaydi;

- iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida biznes texnologiyalarining asosiy massasida biznesni tashkil qilishning mablag'larni namunaviy tovarlar ishlab chiqarish yoki ular bilan savdo qilishga kiritishni nazarda tutuvchi an'anaviy yondashuvlar ustunlik qiladi.

10.4. O'zbekiston Respublikasida texnologik va sotsiogenetik innovatsiyalar

Jamiyat va tabiat rivojlanishi qonuniyatlarini yaxlit holda, tizimlar rang barangligida anglash oldindan ko'ra bilish uchun zarur asos va zamin hisoblanadi. Istalgan bir fanning asosiy funksiyasi shundan iborat. Biroq bu har qanday yirik xo'jalik, ijtimoiy va ekologik qarorlar qabul qilishda ham amaliy zarurat hisoblanadi.

Boshlanich xolatni baholash va undan foydalanishda ikki narsani inobatga olish zarur. Birinchidan, tabiiy qonunlardan farqli o'laroq ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari jamiyatning o'zidagi tub o'zgarishlar bilan birgalikda o'zgarishi mumkin. Industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tish bulardan keyingisiga xos bo'lgan konuniyatlar tizimini yangidan o'rganib chikish zarurligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy konun va konuniyatlar tarkibi bir turda yemas, ular ierarxik bo'lib, bilishning turli darajalarini aks yettiradi. Statika qonunlari yevolyusion rivojlanish davrida nisbatan muvozanatli xolatda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyat ko'rsatuvchi struktura va shart-sharoitlarni aks yettiradi. TSiklik dinamika konuniyatlari tizim dinamikasidagi notekislikni, sikllar boskichlarining almashish konuniyatlari va tizimlar rivojlanish sikllarining o'zini, jamiyatning innovatsion yangilanish jarayonining to'liqsimonligini ochib beradi. Bu davriy o'zgarayotgan voqelikni anglashning ikkinchi boskichidir. Bilishning oliy bosqichi - sosiogenetika qonuniyatlari bo'lib, unda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar dinamikasida nasliylik, o'zgaruvchanlik va tanlov yiindisi (birikuvi) hisoblanadi. Sosiogenetika qonuniyatlari tizimning innovatsion yangilanishi chuqurligi va sarhadlarini baholashga ko'maklashadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Innovatsion faoliyatni amalga oshirishda hamkorlik shartnomalarni ahamiyati.

2. Innovatsion texnologiyalarni yaratishda hozirgi davr ilm fanning ahamiyati.
3. O'zbekistonda intellektual mulk yutuqlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

11-mavzu. Innovatsion marketingda tovar va xizmatlarni strategik yo'nalishlari (4 soat)

Reja:

- 11.1. O'zbekiston Respublikasida zamonaviy innovatsion marketing strategiyalari.
- 11.2. Innovatsion marketingda innovatsion strategiyalarning ahamiyati.

11.1. O'zbekiston Respublikasida zamonaviy innovatsion marketing strategiyalari

O'zbekiston Respublikasida o'tkazilgan Respublika "Innovatsion g'oyalar, ishlar va texnologiyalar", "Sanoat yarmarkasi va kooperatsion birjalar yarmarkasi"da taqdim etilgan ilmiy-tekshirish ishlar va texnologiyalari, qo'shma korxonalarda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni sifat ko'rsatkichlari xalqaro ISO/MEK standart talablariga mosligi va O'zbekistonda lokalizatsiya filangan import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan ko'plab tovarlar ishlab chiqarilmoqda. Hozirgi davrda respublikamiz kundalik hayot va uning dinamikasi o'zgarib bormoqda, bu esa iqtisodni yangilashda marketing tadqiqotlarini natijalarini tahlil qilib, yaqin kelajakka va uzoq davrga nisbatan innovatsion strategiyani tanlash, rejalash va amalga oshirishni bu esa O'zbekiston Respublikasining dunyo hamjamiyatida obro'sini oshirishda va iqtisodiyotini yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ko'p sonli ma'lumotlar tahlili shundan dalolat beradiki, iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ilmiy-texnik innovatsiyalar hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida kichik biznes va tadbirkorlik innovatsion jarayonda markaziy rol o'ynaydi, innovatsiyalar esa texnik taraqqiyot sur'ati yuqori bo'lgan tarmoqlarda asosiy raqobat quroli hisoblanadi. Texnik taraqqiyot va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi institutlarga alohida e'tibor qaratgan. XX asrning birinchi yarmi iqtisodchisi Yozef Aloiz SHumpeter (1883-1950) innovatsiyalarni olg'a suruvchi va unda normal darajadan katta bo'lgan daromadning asosiy manbasi bo'luvchi raqobat mexanizmini ko'rsatib bergan.

"Martekingning uchta asosiy aspekti sanoatning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Birinchisi innovatsion musobaqadir. Firmalar musobaqasida birinchi bo'lib innovatsiyaga erishgan firma marteking sohasida ham yetakchi hisoblanadi. Ikkinchisi, yirik firmalar bozorda innovatsiyalarni izlash bilan bog'liq ishlarni doim takomillashtirishga harakat qilishlaridir. Uchinchi, Kristensen (1997) bozor talabi asosiy innovatsiyalarga bo'lgan talabni aniqlashtiruvchi omil ekanligini ta'kidlab o'tgan"¹.

11.2. Innovatsion marketingda innovatsion strategiyalarning ahamiyati.

XX asrning ikkinchi yarmida G'arbda kuzatilgan o'ziga xos bashorat shov-shuvi Rossiya bashoratchilik maktabi yetakchisi I.V.Besstijev-Lada tomonidan tuzilgan klassik bashoratchilik antologiyasida yaqqol tasvirlab berilgan. Intellektual va siyosiy doiralarda qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lgan o'nlab fundamental asarlarda jahon rivojlanishining istiqbollari turli stsenariylarda — eng yorqin ranglardan to katastrofik holatlargacha asoslab berilgan. Uzoq muddatli u yoki bu bashorat stsenariylarini asoslab berish uchun foydalanilgan ko'plab global modellar yaratilgan. Ushbu bashoratchilik shov-shuviga BMT ham qo'shilgan bo'lib, uning Sekretariatida bashorat va istiqbolli tadqiqotlar bo'limi tashkil qilingan. Nobel mukofoti sovrindori V.V.Leontyev rahbarligidagi BMT

¹134

ekspertlar guruhi tomonidan o'tgan asrning 70-yillarida o'ziga xos tarmoqlararo balansning mintaqalararo modeli asosida jahon iqtisodiyoti rivojlanishining 2000 yilgacha bo'lgan bashoratlari ishlab chiqilgan.

Biroq 80-yillar oxirlariga kelib G'arbda ham, sobiq Ittifoqda ham bashoratchilik to'liqini pasaya boshladi. Buning sababi oddiy edi: jahon industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tib, tendentsiyalar o'zgardi va chuqur bifurkatsiyalar klasteri vujudga keldi. Avvalgi bashoratlarda va ularning metodologik asoslari bu muhitda o'z ta'sir kuchini yo'qotgan bo'lib, yangi metodologiya esa hali rivoj topmagan edi.

O'tish davrida ijtimoiy va texnologik tizimlar traektoriyasi keskin o'zgaradi. Ularning ayrimlari o'tmishda qolib ketib, ularning o'rniga yangilari paydo bo'ladi va jahon miqyosida keng tarqaladi. Bu davrda oldindan ko'ra bilishning qiyinligi an'anaviy inqilobiy paradoks — e'lon qilingan maqsadlar va amalda erishilgan natijalar o'tasidagi farqlar bilan ham izohlanadi. Lekin shunga qaramay XX asrning yirik olimlari qalamiga mansub bo'lgan eng oxirgi asarlardan birida insoniyatning rivojlanishiga doir asosli bashoratlarda, ekologik va tsivilizatsiya inqirozlarining bartaraf etilishi, uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish zarurligi haqida asoslangan fikrlarni o'rgatamiz: «TSivilizatsiya strategiyasining paydo bo'lishi hayotiy ahamiyatga ega. U tabiat strategiyasi bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi lozim. Bu esa insoniyat tarixida uning kuch-quvvati o'sishi bilan birga kuzatiluvchi sifat yangiligidir. Bizni nafaqat ekologik, balki tsivilizatsiya inqirozi kutib turibdi. O'z mohiyatiga ko'ra biz tsivilizatsiya tarixining butkul yangicha bosqichi, balki antropogenez oldida turibmiz, bunda esa butun xalqlar oldida kun ko'rish strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha umumiy vazifa turadi». Bunday strategiyani uzoq muddatli bashoratlarsiz, tabiat va jamiyat rivojlanishining muqobil yo'llarini oldindan ko'ra bilmasdan turib amaliy jihatdan ishlab chiqish mumkin emas.

Takrorlash uchun savollar

1. Zamonaviy innovatsion marketing strategik ko'rinishlarini sharhlab bering.
2. Yuqori texnologik tovarlarning innovatsion marketing xususiyatlari qanday tavsiflanadi?
3. Yangi innovatsion tovarlarni ishlab chiqarishda maqsadli bozorning tahlili.
4. Innovatsion marketing strategiyasida texnologiyalarni transferasi qanday tashkil etiladi?

12-mavzu. Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalash

Reja:

12.1. "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

12.2. Ilmiy kashfiyotlar. Kashfiyot obektlari. Kashfiyotni aniqlash tartiblari.

12.3. "EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

12.4. EHM uchun dasturlar. EHM ma'lumotlar bazalari. Mualliflik huquqining buzilishi. Dasturlar yoki ma'lumotlar bazalarini ro'yxatga olish uchun talabnoma.

12.5. Qonunchilikda mualliflar mulkiy huquqlarining mustahkamlanishi.

12.1. "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni

O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuni 06.05.1994-yilda qabul qilingan va mazkur qonunga 30.07.2008 da o'zgartirish kiritilgan. Ushbu Qonunning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasidagi ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari huquqiy muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Sanoat mulki obektlari to'g'risidagi qonun hujjatlari va boshqa hujjatlardan iborat. O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi sanoat mulki obektlarini huquqiy muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Patent idorasi sanoat mulki obektlariga patent berish haqidagi talabnomalarni ko'rib chiqish uchun qabul qiladi, ular bo'yicha davlat ekspertizasini o'tkazadi, ularni davlat ro'yxatiga oladi, sanoat mulki obektlariga patentlar beradi, rasmiy axborotnoma nashr yetadi, sanoat mulki obektlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining qo'llanilishiga doir qoidalar qabul qiladi va tushuntirishlar beradi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Patent idorasi to'g'risidagi nizomga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Quyidagilar ixtiro sifatida e'tirof etilmaydi:

- ilmiy nazariyalar va matematika usullari;
- tashkil etish va boshqarish usullari;
- shartli belgilar, jadvallar, qoidalar;
- aqliy operatsiyalarni bajarish qoidalari va usullari;
- elektron hisoblash mashinalari uchun algoritmlar va dasturlar;
- binolar, inshootlar, hududlarni rejalashtirish loyihalari va chizma tarhlari;
- estetika talablarini qanoatlantirishga yo'naltirilgan, buyumlarning faqat tashqi ko'rinishiga oid yechimlar;
- integral mikrosxemalarning topologiyalari;
- o'simlik navlari va hayvon zotlari;
- jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid yechimlar.

5-jadval

Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi haqidagi talabnomalarning tuzilishi

№	<i>Ixtiro haqidagi talabnoma quyidagilarni o'z ichiga oladi</i>	<i>Foydali model haqidagi talabnoma quyidagilarni o'z ichiga oladi</i>	<i>Sanoat namunasi haqidagi talabnoma quyidagilarni o'z ichiga oladi</i>
1.	Ixtironing muallifi (hammuallifi) va kimning nomiga patent berish so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan patent berish haqidagi arizani	Foydali modelning muallifi (hammuallifi) va kimning nomiga patent berish so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan patent berish haqidagi arizani	Sanoat namunasi muallifi (hammuallifi) va kimning nomiga patent berish so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan patent berish haqidagi arizani
2.	Ixtironi uni amalga oshirish uchun yetarli darajada to'liq ochib berilgan tavsifni	Foydali modelni uni amalga oshirish uchun yetarli darajada to'liq ochib berilgan tavsifni	Buyumning tashqi ko'rinishi haqida to'la-to'kis, bor tafsiloti bilan tasavvur qilish imkonini beruvchi buyum aks yettirilgan tasvirlar turkumini, maket yoki

			rasmni
3.	Ixtironing mohiyatini ifodalovchi hamda uning tavsifiga to'la muvofiq bo'lgan formulasini	IFoydali modelning mohiyatini ifodalovchi hamda uning tavsifiga to'la muvofiq bo'lgan formulasini	Agar sanoat namunasining mohiyatini ochib berish uchun zarur bo'lsa, buyum umumiy ko'rinishining chizmasi, ergonomik sxemasi, konfeksion xaritasini
4.	Agar ixtironing mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lsa, chizmalar va boshqa materiallarni	Agar foydali modelning mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lsa, chizmalar va boshqa materiallarni	Sanoat namunasining undagi muhim belgilar majmuini aks yettirgan tavsifi
5.	Ixtiro referatini	Ixtiro referatini	

12.3. Ilmiy kashfiyotlar. Kashfiyot obektlari. Kashfiyotni aniqlash tartiblari.

“Ishlab chiqarish texnikasi yoki yangi jarayon ko'rinishidagi texnik o'zgarishlar texnik ixtirolar va kashfiyotlarni ta'riflash uchun ishlatiladi. Bunday kashfiyotlar ishlab chiqarish va xarajatlarni firma va sanoat tarmoqlari darajasida o'zgartirishi mumkin. Soluning neoklassik o'sish modelida texnologik rivojlanish kashfiyotlar tufayliligiga to'xtalib o'tilgan. Texnologik jarayonning bir nechta pog'onaga ega ekanligiga ham batafsil to'xtalib o'tilgan”¹.

Kashfiyot deb bilim darajasiga tubdan o'zgartirish olib kiradigan ilgari noma'lum bo'lgan, ammo obektiv mavjud moddiy nuqtaning hodisa, xossa va qonuniyatlarini tushuntirib beruvchi ta'limotga aytiladi.

Kashfiyotni himoya qilish maqsadi:

- Ilmiy mazmun ishonchliligini tasdiqlash uchun;
- Muallif va davlat ustunligini o'rnatish;
- Kashfiyot muallifining xususiyatlarini tan olish va unga tegishli imtiyozlar berish;
- Kashfiyot bilan bog'liq ilmiy-texnologik masalalarni hal qilishda ko'maklashish;
- Fan va texnikada, foydalanish uchun kashfiyotlarni davlat tomonidan ma'lumot uchun qabul qilinishi va hisobga olinishi.

12.4. “EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni

6-jadval

Kashfiyotlarni aniqlash bosqichlari

Kashfiyotni aniqlash bosqichlari	Amalga oshiriladigan ishlar
1-bosqich	Asos qidiruv tadqiqotni ilmiy-amaliy injenerlik tadqiqotdan ajratish lozim. Tadqiqotning obekti tabiiy yoki texnik bo'lishi mumkin va uni tartibli amalga oshirish kerak.
2-bosqich	Kashfiyot predmeti hodisa, xossa, qonuniylikni oldindan belgilash.
3-bosqich	Kashfiyot shakliga muvofiq kashfiyot predmeti qat'iy shakllantiriladi.
4-bosqich	Bunda ilmiy qoidalar jamoatchilik tomonidan muhokama qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dastur va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida”gi Qonuni 06.05.1994-yilda

¹28

qabul qilingan va 05.04.2002 va 30.08.2002-yillarda o'zgartirishlar kiritilgan. Ushbu Qonun EHM uchun dastur va ma'lumotlar bazalarini yaratish, ularning huquqiy himoyasi va ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni O'zbekiston Respublikasida tartibga soladi.

Qoraqalpoiston Respublikasida EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi borasidagi munosabatlar Qoraqalpoiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari yoki bitimlarida ushbu Qonunda nazarda tutilganidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma yoki bitim qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu Qonun EHM uchun yaratilgan dastur va ma'lumotlar bazalarini mualliflik huquqi obektlari sirasiga kiritadi.

Vazifasi va afzalliklaridan qat'i nazar, obektiv shaklda ifodalangan, bosib chiqarilgan hamda bosib chiqarilmagan, muallif (hammualliflar) ijodiy faoliyatining natijasi bo'lgan, EHM uchun yaratilgan har qanday dastur va ma'lumotlar bazalariga nisbatan mualliflik huquqi tatbiq etiladi. EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasiga mualliflik huquqi aksi isbotlanmagunga qadar saqlanib qolaveradi.

12.5. EHM uchun dasturlar. EHM ma'lumotlar bazalari. Mualliflik huquqining buzilishi. Dasturlar yoki ma'lumotlar bazalarini ro'yxatga olish uchun talabnoma

Bugungi kunda kompyuter insonlarning o'zaro munosabatlari, axborot bilan almashishning bosh vositasiga aylandi.

Kompyuter har qanday ishda insonning eng yaqin yordamchisidir. Lekin kompyuterning o'zi to'laqonli yordamchi yemas. Uning qandaydir masalani hal qilishdagi foydaliligi to'laligicha u ishlaydigan dasturga bog'liqdir. Dasturiy ta'minot kompyuterning jonidir.

Har qanday EHMni ikki qismga bo'lish mumkin:

1. Apparat-texnik (hardware)
2. Dasturiy ta'minot (software).

Dasturiy ta'minot yoki EHM uchun dastur bu EHM, uning tarmoqlari va boshqa kompyuter vositalarining muayyan natijalar olish maqsadida ishlash uchun mo'ljallangan ma'lumotlar va buyruqlar majmuidir.

12.6. Qonunchilikda mualliflar mulkiy huquqlarining mustahkamlanishi

Mualliflar mulkiy huquqlari shaxsiy nomulkiy huquqlar kabi o'zining huquqiy tabiatiga ega. Agarda, muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari uning ajralmas huquqlari toifasiga kirsam, mulkiy huquqlar esa o'zga (uchinchi shaxs)larga ma'lum muddatlarda va ma'lum harakatlarni amalga oshirish sharti bilan vaqtincha o'tkazib turilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunining "Muallifning mulkiy huquqlari" nomli 19-moddasida muallif asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanishda mutlaq huquqlarga ega ekanligi mustahkamlangan. E.P. Gavrilov muallifning huquqlarini ikki guruhga bo'ladi:

a) shaxsiy nomulkiy huquqlar. Bu huquqlar jumlasiga u asarga muallif bo'lish huquqini; asarni nomlash huquqini, asar daxlsizligi huquqini va asarni nashr qilish huquqlarini kiritadi;

b) mulkiy huquqlar.

Ayrim olimlar mualliflik huquqlarini shaxsiy va mulkiy huquqlarga ajratilish zarurati va imkoniyatlarini tan olishmasa, ba'zilar muallif huquqlarining bunday ajratilishini shartligi, ba'zilar esa huquqlarni bunday turkumlashni nisbiy ekanligini ta'kidlashadi, yana bir guruh mutaxassislar muallif shaxsiy huquqlarini intellektual huquqlar jumlasiga kiritishadi.

Muallifning huquqlari o'zining tarkibiga bir vaqtning o'zida ham shaxsiy, ham mulkiy huquqlarni birlashtiradi, shu ma'noda uning intellektual huquqlari, deb yuritish unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Muallif mulkiy huquqlarining tabiati, muallifning shaxsiy huquqlari tabiatidan keskin farq qiladi.

Takrorlash uchun savollar

1 Ilmiy kashfiyotlar nima ularni obektlari ularni aniqlash usullarini sharhlab bering?

2.O'zbekiston Respublikasida ilmiy kashfiyotlarni muhofazalash qanday amalga oshiriladi?

3.Ilmiy kashfiyotlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasini qaysi qonunlarini bilasiz?

4.O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida ilmiy kashfiyotlarning roli nimalardan iborat?

13-mavzu. Patentlar va patent axborotlarini izlash (4 soat)

Reja:

13.1. Patent, litsenziya va sertifikat olish uchun patent byurosiga ariza berish.

13.2. CHet yelda patentlash. Litsenzion shartnoma xaqida tushuncha.

13.1. Patent, litsenziya va sertifikat olish uchun patent byurosiga ariza berish

Patentlash – O'zbekiston Respublikasi tashkilotlari, korxonalari, ayrim fuqarolarining chel yel patentlari va boshqa tegishli muhofaza hujjatlarini ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalariga olish maqsadida, shuningdek tovar belgilarini amalga oshiriladigan barcha ishlar majmui.

“Patentlar, savdo belgilari va litsenziyalarni mohiyatini Kouz teoremasida keltirilgan qonuniyat bilan tushuntirish mumkin. Kouzning fikricha patentlash jarayoni faqat iqtisodiy samarani emas, balk atrof muhit tozaligi va xavfsizligi masalasini o'z ichiga olishi shart. Patent berayotganda patent egasiga atrof muhitni ifloslantirish bo'yicha ko'rsatmalar va soliq tizimi tomonidan alohida yondashuvni ham vazifa yoki burch sifatida berish mumkin”¹.

Bunda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va tashkilotlari uchun patent olishga vakolatlangan vazifasini bajaradi, talabnomachi huquqiy tavsifdan hujjatlar (dalolatnoma, berganlik hujjatlari va b.) ni rasmiylashtirishda yordam ko'rsatadi. talabnomani chet yelga jo'natadi, chet yel patent idorasi bilan (chel yeldagi patent olishga patent idorasining ishonchli vakillar orqali) aloqani amalga oshiradi, Patent idorasi qarorlari, patent olishga vakolatlangan Patent idorasining vakillarining so'rovini va tarjimasini ta'minlaydi, bu qaror va so'rovlarga javoblar tayyorlashga, shuningdek mamlakatlar patent ma'muriy, appelyastiya va boshqa idoralarida mamlakat sanoat mulklari bo'yicha ishlar ko'rilishida yordamlashadi.

¹ Innovation, intellectual property, and economic growth / ChristineGreenhalgh and Mark Rogers.USA Princeton University Press, 2010 . 45-b.

13.2. CHet yelda patentlash. Litsenzion shartnoma haqida tushuncha

CHet yelda patentlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi.

Patentlashtiruvchi tashkilot, sanoat mulklarini chet yelda patentlash to'g'risida qaror qabul qilsa, agar konvensiyaviy ustuvorlik talabnomasi uchun yoki boshqa vaziyatlarga ko'ra bundan ko'ra istisno va talab etilmasa, sanoat mulk tavsifini (uning tushuntiruvchi chizmasini) tayyorlaydi. Sanoat mulklarini patentlashga mo'ljallanayotgan mamlakatning patent qonunchiligi o'sayotgan talablarga muvofiq tavsif o'zbek va tegishli chet tilida tayyorlanadi. Bu tavsif yetarli nusxada ko'paytiriladi va jo'natishdan oldin O'zbekiston Respublikasining Patent idorasida sanoat mulkini tavsifi va chizmalari chet yelda patentlash xizmati bilan kelishib olinadi.

“Kouzning fikricha, mamlakatlarda patentlash tizimi mulkchilik huquqi bilan chambarchas bog'liq ravishda raqobatdosh yoki noraqobatdosh mahsulotlarga nisbatan o'zgacha yondashuv bo'lishi kerak, ya'ni patentlashda mahsulot turini raqobatdoshlik darajasini mulk qo'mitalari aniqlab berishlari shartdir. Bunday deb ta'kidlashiga sabab, bu kabi aniqlashtirishlar iqtisodiy ahamiyatga egadir”¹.

CHet yelda patentlash uchun tayyorlangan talabnoma materiallarini Patent idorasi kelishib olish uchun patentlashtiruvchi tashkilotga yuboradi, u bir oy ichida mualliflar bilan talabnoma materiallari kelishilganligini ta'minlaydi yoki o'z mulohazalarini bayon yetib, Patent idorasiga qaytaradi. Agar tashkilotdan belgilangan muddatda hech qanday ma'lumot kelmasa, Patent idorasi materialni kelishilgan deb hisoblaydi. Har qanday vaziyatda ham talabnoma materiallarini kelishib olish bilan bog'liq ishlar konvensiya ustuvorligini yo'qotishga sabab bo'lmasligi lozim.

Patentlashtiruvchi tashkilot, maxsus so'rovni kutmay, sanoat mulklarini patentlash haqidagi qarorni olgan kundan boshlab bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Patent idorasiga mualliflar, talabnomachilar, haqidagi barcha ma'lumotlarni ixtironi patentlash bo'yicha chet yelda ish olib borish va rasmiylashtirish uchun tadim yetadi. O'zbekiston Respublikasi sanoat mulklarini patentlash uchun chet yel patent idoralariga talabnomani O'zbekiston Respublikasi Patent idorasiga jo'natadi va ular bilan yozishmalar olib boradi.

Texnika obektlarining patentga loyiqqligini va patent sofligini aniqlash tartibi.

Sanoat mulklarini patentlash bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasining chet davlatlar bilan iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy aloqalari rivojlanishi munosabati bilan patent tavsifidagi boshqa masalalar ham yuzaga keladi. SHulardan biri, O'zbekiston Respublikasi sanoat mahsulotlari (mashina, qurilmalar) ning, shuningdek texnologiya jarayonining patent sofligini aniqlash hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi korxonalar chiqarayotgan buyumlar uchun patent sofligini ta'minlash zarurati mamlakat uskunalarini eksport qilish bilan bog'liq tarzda yuzaga kelmoqda. Bundan tashqari chet yelda korxonalar qurilishiga texnikaviy hamkorlik qilish va chet yel firma hamda tashkilotlarining O'zbekiston Respublikasiga beradigan patentlari sonining ko'payishi tufayli ham shunday zarurat paydo bo'lmoqda. Patent sofligi - patent egasining huquqiy obekti bilan bog'liq tushuncha. Patent egasi huquqining buzilishi bir qator mamlakatlarda tovarlarni ushlab olish, jarima solish, ba'zan esa jamoa olishgacha olib keladi. Patent egasi, shunday qoidabuzarlik tufayli ko'rgan zararini qoplashni talab etishi mumkin.

¹Innovation, intellectual property, and economic growth / ChristineGreenhalgh and Mark Rogers.USA Princeton University Press, 2010 . 46-b.

Qurilmalar, mashinalar, ishlab chiqarish usullari yoki qandaydir boshqa obektlar qaysi mamlakatda amal qilayotgan patentga xilof bo'lmasa, shu mamlakatda patent sof hisoblanadi.

Patent sofligi tushunchasini patentga loyiq tushunchasi bilan aralashtirmaslik lozim. O'rtadagi farq avvalo shundan iboratki, "patent sofligi" atamasini moddiy obektlar (mashina, qurilmalar va h.k.) ga taalluqli, "patentga loyiq" atamasi esa texnikaviy yechimga tegishli. Patent sofligi deganda, muayyan buyum begona patent ta'siri ostiga tushib qolmasligi nazarda tutiladi.

Patent sofligiga ega buyum boshqa mamlakatlarda mavjud bo'lgan patentlarga xilof bo'lmaydi, shuning uchun unga nisbatan boshqa patent egalari tomonidan hech bir da'vo bo'lmaydi. Agar buyumdagi texnikaviy yechimga patent olish mumkin bo'lsa, unda bu yechim patentga loyiq hisoblanadi.

Patent sofligi va patentga loyqlik masalasi bir vaqtda yuzaga kelishi mumkin, lekin ularning mohiyati har xil. SHunday qilib, patent sofligi texnika obektining huquqiy xossasi bo'lib, u mazkur mamlakatlarda amal qiluvchi patentlar mutlaq huquqi uchinchi shaxsga taalluqli degan xavfdan holi, erkin foydalanish mumkinligidan iboratdir. Patent sofligi qandaydir bir mamlakatga nisbatan yoki bir necha mamlakatlarga nisbatan ta'minlanishi mumkin. Sanoat mulklariga bo'lgan huquqning hududiy tavsifiga ko'ra, qandaydir texnika obekti (buyum) patenti, masalan, AQSHda berilgan patent ta'siri ostida bo'lishi mumkin, shu bilan birga Hindistonga nisbatan patent sofligiga ega bo'lishi mumkin. Patent sofligini aniqlash, u yoki bu mamlakatda berilgan patentning amal qilish muddati bilan ham bog'liq.

Takrorlash uchun savollar

1. Patent, litsenziya va sertifikat tushunchalarini izohlab bering?
2. Patent, litsenziya va sertifikat olish uchun shartnoma tuzish shartlari?
3. Patent, litsenziyalarni chet yelda patentlashga qo'yiladigan talablar?
4. Sanoat mulkini va xizmatlarni chet yelda patentlashning sababi va vazifasi.

14-mavzu. Sanoat namunalari va seleksiya yutuqlari innovatsion rivojlanish ob'ekti sifatida (4 soat)

Reja:

14.1. O'zbekiston Respublikasini "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi Qonun va uning ahamiyati.

14.2. Seleksiya yutuqlari. O'simlik turlari va navlari, hayvon zotlari va ularga qo'yiladigan talablar.

14.3. Sanoat namunalari. Sanoat namunasining patentga layoqatlilik shartlari.

14.4. Sanoat namunasiga talabnomalarning tuzilishi va patentlash tartibi.

14.5. Sanoat tovar belgilarining turlari va ularga talabnoma tuzish.

14.1. O'zbekiston Respublikasini "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi Qonun va uning ahamiyati

O'zbekiston Respublikasining "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi qonuni 30.08.1996-yilda qabul qilingan. Ushbu Qonunning maqsadi seleksiya yutuqlarini yaratish, huquqiy muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Zot – genetik jihatdan o'zaro bog'liq biologik va morfologik xususiyatlari hamda belgilariga qarab aniqlanadigan hayvonlar (shu jumladan parrandalar, hasharotlar, ipak qurti) yoki ularning duragaylari guruhi bo'lib, bu xususiyatlar hamda belgilarning ayrimlari aynan shu guruhga xos bo'ladi va uni hayvonlarning boshqa guruhlaridan farqlab turadi. Zot guruhi, zot ichidagi (zonal) tip, zavod tipi, zavod liniyasi, zot oilasi, partenoklonlar, liniyalar, duragaylar zotning muhofaza qilinadigan obektlaridir;

Ish beruvchi – seleksiya yutug'ini yaratish to'g'risida topshiriq bergan va bu topshiriq bajarilishini moliyalashtirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Litsenziar – seleksiya yutug'idan foydalanish huquqini litsenziatga litsenziya shartnomasi asosida beruvchi patent egasi;

Litsenziat – seleksiya yutug'idan foydalanish huquqini litsenziardan litsenziya shartnomasi asosida olgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Nav – o'simliklar guruhi bo'lib, u nasldan naslga barqaror o'tuvchi, muayyan genotip yoki genotiplar kombinatsiyasini boshqalaridan ajratib turuvchi belgilarga qarab aniqlanadi va ayni bir botanik taksondagi boshqa o'simliklar guruhidan bir yoki bir necha belgilari bilan farqlanadi. Klon, liniya, birinchi avlod duragayi, populyatsiya navning muhofaza qilinadigan obektlaridir;

Patent egasi – seleksiya yutug'iga berilgan patentning egasi;

Seleksiya yutug'i – o'simliklarning yangi navi, hayvonlarning yangi zoti;

Talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'ining sinovlari farqlanish, turdoshlik va barqarorlik mezonlariga moslikni sinashdan iboratdir. Talabnomada ko'rsatilgan seleksiya yutug'ining sinovlari ixtisoslashtirilgan tashkilotlar belgilagan usul va muddatlarda, ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan davlat nav sinash stansiyalarida, davlat nav sinash uchastkalarida, boshqa tashkilotlarda o'tkaziladi.

CHet yellik yuridik va jismoniy shaxslar ushbu Qonunda nazarda tutilgan huquqlardan O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari bilan teng ravishda yoki kelishuv printsipli asosida foydalanadilar.

14.2. Seleksiya yutuqlari. O'simlik turlari va navlari, hayvon zotlari va ularga qo'yiladigan talablar

7-jadval


Patent berish haqidagi talabnomaga ilova qilinadigan hujjatlar

№	Patent berish haqidagi talabnoma quyidagilarni o'z ichiga oladi
1.	muallif (hammualliflar) va kimning nomiga patent so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs (shaxslar), shuningdek ularning turar joyi yoki manziliga doir ma'lumotlar ko'rsatilgan patent berish haqidagi arizani;
2.	seleksiya yutug'ining nomi to'g'risidagi taklifni;
3.	seleksiya yutug'ining tavsifini (texnikaviy anketasini);
4.	seleksiya yutug'i namunalari fotosuratlarini;
5.	talabnoma beruvchi tomonidan o'tkazilgan seleksiya yutug'i sinovlariga doir hujjatlarni;
6.	talabnoma beruvchining seleksiya yutug'idan foydalanilmaganligi, u sotilmaganligi, o'zga shaxsga berilmaganligi hamda uning yangilik talablariga mosligini tasdiqlaydigan deklaratsiyasini;
7.	seleksiya yutug'ining ustuvorligini tasdiqlovchi hujjatni (zarurat bo'lganda);
8.	talabnoma beruvchining seleksiya yutug'ini sinovdan o'tkazish uchun materialni belgilangan muddatda ixtisoslashtirilgan tashkilotga taqdim etish majburiyatini;
9.	talabnoma patent vakili yoki ishonchli shaxs orqali topshirilganida ularga berilgan ishonchnomani;
10.	patent boji belgilangan miqdorda to'langanligini yoxud patent boji to'lashdan ozod qilish,

shuningdek uning miqdorini kamaytirish asoslarini tasdiqlovchi hujjatni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

14-rasm

Har bir talabnoma o'z ichiga quyidagilarni oladi:



14.3. Sanoat namunalari. Sanoat namunasining patentga layoqatlilik shartlari

Sanoat namunasi inson ijodiy faoliyati yo'nalishining amalga oshishi bo'lib, aniq maqsad va iste'molchilar doirasiga ega. Ta'rifga ko'ra sanoat namunalari qandaydir bir obekt tashqi ko'rinishining badiiy-konstruktorlik (dizayn) yechimi kiradi. Sanoat namunalari hajmiy (modellar), yassi (rasmlar) yoki ularning aralash ko'rinishida bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sanoat namunasining yangiligi, o'ziga xosligi va sanoatda qo'llanilishi uning patentga layoqatlilik shartlari hisoblanadi.

Agar sanoat namunasining buyumning estetik va (yoki) yerganomik xususiyatlarini belgilovchi muhim belgilari (alomatlari) majmui uning ustuvorlik sanasidan oldin jahondagi nufuzli axborot manbalari orqali barchaga ma'lum bo'lmagan bo'lsa yangi deb tan olinadi. Sanoat namunasining muhim belgilari majmui buyum estetik xususiyatlarning ijodiy xarakteri bilan bog'liq bo'lsa u o'ziga xos deb tan olinadi. Sanoat namunasi ko'p karra qayta ishlab chiqarish imkoniyatini beradigan bo'lsa sanoatda qo'llaniladigan deb tan olinadi.

“Aynan sanoat namunalari patentlash bugungi kunda eng risk yuqori hisoblangan sohadir. Bunday deyishimizga sabab, jahon bozorida bu kabi “xato”larga ko'p martalab yo'l qo'yilgandir. Muammoning negizi nimada? Buni topish uchun firmalar qaysi, qanaqa va

nima uchun innovatsiyalarga ehtiyoj sezishlari to'g'risida asosiy savollarga javob berishlari kerak"¹.

14.4. Sanoat namunasiga talabnomalarning tuzilishi va patentlash tartibi

Sanoat namunasiga O'zbekiston Respublikasining patenti berish uchun talabnoma quyidagilardan iborat bo'lishi kerak.

- Patent yoki dastlabki patent berish to'g'risida belgilangan shaklda tuzilgan ariza, u sanoat namunasi muallifi (mualliflari), patent kim (kimlar)ning nomiga berilishi so'rayotgan bo'lsa, o'sha shaxs (shaxslar) va talabnoma beruvchi to'g'risidagi talab etiladigan ma'lumotlardan iborat bo'ladi.

- Buyum, maket yoki rasmni aks yettiruvchi fotosuratlar to'plami, ular buyumning huquqiy muhofaza hajmini belgilab beruvchi muhim belgilar majmuini aniqlash imkonini beradigan tashqi ko'rinishi to'g'risidagi mufassal tasavvur hosil qiladi.

- Buyum tashqi ko'rinishining chizmasi, ergonomik sxemasi, konfeksion kartasi, agar ular sanoat namunasi mohiyatini ochib berish uchun zarur bo'lsa.

- Sanoat namunasining tavsifi, u fotosuratlarda aks yettirilgan buyumning tashqi ko'rinishini so'zlar vositasida ochib berishi va uning muhim belgilari majmuini o'z ichiga olishi kerak.

- Talabnomaga berilgan miqdorda boj to'laganligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinishi zarur.

Qonun talablariga muvofiq har bir talabnoma bitta sanoat namunasiga tegishli bo'lishi va bu namunaning variantlarini o'z ichiga olishi mumkin (sanoat namunasining birligi talablari). Bunda bitta sanoat namunasi deyilganda yagona bir buyumning badiiy-konstruktorlik yechimi, vazifalari umumiy bo'lgan buyumlar majmui (masalan, mebel garnituri, servis va boshqalar) tushuniladi.

Yagona bir buyum deyilganda birorta butun buyum (masalan, avtomobil), hamda uning bir qismini tashkil yetuvchi buyum (masalan, bamper, fara va boshqalar) tushuniladi.

Sanoat namunasi variantlari deyilganda bitta buyum (to'plam, komplekt) ning bir xil estetik va (yoki) ergonomik xususiyatlarini belgilab beradigan muhim belgilari majmui bilan farqlanadigan badiiy-konstruktorlik yechimi tushuniladi.

14.5. Sanoat tovar belgilarining turlari va ularga talabnoma tuzish

Talabnoma hujjatlariga qo'yiladigan asosiy talablarni o'z ichiga oladi.

1. Buyum, maket, rasm fotosuratlari to'plami.

Buyumning tashqi ko'rinishini aks yettiruvchi fotosuratlar talabnoma berilgan sanoat namunasi to'g'risidagi tasviriy axborotni o'z ichiga olgan asosiy hujjatdir.

Sanoat namunasining tavsifi.

Sanoat namunasining tavsifi quyidagicha tuzilishi kerak:

- Sanoat namunasining nomi.

- Vazifasi va qo'llanish sohasi.

- Sanoat namunasining alaloglari.

- sanoat namunasini tasvirlovchi fotosuratlar va boshqa taqdim etiladigan materiallar ro'yxati.

- Sanoat namunasining mohiyati.

- sanoat namunasini ko'p marta qayta ishlab chiqarish imkoniyati.

¹Innovation, intellectual property, and economic growth / ChristineGreenhalgh and Mark Rogers.USA Princeton University Press, 2010 . 41-b.

- Sanoat namunasining muhim belgilari (alomatlari) ro'yxati.

Sanoat namunasi umumiy ko'rinishining chizmasi namunani mohiyatini ochib berish va uning o'lchamlari, mutanosiblik nisbatlarini aniqlash uchun zarur bo'lgan hollarda taqdim etiladi.

“Sanoat tovar belgilarining turlari va ularga talabnoma yozishda ko'pchilik firmalar bozor iqtisodiyoti sharoitida “xudbinlik” qilishga moyildir. Bu bilan biz tovar belgilarini belgilashda xalqaro huquq normalari bilan hisoblashishda buzg'unchilikning uchrashi va talabnoma yozishda olib borilgan IIRning natijasiga tayangan holda bo'limlarni kiritishda og'ishishlar borligiga e'tiboringizni qaratmoqchimiz”¹.

Agar talabnoma berilgan sanoat namunasi ergonomik jihatdan qayta ishlashni ko'zda tutadigan buyumga oid bo'lsa, shuningdek, ushbu buyumning ergonomik sxemasi ham taqdim etiladi.

Tovar belgilarini huquqiy muhofaza qilmasdan madaniy bozor munosabatlarini o'rnatish mumkin yemas. Intellektual mulk obekti sifatida tovar belgisining o'ziga xos xususiyati uning tovar va xizmatlar bozoridagi bajaradigan roli bilan tushuntiriladi.

Tovar belgisi (yoki xizmat ko'rsatish belgisi) fuqarolik muomalasi ishtirokchilari va ular ishlab chiqaradigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni xususiy alomatlarni aks yettiruvchi (individuallashtirish) uchun xizmat qiladigan belgidir.

O'zbekistonda tovar belgilari bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlar “Tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari to'g'risida”gi qonun bilan tartibga solinadi. Tovar belgisi (xizmat ko'rsatish belgisi)ning huquqiy muhofazasi u ro'yxatga olinishi bilan yuzaga keladi.

Qonunga muvofiq quyidagi belgilar tovar belgisi sifatida ro'yxatga olinishi mumkin:

- so'zlar yoki harflar birikmasidan iborat bo'lgan so'z bilan ifodalanadigan belgilar;
- tasviriy belgilar–liniyalar kompozitsiyasi, istalgan shakldagi figuralarning tekislikdagi soyasi shaklidagi;
- hajmiy belgilar – uch o'lchamli fazodagi figuralar (liniyalar) yoki ularning kompozitsiyasi shaklidagi;
- aralash-tasviriy, so'zli, hajmiy harakterdagi elementlarning kombinatsiyasidan iborat va hokazo.

Tovar belgisi istalgan rangda yoki ranglar birligida ro'yxatga olinishi mumkin.

Talabnoma beruvchi o'z tovar belgisini ishlab chiqarishda qanday asosiy tamoyillarga amal qilishi zarur. Odatda tovar belgisi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi zarur:

- ifodalik va ma'nodorlik (o'ziga xoslik), ya'ni tovar belgisi uni boshqalardan ajratib turuvchi belgiga ega bo'lishi, oson ko'chirilishi, (so'z bilan ifodalangan tovar belgilari uchun) va yodda qolishi kerak;
- qisqa va aniqlik, ya'ni tovar belgisi qisqa bo'lishi (so'zli belgilar uchun) va tasvir elementlari soni haddan tashqari ko'payib ketmasligi (tasviriy belgilar uchun) kerak;
- estetiklik, ya'ni tovar belgisi idrok etilishi bo'yicha zamonaviy va tushunarli hamda ko'rgazmali bo'lishi kerak;
- barqarorlik (uzoq muddatlilik), ya'ni tovar belgisi uzoq muddat, hatto mahsulot assortimeni o'zgargan hollarda ham foydalanish uchun yaroqli bo'lishi kerak;
- tasavvur uyotadigan, ya'ni tovar belgisi iste'molchidan tovar yoki uning biror-bir xususiyati to'g'risida tasavvur hosil qilishi zarur.

¹Innovation, intellectual property, and economic growth / ChristineGreenhalgh and Mark Rogers.USA Princeton University Press, 2010 . 41-b.

Bundan tashqari, soʻz bilan ifodalanadigan tovar belgisi uchun yangi boʻlishi bilan birga, ohangdorligi va talaffuzi qulay boʻlishi ham zarur sifatlardan hisoblandi.

SHuni qayd etish zarurki, tasviriy tovar belgisi chun turli-tuman ranglarning uyunligi uning oʻziga xosligini, kishilarni oʻziga jalb etishi va farqlanuvchi qobiliyatini oshiradi. SHu bilan birga rang soʻzlar bilan ifodalangan, hajmi va qoʻshma tovar belgilari uchun ham muhimdir.

Takrorlash uchun savollar

1. Sanoat namunasining patentga layoqatlilik shartlarini sharhlab bering?
2. Sanoat va tovar belgilari nima sababdan qoʻyilishini va uni ahamiyati?
3. Sanoat namulariga patent olish uchun talabnoma tuzish qanday hujjatlarni toʻlazish zarur?

15-mavzu. Innovatsion iqtisodiyotda menejment strategiyalari (4 soat)

Reja:

- 15.1. Zamonaviy innovatsion strategiyalar va innovatsiyalar marketingi
- 15.2. Innovatsion marketingni shakllantirishning kontseptual asoslari.
- 15.3. Ilmiy tadqiqot, ishlanma va texnologiyalarni natijalarini tijoratlashuvi strategiyasini ishlab chiqishda maqsadli bozor tahlili.
- 15.4. Yangi mahsulot va texnologiyalarni bozorga kirish strategiyasi.
- 15.5. Yuqori texnologik mahsulotlarning marketing xususiyatlari.

15.1. Zamonaviy innovatsion strategiyalar va innovatsiyalar marketingi

Oʻzbekiston Respublikasida oʻtkazilgan Respublika “Innovatsion gʻoyalar, ishlamalar va texnologiyalar”, “Sanoat yarmarkasi va kooperatsion birjalar yarmarkasi”da taqdim etilgan ilmiy-tekshirish ishlamalari va texnologiyalari, qoʻshma korxonalarda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni sifat koʻrsatkichlari xalqaro ISO/MEK standart talablariga mosligi va Oʻzbekistonda lokalizatsiya qilingan import oʻrnini bosuvchi va eksportga yoʻnaltirilgan koʻplab tovarlar ishlab chiqarilmoqda. Yuqori tartibdagi raqobat afzalliklari (yangi ilmiy ishlamalar, texnologiyalar, novotarlarning innovatsion monopoliyasi)ga asoslangan innovatsion rivojlanishi yangi sohalar va yangi bozorlarga faol bostirib kirishni tashkil qilish uchun katta strategik imkoniyatlar yaratadi. Bu strategik imkoniyatlar oʻz navbatida iqtisodiy oʻsishning sifatan yangi salohiyatini yaratadilar. Kompaniyaning har tomonlama rivojlanishi strategiyalarining variantlari 2-rasmda berilgan.



15 – rasm. Har tomonlama rivojlanish strategiyalarining variantlari.

15 – rasmdan ko’rinishicha, tashkilot uchun har tomonlama rivojlanishning oltita strategiyalari eng katta ahamiyatga ega:

1. Birlashmalar, yutib yuborishlar yoki yangi va qo’shma korxonalar tashkil qilish asosida yangi sohaga kirib borish.
2. Turdosh sohalarida har tomonlama rivojlanish.
3. Turdosh bo’lmagan sohada har tomonlama rivojlanish.
4. Ishlab chiqarishni yig’ishtirish va tuzatish.
5. Aralash har tomonlama rivojlanish va qayta qurish.
6. Ko’p millatli har tomonlama rivojlanish.

Agar yangi sohaga kirib borish, yangi kompaniya yoki qo’shma korxonani tashkil qilish strategiyasi har tomonlama rivojlanmagan kompaniya tomonidan kuchli va foydali raqobat o’rinlarini egallash uchun qo’llanilsa, qoloq ishlab chiqarishlarni yig’ishtirish va tugatish va transmilliy har tomonlama rivojlanish maqsadidagi qayta qurish va har tomonlama rivojlanish maqsadidagi qayta qurish va har tomonlama rivojlanish strategiyasi, qoidaga ko’ra, kuchli va yetarlicha keng har tomonlama rivojlangan korporatsiyalarda vujudga keladi.

15.2. Innovatsion marketingni shakllantirishning kontseptual asoslari

XXI asrning ikkinchi va uchinchi o’n yilliklardagi dunyoning innovatsion o’zgarishlari ishlab chiqarishning postindustrial iqtisodiy uslubining shakllanishi bilan ifodalanadi. Garchi bu jarayon uzoq muddatli va ziddiyatli bo’lsada, hozirdanoq uning asosiy jihatlari ko’zga tashlanmoqda.

Birinchiidan, bu integral iqtisodiy tuzum. Bu xususiy mulkchilikka yo’naltirilgan, har tomonlama raqobatli ko’rinishdir. Bozor iqtisodiyoti tadbirkorlarning shaxsiy tashabbuslari va innovatsion faolligi bilan hozirgi va kelajakdagi avlodlar uchun munosib turmush tarzini ta’minlash, davlatning marketing strategik-innovatsion funksiyalarini amalga oshirish, bozor iqtisodiyotining davlat tomonidan tartibga solinishi hamda inson kapitali va tabiiy

resurslar muhitini takror ishlab chiqarishni ta'minlovchi nobozor sektorining rivojlanish darajasi yuqoriligi bilan bolashga imkon beradi.

Ikkinchidan, bu ko'p ukladli iqtisodiyot bo'lib, unda har bir iqtisodiy uklad unga xos bo'lgan o'rin egallab, boshqa ukladlar ustidan hukmronlik qilmaydi va ular bilan uyunlashadi. Bu yerda gap turli ukladlarning optimal tarzda uyunlashuvi va hamkorligi haqida boradi:

- texnologik o'sishni amalga oshiruvchi, monopoliyaga qarshi kurash bo'yicha kuchli nazorat va diqqat ostida bo'lgan ishlab chiqarish markazlashuv darajasi yuqori tarmoqlarda ishlab chiqarish strukturasi o'zgartiruvchi yirik biznes.

- millionlab fuqarolarning tadbirkorlik tashabbuslari uchun keng imkoniyatlar ochib beruvchi, innovatsion faollikning yuqoriligi bilan ajralib turuvchi, yirik ishlab chiqarishdan bo'shatiluvchi va mehnat bozoriga yangi kirib keluvchi ishchi kuchiqing bandligini ta'minlovchi kichik va o'rta biznes.

- strategik ahamiyatga ega tarmoqlar va nobozor sektorida mujassamlashgan hamda davlatning strategik innovatsion funktsiyalarini amalga oshirishni ta'minlovchi davlat ukladlari,

- aholining hayot faoliyati muhitini (uy-joy-kommunal xo'jalik va atrof-muhit muhofazasi), ma'anaviy takror ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni (maktablar, madaniy muassasalar va xokazo) ta'minlovchi munitsipal uklad;

- inson faoliyati va takror ishlab chiqarishda eng muhim funktsiyalarni bajaruvchi, uy va shaxsiy oilaviy xo'jalik bilan ifodalanuvchi natural uklad.

SHunisi muhimki, har bir uklad unga xos bo'lgan funktsiyalarni bajarish bilan birga egallab turgan o'rnida eng samarali bo'lishi lozim, chunki iqtisodiy o'sish sur'atlari va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bog'liq bo'ladi.

15.3. Ilmiy tadqiqot, ishlanma va texnologiyalarni natijalarini tijoratlashuvi strategiyasini ishlab chiqishda maqsadli bozor tahlili

XXI asr dastlabki kunlaridanoq dunyo rivojlanishining barcha jabhalarida - iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy jarayonlar, demografiya, geosiyosiy va geoiqtisodiy jarayonlar yangi sifat o'zgarishlaridan darak bermoqda. Yaqin o'tmishda yetarlicha barqaror va muvozanatli bo'lgan bu jarayonlar duch kelayotgan o'zgarishlar girdobi ortidan zamonaviy fan vaqti kelganda ulgurmay ham qolmoqda.

SHu narsa tobora yaqqol ko'zga tashlanib bormoqdaki, geostrategik holat, fan va texnika yutuqlari, kadrlar va ilmiy salohiyat, tabiiy resurslar kabi mavjud ob'ektiv omillardan samarali foydalangan mamlakatlar rivojlanish borasida ancha ilgarib ketgan. Bu mamlakatlar ichki iqtisodiy, siyosiy va xalqaro munosabatlar yangicha tizimini shakllantirib, odamlar hayot tarzini yanada yuqori darajaga yetkazib oldi. Ushbu ijtimoiy tizimga AQSH va \langle arbiy Yevropaning bir qator mamlakatlari, sharqda yesa Yaponiya misol bo'la oladi.

Fan - texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan foydalana olmagan mamlakatlar vujudga kelgan sharoitlarga moslasha olmay, rivojlanish yo'lida ancha ortda qolib ketmoqda. Bunday tendensiya yangi yemas, albatta. U XX asrda ham tadqiqotchilar tomonidan kuzatilgan. Uchinchi ming yillik bo'sag'asida bu tendensiya yanada kuchayib, uning ta'siri ostida iqtisodiyoti rivojlanmagan mamlakatlar faol xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlar doriasidan chetga chiqib qolmoqda. Bu mamlakatlar global xarakterga ega, o'ta murakkablashgan munosabatlar tizimida teng huquqli hamkor bo'la olmaydilar. Ular

jahon ijtimoiy jarayonlarining ishtirkochilariga aylana olmaydilar, ularga eng yaxshi holatda kuzatuvchilar roli ajratiladi.

15.4. Yangi mahsulot va texnologiyalarni bozorga kirish strategiyasi.

Hozirgi sharoitlarda iqtisodiyotning eng muhim tavsifnomasi fan, ilg'or texnologiyalar, texnologik bazalarning qanday holatda yekanligi bo'lib, bu o'z navbatida mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar raqobatbardoshlik darajasini belgilab beradi.

Rivojlangan davlatlarning texnologik yutuqlaridan foydalanish, bu sohada avvalo, MDH mamlakatlari bilan hamkorlik o'rnatish, xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiyadan imkon qadar keng foydalanishga intilish zarur. Bunday jarayonlar butun dunyoda ro'y bermoqda. Yuqorida qayd yetib o'tildiki, texnologik jihatdan ilg'or mamlakatlar yagona texnologik makon tuzgan bo'lib, mamlakatimiz unga teng huquqli hamkor bo'lib kirishi, ayrim yo'nalishlarda yesa yetakchilik uchun kurashishi lozim, buning uchun yesa milliy texnologik darajada yetarlicha yuqori bo'lishi zarur.

Bu borada Prezidentimiz LKarimov o'z asarlarida uzoq muddatga, ya'ni 2009-2014 yillarga mo'ljallangan dastur ishlab chiqish to'g'risidagi masalaga alohida e'tibor qaratdilar. Bu dasturda iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash, mamlakatimizning yangi marralarni egallashi uchun kuchli turtki beradigan va jahon bozorida raqobatdoshligini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha maqsadli loyihalar o'z ifodasini topadi.

Mazkur keng ko'lamli dasturni amalga oshirish uchun mamlakatimizda so'nggi yillarda jiddiy tayyorgarlik ko'rib kelinmoqda. Jahon iqtisodiy inqirozi bu jarayonni yanada jadallashtirishga turtki berib, uni har tomonlama tezlashtirishni taqozo yetmoqda.

15.5. Yuqori texnologik mahsulotlarning marketing xususiyatlari

Fan-texnika taraqqiyotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri innovatsion faoliyat, iqtisodiy rivojlanishning mazkur yo'nalishida faoilikni ta'minlovchi omillarni, shuningdek, innovatsion jarayonlarni qo'lab-quvvatlovchi va tartibga soluvchi tashkiliy tuzilmalar xususiyatlari o'rganish va ulardan foydalanish hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish haqida yuqorida shakllantrilgan uezis jahon tajribalaridan kelib chiqqan holda mamlakatimizdagi vaziyatda innovatsion o'sish strategiyasini amalga oshirish ustuvor hisoblansada, bir qator sabablarga ko'ra bugungi kunda uni amalga oshirib bo'lmaydi.

Muvaffaqiyatga yerishish uchun mamlakat korxonalari hamkorlar e'tiborini jalb qilish o'zaro raqobatlashishi lozim. Buning uchun nima sababdan xorijiy firmalar strategik ittifoq va hamkorlikka qadam qo'yishini aniq tasavvur yetish lozim.

Takrorlash uchun savollar:

1. Zamonaviy innovatsion marketingni strategik ko'rinishlarini sharxlab bering.
2. Yuqori texnologik tovarlarning innovatsion marketing xususiyatlari qanday tavsiflanadi?
3. Yangi innovatsion tovarlarni ishlab chiqishda maqsadli bozor tahlili.

16-mavzu. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi (4 soat)

Reja:

16.1. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimining ahamiyati

16.2. Innovatsion dastur

Innovatsiya loyihasining asosiy maqsadlaridan biri – korxonaga yuqori sifatga ega bo'lgan kerakli miqdorda mahsulot ishlab chiqarish layoqatiga ega ekanligini raqobatchilarga isbotlashdan iborat.

“Innovatsion loyiha” tushunchasi bir qancha nuqtai nazardan qaralishi mumkin:

- innovatsion maqsadlarga erishishga xizmat qiladigan tadbirlar yig'indisi sifatida;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish jarayoni sifatida;
- ushbu tadbirlarni asoslovchi va bayon qiluvchi hujjatlar paketi sifatida.

Ushbu uch jihatlarni innovatsion loyihaning innovatsion faoliyatini tashkil qilish va maqsadli boshqarish shakllari sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

SHunday qilib, innovatsion loyiha – bu resurslar, muddatlar va ijrochilar bo'yicha o'zaro bir-birini asoslaydigan hamda o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan, ilm-fan va texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarida muayyan maqsadlar (vazifalar)ga erishishga qaratilgan jarayonlarning murakkab tizimidir.

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun ularni moliyaviy asoslash va investitsiyalash muhim ahamiyatga ega. Bunda loyihaviy moliyalashtirish jarayonlari nuqtai nazaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega innovatsion loyihalarni farqlash kerak:

- a) investitsion loyihalar, masalan, yangi sanoat ob'ektlari qurilishiga (energetika, transport, aloqa va h.k.) yirik kapital qo'yilmalar;
- b) ilmiy-texnik (innovatsion) – ilg'or texnologiyalar, yangiliklar, mahsulotlar va xizmatlar.

Ushbu ikki xil loyiha o'rtasida muhim farqlar mavjud:

1. Sanoat ob'ektlariga kapital qo'yilmalar haqidagi mavjud moliyaviy axborot, hattoki eng oddiy ilmiy-texnik loyihalarga qaraganda, ayniqsa, ularning erta bosqichlarida, ishonchliroqdir;

2. Innovatsion ilmiy-texnik loyihalar mavhumlikning yuqori darajasiga ega ekanligi bilan farq qilib, ular shunday afzallikka egaki, ular ishlanmaning erta bosqichidayoq katta bo'lmagan moliyaviy yo'qotishlar bilan to'xtatib qo'yilishi mumkin;

3. Ilmiy-texnik loyihalarda axborot investitsiyaviy loyihalarga qaraganda ko'proq cheklanganligi va mos emasligi bilan farq qiladi. Bu esa mustaqil ekspertlarning loyihalarini baholash bo'yicha fikrlarini korrelyatsiyalashni nihoyatda qiyinlashtiradi;

4. Innovatsion loyihalar ko'p mezonlilik va yuqori darajali mavhumlilik bilan farq qilmasdan, balki sifatli baholash bo'yicha ham farqlanadi.

“Loyiha” tushunchasi bilan bir qatorda, “innovatsion dastur” degan tushuncha ham mavjud. Bu tushunchalar o'zaro chambarchas bog'langan. Dastur – bu loyiha shakllaridan biri, dasturlash esa (dasturni shakllantirish) – loyihalar hayot tsikli bosqichlaridan biri bo'lsa-da, ularning xususiyatlari anchagina farqlanadi, dastur qo'shimcha qator yangi xususiyatlarni orttiradi.

16.2. Innovatsion dastur

Innovatsion dastur loyihalarning (multiloyiha va megaloyihalar) murakkab kombinatsiyasi bo'lib, boshqaruv ob'ekti sifatida alohida loyihadan yoki o'zaro bir-biri bilan juda zaif bog'langan, tashkilot yoki uning ijrochilari tomonidan bajariladigan loyihalardan juda kuchli farq qiladi. Dasturni faqat yirik tashkilotlar birlashmasi, masalan, FPG (moliyaviy sanot guruhlar), yirik korporatsiyalar konsortsiumi, mintaqa yoki megapolis, federal organlar va h.k.lar shakllantirishi va amalga oshirishi mumkin. Innovatsion dasturlarni shakllantirish va amalga oshirishga ko'plab misollar mavjud.

Innovatsion loyiha portfelini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

1. Innovatsion loyihalarni dastlabki tanlash.

Bosqichning maqsadi – taqdim etilgan innovatsion loyihalarni umumlashtirilgan tahlildan o'tkazish va baholash. Ushbu bosqich quyidagi odimlarni o'z ichiga oladi:

a) innovatsiyalarni amalga oshirishning tashkilotning asosiy muammolari yechimini taklif eta oladigan asosiy yo'nalishlarini belgilash;

b) ajratib olingan yo'nalishlar bo'yicha ekspertizalar olib borish uchun loyihalarni taqsimlash;

v) ekspertizaning ishchi usulini ishlab chiqish;

g) ekspert guruhlar ishini tashkil qilish (NIO yoki marketing bo'limi boshqa bo'linmalardan mutaxassislarni jalb etgan holda);

d) hisob-kitoblar va ekspertizalar natijalari bo'yicha loyihalarga dastlabki baho berish;

e) istiqboli yo'q loyihalarni chiqarib tashlash.

Mazkur bosqichda loyiha bitta eng muhim mezon (masalan, iqtisodiy samaradorlik mezoni) bo'yicha tanlanadi, bunda baholash parametri past bo'lgan loyihalarni chiqarib tashlashdan iborat oddiy qoidadan foydalaniladi.

2. Ustuvor (boshlang'ich) yo'nalishlar bo'yicha portfelni shakllantirish.

Bosqichning maqsadi – loyihalarni ustuvorliklar bo'yicha puxta tahlil qilish va taqsimlash. Bu yerda quyidagi qadamlar ko'zda tutiladi:

a) innovatsion loyihalarni bir nechta mezonlar (3 – 5ta) bo'yicha tahlil qilish;

b) loyihalarning ustuvorlik darajasini aniqlash;

v) loyihalarni ustuvorlik darajalari bo'yicha taqsimlash.

Barcha loyihalar tegishli shkala bo'yicha, masalan, “past”, “o'rtadan past”, “o'rtadan yuqori”, “yuqori” baho bilan baholanadi.

“O'rtadan yuqori” yoki “yuqori” baho olmagan loyihalar dastlabki tanlov bosqichidayoq chiqarib tashlanadi va rad etilgan deb hisoblanadi.

Qolgan loyihalar ustuvorlik darajasi (sinfi) bo'yicha taqsimlanadi:

a) ustuvor loyihalar – bu umumiy samarasi (natijalar/sarf-xarajatlar) 70 – 80 %dan kam bo'lmaydigan loyihalardir;

b) ustuvor loyihalarning birinchi 20 – 30 %i o'ta ustuvor loyihalar hisoblanadi.

Loyihalarni ustuvorlik bo'yicha ranjirovkalash resurslarni loyihalar o'rtasida taqsimlash uchun kerak.

3. Moliyaviy va boshqa resurslarni innovatsiyalar portfeli ichida taqsimlash.

Bunda “xarajatlar – samaradorlik” sxemasiga asoslangan qaror qabul qilish qoidasidan foydalaniladi: birinchi navbatda, naqd pul mablag'lari iqtisodiy samaradorligi maksimal darajaga (ustuvorlik darajasiga) ega bo'lgan loyihaga ajratiladi.

Jahon amaliyotida “xarajatlar – samaradorlik”ni tahlil qilish barcha moliyani taqsimlash mexanizmlari uchun majburiy jarayondir. Buni shu bilan izohlash mumkinki, ushbu qoidani amaliy qo'llash qanchalik oson bo'lmasin, u quyidagilarga erishish imkonini beradigan loyihalar portfelini ta'minlaydi:

– berilgan cheklangan mablag'lar doirasida maksimal mumkin bo'lgan samaradorlik;

– talab etilgan natija va samaradorlik darajasiga eng minimal sarf-xarajatlar.

Korxonada shunday vaziyat yuzaga kelishi mumkinki, innovatsion loyihalarni amalga oshirishga innovatsion mablag'larning yetarli emasligi to'sqinlik qiladi.

Bunday holda qo'shimcha investorlarni hamda xususiy moliyaviy mablag'larni izlab topish yoki mavjud innovatsion loyihalar portfelini o'zgartirish zarur bo'ladi.

5. Loyihalar portfelini aniqlashtirish – loyihalarning bir qismini o'ziga jalb qilishi ko'proq loyihalar foydasiga hamda investitsion mablag'larning miqdoriga qarab kesib tashlash.

Takrorlash uchun savollar:

1. Innovatsion loyihalarni asosiy maqsadlari nima?
2. Ilmiy-texnik loyiha bilan axborot investitsiyaviy loyihalar orasidagi farqni sharxlab bering.
3. Innovatsion loyihalarni ilmiy-texnik ahamiyati darajasi bo'yicha tasniflang.
4. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish strategiyasini sharxlang.

17-mavzu. Innovatsion sohada kadrlarni boshqarish mexanizmi

17.1. Kadrlarni boshqarish startegiyasining mohiyati va turlari

17.2. Malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi

17.1. Kadrlarni boshqarish startegiyasining mohiyati va turlari

Davlat innovatsion siyosati haqida gapirganda doimo innovatsion iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash haqida yodda tutish lozim. Agar iqtisodiyotning an'anaviy sektorlarida "kadrlar hamma narsani hal qiladi" qoidasi aksariyat holatlarda to'g'ri bo'lib chiqsa, iqtisodiyotning ko'p ilm talab qiladigan sektorlarida ushbu fikrning ahamiyati bir necha marotaba ortadi.

Bilimlarga asoslangan iqtisodiyotda bilim vositalari birinchi darajali, eng muhim aktivlar hisoblanadi. Oqibatda yetarli darajada bilimlarga ega bo'libgina qolmay, ularni amaliyotda qo'llay oladigan, bilimlar eskirib borishi bilan ularni uzluksiz yangilab beradigan malakali mutaxassislar tayyorlash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislar tayyorlash masalalari bilan an'anaviy ravishda oliy o'quv yurtlari (OO'Yu) shug'ullanib keladi. Biroq, so'nggi yillarda xorij tajribasining ko'rsatishicha, OO'Yu bu masalani mintaqaviy va federal hukumatlar, shuningdek, yirik biznes vakillari ko'magida ancha samaraliroq hal etishlari mumkin ekan.

XXI asrda davlatlarning iqtisodiy o'sishi ko'p jihatdan ishlab chiqarishning barcha sohalarini intellektualashtirish va ilmiy-innovatsion taraqqiyot bilan ta'minlanadi. Rivojlangan mamlakatlarda YaIM o'sishining 70%dan 85%igacha yangi texnologiyalar, asbob-uskunalar, yangi bilim yoki yechimlarga ega bo'lgan mahsulotlar ulushiga to'g'ri keladi. Fan-texnika taraqqiyoti (FTT) yutuqlari bizning kunlarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tobora keng va chuqur kirib bormoqda. Innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasidan erishiladigan sinergetik samara vositasida mintaqalar va butun davlat jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tayanch elementiga aylanadi.

Mutaxassislarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni to'g'risida to'xtalar ekanmiz, "Тьюксberi, Krandall va Kreynlar 20 ta eng ko'zga ko'ringan innovatsiyalarning bergan samarasini tekshirishdi va undan xususiy tarzda olingan o'rtacha daromad indeksi 27%ni tashkil qilgan bo'lsa, ijtimoiy bergan samarasi 99% ko'rsatkichga ega bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, 4 barobar ko'proq deganidir"¹ deb ta'kidlashgan.

Milliy dasturining maqsadi yetib belgilandi. Dasturning strategik maqsad va vazifalri bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

¹Innovation economics : the race for global advantage / Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell, USA: Yale University Press, 2012. P 153

Birinchi bosqich -(1997-2000 y.y.,o'tish bosqichi), kadrlar tayyorlash tizimi potensialini saqlab qolish, uning rivojlanishi uchun huquqiy ,me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish Milliy dasturni amalga oshirishning boshlanishi.

Ikkinchi bosqich (2000-2005 y.y.) - Milliy dasturni keng miqyosda amalga oshirish. Tizim faoliyatining samaradorligini, mehnat taqsimotini, ijtimoiy-iqtisodiy voqelikning monitoringi asosida uning asosiy g'oyalari va qoidalariga oydinliklar kiritish.

Uchinchi bosqich (2005 - 2009 y.y.) to'plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida va o'zgarib borayotgan , ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda , uni takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

“Ta’lim to’g’risida”gi qonunga muvofiq ta’lim tizimini boshqarishda o’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vako-latli davlat organlari hamda mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari va huquqdoiralari belgilab qo’yilgan. Umuman, ta’lim muassasalarining davlat boshqaruvi (16-rasm) quyidagicha amalga oshiriladi.

o'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi			
Vakolatli davlat organlari		Mahalliy davlat organlari	
Ta'lim muassasalari			

16-rasm. o'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarining davlat boshqaruvi

17.2. Malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi

1950-1970 yillarda iqtisodiyot strukturasi fan sektorining rivojlanishi jahon maydonida sobiq SSSRning siyosiy va iqtisodiy qudrati o'sishiga eng ko'p xizmat qildi. Statistika tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'rsatilgan davr mobaynida Sovet Ittifoqida ilmiy muassasalar soni 1,5 baravar, fan va fanga xizmat ko'satishda band bo'lganlar soni 4,5 baravar o'sgan. Ilmu-fan xarajatlari qariyb 12 baravar o'sib, 11,7 mlrd. rublga yetgan.

Djordjiya Universiteti texnologiyalar institutining tadqiqotlariga ko'ra, Sovet Ittifoqi 80-yillarning oxiriga kelib sanoati rivojlangan mamlakatlar ichida kadrlar tayyorlash va ilmiy salohiyat miqyosi, malakali mutaxassislar soni ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchilik qilgan, uning jahon ilmu-faniga qo'shgan hissasi eng yuqori bo'lgan. Sovet Ittifoqida ilmiy-ishlab chiqarish komplekslarning tarixiy rivojlanish o'ziga xosliklari tufayli uning joylashtirilishi va moliyalashtirilishi juda katta nomutanosiblik bilan tavsiflangan. Ilmiy tashkilotlarning taxminan 58%i, OO'Yuning 54%i, aspirantlar sonining 69%i, tadqiqot va ishlanmalar bilan shug'ullanuvchilarning qariyb uchdan ikki qismi va bu ishlanmalarga sarflanadigan xarajatlarning to'rtidan uch qismi Rossiyaning ulushiga to'g'ri kelgan.

Bilimlar iqtisodiyoti bilan bog'liq bo'lmagan past texnologiyali ixtisosliklar bo'yicha o'qitishda amaliy qism ko'p hollarda amaldagi ishlab chiqarishda biron-bir loyihalarni bajarish bilan bog'liq bo'ladi. Agar innovatsion loyihalarni boshqarish bilan bog'liq yuqori texnologiyali ixtisosliklar bo'yicha o'qitish bilan o'xshashlik o'tkazadigan bo'lsak, o'qitishning amaliy qismi innovatsion loyihalarni amalga oshirishga bog'lab qo'yilishi lozim.

Hozirgi kunda o'zbekistonda oliy ta'lim muassasalariga innovatsion iqtisodiyot doirasida ye'lon qilingan kadrlar tayyorlash tizimiga xos bo'lgan jihatlarni xarakterlidir. Sxemaning markazi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassislar

tayyorlash jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayonning asosiy qatnashchilari o'quv muassasasi va talabalar hisoblanadi. XIII asrda dastlabki texnik fakultetlar paydo bo'lgan davrlardan boshlab o'ringa ega bo'lib kelgan ta'lim jarayoni an'anaviy modeliga muvofiq o'quv muassasasi va talabalar mavjudligi mos keluvchi predmet sohasida yuqori malakaga ega bo'lgan mutaxassislar chiqarish uchun zarur va yetarli shart hisoblanadi.

Taxminan XX asrning o'rtalariga kelib, ta'lim jarayoni modeliga faol element sifatida ish beruvchilar ham qo'shildi. Bu turdagi faollashuvning eng keskin holati alohida bir tijorat firmasi (korporatsiya) ehtiyojlari uchun maxsus bitiruvchilar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Umumiy holatda ish beruvchilarni faol element sifatida kiritish bitiruvchilar tayyorlashda asosiy e'tiborni u yoki bu mutaxassisliklarga talab yuqoriligiga bog'lab qo'ymasdan yuqori malaka olishdan mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan sohalarda amaliy ko'nikma va yuqori malaka olishga qayta yo'naltirishga imkon berdi.

Oliy o'quv yurtlarining mintaqaviy va mahalliy ijroiya hokimiyati bilan innovatsion iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorligini muhokama qilish 1990-yillarning o'rtalari va 2000-yillarning boshidan boshlandi. Bunday model doirasida hokimiyat strukturalarining vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi: Oo'Yuga talab yuqori bo'lgan ixtisosliklar doirasida mutaxassislar tayyorlash uchun buyurtmalar shakllantirish va mehnat bozorida mos keluvchi ixtisosliklar bitiruvchilariga talabni ta'minlash uchun ish beruvchilarni (birinchi navbatda - kichik va o'rta biznesni) yuqori texnologiyali biznes yo'nalishlarida faoliyat yuritishga rag'batlantirish.

18-mavzu. Innovatsion g'oyalar, ishlamalar va texnologiyalarni amalga oshirishda klaster usullarini qo'llash zaruriyati (4 soat)

Reja:

18. 1. Innovatsion texnologiyalarni amalga oshirishda klaster usullarni qo'llashni ahamiyati.

18. 2. Innovatsion faoliyatni klaster usulida qo'llashda uni davlat tomonidan boshqarish.

18.1. Innovatsion texnologiyalarni amalga oshirishda klaster usullarni qo'llashni ahamiyati

Innovatsion marketing ilmiy-texnik va yangi g'oya, ishlama va texnologiyalarni hamda yaratilgan intellektual mulkni chuqur va har tomonlama o'rganib uning natijalarini zudlik bilan ishlab chiqarishga transfera qilish. Innovatsion marketing resurslari zamonaviy ilmiy-texnik axborotlar hisoblanib, ular iqtisodiy qimmat turadigan iste'mol bozori hisoblanadi. Ularni qidirish, tanish, maqsadga yo'naltirilgan ishlarni rejalashtirish, amalga oshirish va bular orqali o'z biznesini tashkil etish lozim bo'ladi.

Innovatsion marketingni asosiy o'rganadigan yo'nalishlari iqtisodiy, tashkiliy, boshqaruv, sotsial, psixologik, huquqiy faktorlari innovatsion jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi.

- ishlab chiqarish korxonalaridagi innovatsion guruhlarni ishlari tezlik bilan tarqalishi innovatsion texnologik bilimlarni yuksalishiga raqobatbardosh bosimlarni boshqa klaster bo'limlarga o'tib korxonalar faoliyatini yuksalishiga olib keladi;

- yangi bilimlarni va texnologiyalarni tezlik bilan rag'batlantirilishi ishlab chiqarishda bo'limlarni shakllantirishga sababchi bo'ladi;

Oxirgi o'n yilliklar davrida yuqori ishlab chiqarish quvvatlariga ega bo'lgan davlatlarda klaster strategiyalari rivojlanib bormoqda. Bu esa dunyo ilm-faniga yangi g'oyalarni va

ishlamalarni yaratish bo'yicha katta saboq bo'lmoqda. SHuning uchun bugungi kunda ishlab chiqariladigan tovarlarni sifat ko'rsatkichlari darajasini oshirishda zamonaviy yangi nanotexnologiyalar, asbob uskunalar, laboratoriyalar uchun aniqlikni va tezlikni oshirish uchun yangi usullar va priborlar ishlab chiqilgan. Klasterlar asosan yuqori bilim darajasi, talablariga raqobatbardoshlik mezonlariga javob beradigan markazlarda tashkil topmoqda. Hozirgi vaqtda klaster talablari bo'yicha olib borilayotgan ko'p ishlar iqtisodiy tomondan rivojlangan davlatlarda kuzatilmoqda. Klaster asosan yangi g'oyali ilm-fan yutuqlarini har tomonlama mutahassislar ishtirokida tashkil etilishi mumkin bo'lgan texnologiyalar va texnikalar orqali olingan yangi assortimentdagi tovarlarni yoki xizmatlarni zudlik bilan ishlab chiqarishga tadbiiq etilishini ta'minlaydigan va bozor "chuqurligini" yangi talab uchun zarur bo'lgan raqobatbardosh tovarlar bilan ta'minlab maqsadga yo'naltirilgan foydani olishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bunday zamonaviy talablarga javob beradigan ilmiy-tadqiqot ko'rsatkichlari bilan isbotlangan va xalq xo'jaligida ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bunday ishlarni kichik biznes sub'ektlarida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Klaster talablari siyosatini markazida esa har tomonlama o'zaro faoliyatlar bo'yicha bog'lanish orqali qatnashuvchilarni bir-biriga xizmat yuzasidan bo'lgan e'tibori va sadoqati birgalikda bajarilayotgan ishlarni tez va muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi. Klaster sistemasini tashkil etishda kichik va katta ishlab chiqarish korxonalar orasidagi gorizontaal bog'lanish esa bozorda bir guruhga oid tovarlarni zamonaviy talablariga mosligini ta'minlaydi. Zamonaviy klasterlar, odatda bir yo'nalishga yo'naltirilgan bir qancha ishlab chiqarish bo'laklaridagi shu sohaga tegishli bo'lgan firmalarni maqsadga yo'naltirilgan zanjirni bo'laklari hisoblanib doimo ular ma'lum bir mahsulotlar yaratishga ihtisoslashgan bo'ladi.

Zamonaviy fan va texnologiya tobora raqobatli bozor kurashiga jalb qilib borilmoqda. Fundamental bilimlar va ularning yakuniy mahsuli - ilmiy texnik mahsulot — iqtisodiyotning globallashuvi sharoitlarida davlatlarning geosiyosiy manfaatlarini amalga oshirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Aholining turmush farovonligi o'sishi, mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'ati, ta'lim, fan va madaniyatning rivojlanishi, mudofaa qobiliyati bevosita yuqori texnologiyali kompleksni tarkibiy-texnologik qayta tuzishga bog'liq bo'lmoqda. Bu sohada yuqori malakali ilmiy, tadqiqotchi va muxandis kadrlar salohiyati katta rol o'ynaydi.

18.2. Innovatsion faoliyatni klaster usulida qo'llashda uni davlat tomonidan boshqarish

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish haqida yuqorida shakllantirilgan tezis jahon tajribalaridan kelib chiqqan holda mamlakatimizdagi vaziyatda innovatsion o'sish strategiyasini amalga oshirish ustuvor hisoblansada, bir qator sabablarga ko'ra bugungi kunda uni amalga oshirib bo'lmayapti.

SHunday qilib, ta'kidlash mumkinki, xozirgi paytda mamlakatda investitsion faoliyat amalga oshirilayotgan sharoitlar quyidagicha tavsiflanadi:

- qonunchilik tomonidan yaqin, o'rta va uzoq istiqbollarga belgilangan milliy maqsadlar va ularga erishish bo'yicha aniq ifodalangan mexanizmlarning yaratilganligi;
- makroiqtisodiy barqarorlik vazifalariga bo'ysundirilgan davlat strukturalari faoliyati natijalari doim ham texnologik rivojlanish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash maqsadlariga mos kelavermasligi, ayrim xollarda esa unga zid kelishi;

– mamlakatning milliy havfsizligi, iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishi manfaatlarini ta'minlash vositasi sifatida innovatsion faoliyatga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish ehtiyojlarining hozirgi siyosiy darajada aniq ifodalanmaganligi.

Mamlakatning milliy maqsadlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi innovatsion siyosat o'tkazishni quyidagicha ifodalash mumkin:

– milliy havfsizlikni ta'minlash;

– iqtisodiy barqarorlikka erishish, iqtisodiyotning imkoniyatlarini kengaytirish va umumiy quvvatini oshirish;

– sanoatni texnologik qayta jixozlash, jahon bozorida mamlakatimiz tovar va xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish;

– tabiiy resurslarni asrash va ulardan oqilona foydalanish, atrof-muhit muammolarini hal qilish;

– aholining ijtimoiy muammolarini hal qilish, munosib turmush tarzini ta'minlash, sog'liqni saqlash va ta'lim olish uchun imkoniyatlar yaratish;

– oziq-ovqat, xomashyo, material va energiyaga bo'lgan milliy ehtiyojlarni kafolatli ta'minlash.

Boshqa mamlakatlar tajribalaridai kelib chiqqan holda innovatsion jarayonning tarkibiy qismlarini quyidagicha aks ettirish mumkin:

Once diffusion occurs, knowledge levels of agents are updated, and in the next period, process of partner selection is repeated. We look into the types of networks that emerge and the distribution of knowledge among firms, in the parameter space defined by technological opportunities, the characteristics of the population in terms of heterogeneity in cultural attitudes in terms of collectivism and uncertainty avoidance.




Figure 3: Technological opportunities: diffusion and new knowledge creation

3.5 A Summary of the Simulation Model

There are N agents, each of which is endowed with a knowledge vector k , assigned randomly in $t = 0$. The size of the knowledge vector is $K = 100$; in other words, agents can be knowledgeable in 100 different

³⁴Here, we use the time subscript $(t+1)$ because this updated knowledge level will be used in the

knowledge areas. One simulation run lasts 100 ± 10 periods. A total of 5 simulations are run, for each point in the parameter space. Each simulation is a different combination of three parameters. These are:

1. The technological opportunities parameter $\gamma \in [1, 7]$ which determines knowledge regime.
2. The knowledge diversity parameter $v \in [0.1, 0.8]$, which measures the average number of knowledge fields for each agent which is greater than zero. In particular, this parameter is used in assigning the initial values of knowledge fields. Each knowledge field of each agent, is assigned according to the following probability

$P(k_{ik} > 0) = v$

Therefore, a regime with high diversification includes agents who are knowledgeable in a diverse range of fields, thereby it is more likely that two agents will be more similar to each other (i.e. having a high value of $\cos ij$). In this sense, low values of v indicate a population with high knowledge diversity.

3. The cultural diversity parameter α . It determines the characteristic of the whole population, in terms of the homogeneity of cultural variables collectivism and uncertainty avoidance (c_i and U_i). In particular α is determined in the following way:

$$\alpha = (c_{\max} - c_{\min}) + (U_{\max} - U_{\min})$$

where, $[c_{\min}, c_{\max}]$ indicate the bounds of the collectivism parameter in the simulation run, and $[U_{\min}, U_{\max}]$ indicate the bounds of the uncertainty avoidance parameter. The higher is the range between the maximum and minimum values of these parameters, the more heterogeneous the population is, in terms of cultural parameters. In other words, the max and min values set the limits of the collectivism and uncertainty parameters any agent can have in the population. These values are assigned randomly in the beginning of the simulation run, where, for agent i , $c_i \in [c_{\min}, c_{\max}]$ and $U_i \in [U_{\min}, U_{\max}]$. At the same time, a smaller range implies similarity in terms of cultural attributes. In the simulations, the following ranges are used. For a population with minimum cultural diversity: $[c_{\min}, c_{\max}] = [2.9, 3.1]$ and $[U_{\min}, U_{\max}] = [-0.4, -0.5]$. For a population with maximum cultural diversity: $[c_{\min}, c_{\max}] = [1.5, 4.5]$ and $[U_{\min}, U_{\max}] = [-0.05, -0.85]$. Corresponding to these limits, the cultural diversity parameter $\alpha \in [0.3, 3.8]$ ³⁵.

³⁵Limits found by in the following way: $(3.1 - 2.9 + 0.5 - 0.4 = 0.3)$ and $(4.5 - 1.5 + 0.85 - 0.05 = 3.8)$.

**MAVZULAR BO'YICHA TAQDIMOT
SLAYDLARI VA VIDEO ROLIKLAR**

1-мавзу: Инновациялар назарияси: технология ва самарадорлик

1. Инновациялар тўғрисида умумий тушунчалар
2. Инновациялар назарияси
3. Технологиялар кўринишидаги инновациялар ва уларнинг самарадорлиги

1. Инновациялар тўғрисида умумий тушунчалар

- “Инновацион иқтисодиёт” фанини ўқитишдан мақсад – бакалавр талабаларида инновацион жараёнларни бошқарув механизмлари бўйича умумий тушунча ва тасаввурларни шакллантириш, инновацион фикрлаш, маълумотлар оқимини қабул қилиш ва умумлаштириш, шунингдек бошқарув қарорларини қабул қилиш каби зарурий ички ресурсларни ривожлантириш бўйича билимларни шакллантириш ҳисобланади.

Фаннинг вазифаси – ўрганувчида инновацион фаолиятнинг моҳияти, роли, асосий элементлари ва бошқичлари бўйича тизимли тушунчаларни шакллантириш, инновацион жараёнларни бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизми моҳиятини очиқ бериш, интеллектуал мулк объектларини яратиш, ҳуқуқий муҳофазаси ва ҳимоясини таъминлаш, ихтиро, кашфиётлар тизимини ташкил қилиш ва бошқариш соҳасидаги асосий тушунчалар ва таърифларни, Ўзбекистон ва бошқа давлатларнинг инновацион тизими ва шу соҳадаги қонунларни ўргатишдан иборатдир.


2009-2014 йилларда муҳим инвестицион лойиҳаларни амалга ошириш дастури

Саноат тармоқлари	Лойиҳа қиймати, млрд. АҚШ долл.	Тузилиши (лоyiҳанинг умумий қийматидан), %
Нефть-газ сектори	15,3	27,6
Нефть-газ кимё саноати	12,1	21,8
Транспорт ва инфратузилма	7,5	13,5
Энергетика	5,8	10,5
Кимё саноати	5,6	10,1
Тоғ-руда ва металлургия саноати	4,4	7,9
Тўқимачилик саноати	1,9	3,4
Машинасозлик	1,4	2,5
Қурилиш материаллари саноати	0,8	1,4
Бошқа тармоқлар	0,6	1,3
Жами:	55,4	100,0

2. Инновациялар назарияси


- Инновацион фаолият макон ва замонда мавжудлиги, ўз ўрнига эга эканлиги сабабли иқтисодиётнинг муҳим объектларидан бири ҳисобланиши табиий ҳол. Бирок, иқтисодиётга оид адабиётларда инновацион фаолиятнинг мазмун ва моҳияти, уни таснифлаш ва тавсифлаш асослари, ушбу фаолиятга доир маълумотларни ҳисоб ва ҳисоботда реал акс эттирилганлигини текшириш тартиби етарлича очиб берилмаган. Шу боис ҳам инновацион фаолиятнинг иқтисодиёт объекти сифатидаги моҳиятига, уни таснифлаш ва тавсифлаш асосларига батафсил тўхталиб ўтиш зарур.

Инновацияни иқтисодий фаолият сифатида турлари



1.3. Технологиялар кўринишидаги инновациялар ва уларнинг самарадорлиги

- Инновацион фаолият инфратузилмаси - инновацион фаолият субъектларига инновацион фаолиятни амалга ошириш учун зарур бўлган хизматлар кўрсатувчи ташкилотлар жамланмасидир.




2-мавзу. Инновацияларнинг эндоген хусусиятлари

1. Бозор тузилмаси ва унинг янги технологиялар ривожланишига таъсири
2. Эндоген ўсиш назарияси ва капитал жамланиши таъсири
3. Билимлар диффузияси

1. Бозор тузилмаси ва унинг янги технологиялар ривожланишига таъсири

- Инновацион жараён етгита элементни ўз ичига олади, уларнинг умумий бир кетма-кетликдаги занжирга бирлашуви инновацион жараён структурасини ташкил этади




2. Эндоген ўсиш назарияси ва капитал жамланиши таъсири.

- XX асрнинг иккинчи ярми инновацион ривожланиш бўйича ҳайратланарли мисолларни тақдим этди. Жаҳон инновацион майдонида ўзларининг афзалликларини ишга солишга барча диққатини қаратган, ўз миллий, илмий-техникавий ва технологик сиёсатини шаклантирган мамлакатлар рақобатбардош бўлиб чиқдилар.



3. Билимлар диффузияси



Республикада инновацион фаолиятни фаоллаштириш учун қуйидаги ишларни амалга ошириш лозим: олий ўқув юртларида илмий-тадқиқот ишлари билан шуғулланувчи илмий ходимлар тайёрлаш; давлат даражасида стратегик аҳамиятга молик тармоқлардаги инновацион фаолиятни давлат бюджети ҳисобидан молиялаштириш; минтақаларда инновацион фаолият билан шуғулланувчи кичик корхоналар фаолиятини самарали ташкил этиш ва ривожлантириш; инновацион фаолият билан шуғулланувчи ходимларни моддий ва маънавий рағбатлантириш тизимини такомиллаштириш; инновацион фаолият билан шуғулланувчи қўшма корхоналарни ташкил этиш учун тегишли шароитларни яратиш ва улар томонидан яратилган янгиликларни лицензиялаштириш асосида жаҳон бозорига олиб чиқиш.



3- мавзу: Танлов ва саноатнинг ривожланиши

1. Инновацион ва саноат ривожланиши
2. Инновацияларни амалга оширишда танловнинг аҳамияти
3. Инновацион фаолиятнинг бугунги инфратузилмаси

3.1. Инновацион ва саноат ривожланиш.

Давлатнинг инновацион сиёсати - илмий тадқиқотлар, ишланмалар, тажриба-конструкторлик ишлари ёки фан-техника ютуқларидан фойдаланган ҳолда иқтисодий айланмага киритиладиган янги ёки такомиллаштирилган технологик жараён, янги ёки такомиллаштирилган маҳсулот яратиш тушуниладиган инновацион фаолиятни ривожлантириш ва рағбатлантиришга йўналтирилган ижтимоий-иқтисодий сиёсатнинг таркибий қисмидир.

Инновацион сиёсатнинг негизлари мамлакатдаги реал, ижтимоий иқтисодий ва сиёсий вазиятга мос келадиган иқтисодий қонунлар тўпламини қабул қилиш йўли билан асос солинади. Бошқарув объектлари ва субъектлари, уларнинг ҳуқуқлари, мажбуриятлари ва жавобгарликлари айнан уларда белгилаб қўйилган.

3.2. Инновацияларни амалга оширишда танловнинг аҳамияти.

Замонавий жаҳон иқтисодий ривожланишига хос бўлган жиҳат дунёнинг етакчи мамлакатлари постиндустриал жамият шаклланишининг янги bosқичига - асосан билимлар яратиш, тарқатиш ва фойдаланишга асосланган иқтисодиёт яратишга ўтиши ҳисобланади. Ноёб кўникма ва қобилиятлар, уларни доимий равишда ўзгариб турадиган фаолият шароитларига мослаштириш, юқори малака етакчи ишлаб чиқариш ресурсига, шахс ва ташкилотнинг ижтимоий мақоми ва моддий фаровонлигининг асосий омилига айланади.

Ривожланиш даражаси юқори бўлган мамлакатлар, бундан ташқари, АКШ, Анжия, Германия, Францияда амал қилувчи "Силиций" саноатидан шундан айратиб, Ўзбекистонда илмий-техник салоҳиятидан фойдаланиш, чет эллик олимлар ва конструкторларнинг жалб қилини, университетларнинг фуқаролик фаиллари ва фирмаларнинг амалий фаилларини интеграциялашган ҳолда доимий равишда амалга оширишда ва ижтимоий соҳада амалга ошириладиган юқори технологиялар, янги мақсудлар яратишда, янги инновацияларни амалга ошириш рўй беради.

3.3. Инновацион фаолиятнинг бугунги инфратузилмаси

Инновация муносабатларини такомиллаштириш учун инновацион фаолият билан боғлиқ бўлган илмий изланиш жараёни даражаларидан келиб чиққан ҳолда субъектлар ўртасида инновацион муносабатларни ташкил этиш даражасига, инновацион илмий-тадқиқот ва амалий ишларни амалга ошириш учун зарур бўлган ахборот билан инновацион субъектларни таъминлашга ва юқори интеллектуал даражага эга бўлган мутахассисларни жалб этишга, инновацион ишларни амалга ошириш учун зарур бўлган ишлаб чиқариш ресурслари билан таъминлашга, инновация ишларини олиб борувчилар фаолиятларининг самарали бўлишини таъминлаш учун ишлаб чиқариш ва ижтимоий инфратузилмани ривожлантиришга эътиборни кучайтириш зарур.

Давлатнинг инновацион тизим модели



4-мавзу: Корхоналарда инновацион фаолиятни бошқариш

- 4.1. Технологиялар трансфери тўғрисида умумий тушунчалар
- 4.2. Технологиялар консорциумининг инновацияларга таъсири
- 4.3. Жарёнлар бўйича инновациялар

4.1. Технологиялар трансфери тўғрисида умумий тушунчалар

- “Қанчалар қизиқ туюлмасин, Интернет тармоғида оммалашиб бораётган Cloud тизими иктисодиётда ҳам ўз таъсирига эгадир. Бунга мисол сифатида технологиялар консорциумини тузилишини келтириш мумкин. Унга кўра, фирмалар горизонтал йўналишда коалициялар [2] тузишади. Бу коалицияларнинг мақсади биргаликда инновацияларни жорий этиш, жорий этиш бўйича тажриба алмашилиш ва биргаликда инновацион лойиҳаларни молиялаштиришдир. Ушбу ишлар технологик инновацияларни яратишда таннарх пасайига олиб келишини ҳисобга оладиган бўлсак, улар энг самарали ҳамкорликда ишлардан биридир”.

Технологиянинг ривожланиш босқичлари	Технологиялар трансфери босқичлари
Ильмий-тадқиқотчилик ишлари босқичларини бажариш Технологияни амалга ошириш имкониятини текшириш	Далликоғ натижаларини ёшлон қилиш Патент аризалари бериш Анжудай ва куьргазмаларда катнашиш Ильмий-тадқиқотчилик ишлари натижаларига эғалик кукузқини сотиш
Тажриба-конструкторлик ишлари босқичларини бажариш Махсулотнинг синов намунаси Технология прототипи Техник жихатдан амалга ошириш имкониятини тасдиқлаш	Технологияни амалга ошириш учун эгичик корхона ташкил этиш Технологияни сотиш
Технологияни миьрозинга етказиш Бозор намуналари яратиш Синов тарихасидаги сотувлар Сервисни ташкил қилиш Рухсатнома олиш Сертификация	Махсулотни кўпайтириш (эгичик серияда) ва сотиш Фойдаланувчиларни ўргатиш Диллерларни ўргатиш Сервис Технологияни сотиш Корхона ақцияларини сотиш Бизнесни сотиш
Саноат технологияси яратиш Озмавний ишлаб чиқаришнинг ташкил этиш Махсулотни сертификациялаш ва ишлаб чиқариш Диверсификация	Махсулот ва хизматларни сотиш Сервис Технологияни сотиш Корхона ақцияларини сотиш Бизнесни сотиш
Ишлаб чиқаришнинг кенгайтириш Махсулотларни кўпайтириш Ишлаб чиқаришнинг сертификациялаш Ишлаб чиқариш ва махсулотни янгилаш Диверсификация	Махсулот ва хизматлар сотиш Сервис Фойдаланувчиларни ўргатиш Диллерларни ўргатиш Технологияни сотиш Корхона ақцияларини сотиш

4.2. Технологиялар консорциумининг инновацияларга таъсири

- Технологик инновациялар деганда юридик шахснинг технологик янги маҳсулотлар ва жараёнларни, шунингдек маҳсулотлар ва жараёнларда сезиларли даражада такомиллаштиришларни, технологик янги ва сезиларли даражада такомиллаштирилган хизматларни, хизматлар ишлаб чиқарилиши (етказиб берилиши) бўйича янги ёки сезиларли даражада такомиллаштирилган усулларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш билан боғлиқ фаолияти назарда тутилади. Технологик инновациялар юридик шахс томонидан биринчи мартаба ишлаб чиқиладиган маҳсулотлар, жараёнлар, хизматлар ва усуллар шаклида (агар улар бошқа юридик шахслар томонидан қўлланиладиган бўлса ҳам) бўлиши мумкин.

- "Технологик консорциумларнинг 4 тури мавжуд бўлиб, улар:
- Ишлаб чиқариш самарадорлигини коалициялар орқали такомиллаштириш.
- Ўзгармас капиталга инвестициялар киритишдаги харажатларни бўлишиш.
- Технологияларни ортиқчалик самарсини ошириш учун ўзаро бўлишиш.
- Нарх дискриминацияси орқали инновациялар харажатини ўзаро тақсимлаш"

4.3. Жараёнлар бўйича инновациялар

- Жараёнлар бўйича инновациялар технологик янги ёки технологик жиҳатдан сезиларли даражада такомиллаштирилган ишлаб чиқариш, шунингдек маҳсулотларини етказиб бериш усулларини ишлаб чиқиш ёки жорий этишни ўз ичига олади. Бу турдаги инновациялар янги ишлаб чиқариш асбоб-ускуналаридан, ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этишнинг янги усулларидан фойдаланишга ёки уларни биргаликда қўллашга, шунингдек тадқиқот ва ишланмалар натижаларидан фойдаланишга асосланган бўлиши мумкин.

Бундай инновациялар, одатда, ташкилотда илгари мавжуд бўлган маҳсулотларини ишлаб чиқариш ёки етказиб беришнинг самарадорлигини оширишга қаратилган бўлиши, шунингдек одатдаги усуллар ёрдамида амалга ошириш имкони бўлмайдиган технологик жиҳатдан янги ёки такомиллаштирилган маҳсулотларни ишлаб чиқариш ёки етказиб бериш учун мўлжалланган бўлиши мумкин.

5-мавзу. Инновацияларнинг иқтисодий аҳамияти

- 5.1. Корхонанинг инновацион салоҳияти
- 5.2. Инновацияларнинг мамлакат иқтисодиётидаги ўрни



5.1 Корхонанинг инновацион салоҳияти

- Корхонанинг инновацион салоҳияти элементларига қуйидагиларни киритиш мумкин:
- моддий-техник ресурслар;
- моддий ва номоддий активлар;
- молиявий ресурслар;
- ташкилий ресурслар;
- кадрларга оид ресурслар;
- ижтимоий-руҳий омиллар.
- Шундан келиб чиқиб, корхона инновацион жараёнларни ташкил этиш учун ихтиёрида қуйидагиларга эга бўлиши лозим:
- гоё ва ишланмаларни молиялаштириш учун етарли пул маблағлар;
- янги маҳсулотни яратиш ва оммавий равишда ишлаб чиқариш учун тегишли моддий-техника базаси;
- янгиларни амалга ошириш ва уни жорий этиш учун қобилиятли ходимлар;
- ҳар қандай инновацион жараён асосида ётувчи оригинал (расман) гоёларни ишлаб чиқиш имконияти.

5.2. Инновацияларнинг мамлакат иқтисодиётидаги ўрни

- “Инновацияларнинг иқтисодий аҳамиятини мисолларда кўриб чиқиш материални тушунишни янада осонлаштириши шубҳасиздир. Шундай экан, инновацияларнинг турли мамлакатлар, хусусан, Хитой, Тайван, Корея ва Сингапурлар мисолида мамлакат саноатида ва иқтисодиётининг ўсишидаги аҳамияти эътиборга сазовордир. Уларнинг инновацион ривожланиши бошқа Европа мамлакатларига нисбатан анча тез бўлганлиги сабаби шундаки, бу мамлакатлар инновацияларни яратиш учун технологияларни ҳориждан сотиб олиб, ўзлари уни такомиллаштириш устида ишлашган”


	Country	ICI rank	ICI score
<ul style="list-style-type: none"> • “Бомол, инновацион иктисодиёт соҳасининг етакчи олимларидан бирини ма сабабдан бу мамлакатларда фирмалар инновацион ривожланишни айнан кўзлаган МЧЖларни тузишгани тўғрисида батафсил тўхталиб ўтган. У инновациялар сиғими индекси (ИСИ)ни ишлаб чикиб, қуйидагича анализ олиб борган 	Sweden	1	82.2
	USA	2	77.8
	Singapore	6	76.5
	Taiwan	13	72.9
	Japan	15	72.1
	Hong Kong	16	71.3
	South Korea	19	70
	Malaysia	34	57.3
	China	65	49.5
	India	85	45.6
Brazil	87	45.2	

6 – мавзу. Инновацияларнинг соҳалар бўйича турлари

- ▶ 6.1. Хизматлар соҳасидаги инновациялар
- ▶ 6.2. Маркетинг инновациялари
- ▶ 6.3. Нархларни шакллантиришдаги инновациялар
- ▶ 6.4. ташкилий ва бизнесни юритишдаги инновациялар



6.1. Хизматлар соҳасидаги инновациялар



- ▶ "Хизматлар соҳасидаги жараёнлар бўйича инновациялар хизматларни ишлаб чиқариш ва тақдим этишнинг янги ёки сезиларли даражада такомиллаштирилган усулларини ишлаб чиқиш ва жорий этишни ўз ичига олади"

- ▶ Қуйидаги ўзгартиришлар, агар улар янги ёки сезиларли яхшиланган хизматларни, уларни ишлаб чиқариш ва етказиб бериш усулларини жорий этишга бевосита боғлиқ бўлмаса, технологик инновациялар ҳисобланмайди:
 - ташкилий ва бошқариш бўйича ўзгартиришлар (жумладан: бошқаришнинг илғор усуллариغا ўтиш, жиддий ўзгартирилган ташкилий тузилишни жорий этиш, ташкилотнинг иқтисодий стратегиясида янги ёки сезиларли ўзгартирилган йўналишларни амалга ошириш);
 - сифат стандартларини жорий этиш.

6.2. Маркетинг инновациялари

- ▶ Маркетинг инновациялари деганда янги ёки сезиларли яхшиланган маркетинг услубларини жорий этиш тушунилади. Булар ўз ичига: маҳсулотларнинг дизайни ва қадоқланишида жиддий ўзгартиришлар; маҳсулотларни сотиш ва тақдимоти бўйича, шунингдек уларни бозорларга танитиш ва олға силжитиш бўйича янги услублардан фойдаланиш; янги нарх стратегияларини шакллантиришни олади.



6.3. Нархларни шакллантиришдаги инновациялар

- ▶ “Агар маҳсулот ва хизматларнинг функционал ёки фойдаланиш хусусиятлари мавжуд маҳсулот ва хизматларникидан анча яхшиланган бўлса, бу маҳсулотлар бўйича инновациялар ҳисобланади. Маҳсулот дизайнидаги ўзгаришлар эса, агар унинг функционал ёки истеъмол хусусиятлари сезиларли даражада ўзгармаган бўлса, бу маркетинг инновациялари ҳисобланади”



6.4. Ташкилий ва бизнесни юритишдаги инновациялар

- ▶ Ташкилий инновациялар – бу бизнесни юритишда, иш ўринларини ёки ташқи алоқаларни ташкил этишда янги услубларни ишлаб чиқишдир. Бундай инновациялар бошқарув ва трансакцион харажатларни қисқартириш, ташкилот томонидан ишчиларнинг иш ўринлари (иш вақтлари) билан таъминланганлик даражасини ошириш, меҳнат самарадорлигини ошириш, бозорда мавжуд бўлмаган активларга йўл топиш ёки етказиб бериш нархини камайтириш йўли билан ташкилот фаолиятининг самарадорлигини оширишга йўналтирилган бўлади.

7-мавзу. Саноатда инновацион моделлар



- 7.1. Инновацион фаолиятни бошқариш услубиёти.
- 7.2. Инновацион жараённинг чизиқли модели ва уни жорий қилиш шартлари.
- 7.3. Инновацион фаолиятнинг бошқариш қонуниятлари.

7.1. Инновацион фаолиятни бошқариш услубиёти

“Жати Сенгуптанинг инновацион моделлар классификацияси қуйидагича:


Рақобатдош инновацион моделлар

Техник инновациялар ва диффузион моделлар

Курно-Нашнинг ортиқчалик самараси динамик модели

Талабга оид инновацион модель”

7.2. Инновацион жараённинг чизиқли модели ва уни жорий қилиш шартлари



Инновацион иқтисодиётнинг юзага келиш хронологияси



- XX асрнинг иккинчи ярми инновацион ривожланиш бўйича ҳайратланарли мисолларни тақдим этди. Жаҳон инновацион майдонида ўзларининг афзалликларини ишга солишга барча диққатини қаратган, ўз миллий, илмий-техникавий ва технологик сиёсатини шакллантирган мамлакатлар рақобатбардош бўлиб чиқдилар.

7.3. Инновацион фаолиятнинг бошқариш қонунияти

- Инновацион фаолиятнинг назарий асослари иқтисодчи олимлар томонидан атрофлича тадқиқ этилган. Хусусан, Австриялик олим Й.Шумпетер инновацион ўзгаришларни беш йўналишга бўлган: янги техника ва технологик жараёнлар ёки ишлаб чиқаришни янги бозор асосида таъминлаш; янги хусусиятларга эга бўлган маҳсулот турларини яратиш; янги хом-ашёлардан фойдаланиш; ишлаб чиқаришни ташкил этишни такомиллаштириш ва янги инновацион товарлар билан таъминлаш; янги истеъмол бозорларини очиш



8-МАВЗУ. ИЛМИЙ ТЕХНИКА ТАРАҚҚИЁТИ ВА УНИ БОШҚАРИШ

- 8.1. Илмий техника тараққиётини бошқаришнинг давлат сиёсати, моҳияти ва унинг бош мақсади.
- 8.2. Илмий техника тараққиётини бошқаришнинг ҳуқуқий асослари ва **инновацион сиёсат йўналишлари.**
- 8.3. Илмий-тадқиқот ва инновацион фаолиятни бошқариш механизми.
- 8.4. Халқаро илмий тадқиқот ишлари ва уларнинг ҳуқуқий муҳофазаси.

8.1. ИЛМИЙ ТЕХНИКА ТАРАҚИЁТИНИ БОШҚАРИШНИНГ ДАВЛАТ СИЁСАТИ, МОҲИЯТИ ВА УНИНГ БОШ МАҚСАДИ

- Замонавий шароитларда инновацион фаолиятни меъёрий-ҳуқуқий тартибга солиш қуйидагиларни таъминлаш лозим бўлган қонунлар ва меъёрий ҳужжатлар ишлаб чиқиш ва жорий қилишни назарда тутати:
- 1) инновацион фаолият маҳсулотларини сотишдан олинган фойда ва маблағларнинг бу улусини имтиёзли солиққа тортиш ҳисобига давлат, жамоат ташкилотлари, корхоналар ва хусусий шахслар ўз даромадларининг сезиларли қисмини инновацион фаолиятга киритишдан манфаатдорлиги;
- 2) кооперация бўйича барча ҳамкорлар ва қатнашчиларнинг инновацион ғояни товар қўринишигача етказиш ва солиқ тўловларини камайтириш ёки солиқлардан озод қилиш ҳисобига уларни бозорда тижорат асосида сотиш;
- 3) инновацион фаолият қатнашчиларининг кафолатланган ва имтиёзли кредит олиш имконияти;
- 4) илмий жамоаларнинг ҳам, алоҳида олимлар ва мутахассисларнинг ҳам интеллектуал мулк ҳуқуқлари ҳимоя қилинишини таъминлаш;
- 5) инновацион жараён қатнашчилари ва ижрочиларининг ҳам, бу жараёнларни молиялаштирувчи инвесторларнинг ҳам суғурта ҳимояси ва умумэтироф этилган ижтимоий мақомини таъминлаш.

8.2. ИЛМИЙ ТЕХНИКА ТАРАҚЎЎТИНИ БОШҚАРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ВА ИННОВАЦИОН СИЁСАТ ЙЎНАЛИШЛАРИ

- “Кўчириб ўтказиш” стратегияси мавжуд хорижий илмий-техника салоҳиятидан фойдаланиш ва янгиликлар киритишни ўз иқтисодиётига кўчириб ўтказишдан иборат”. Бу стратегия биринчи навбатда, Японияда иккинчи жаҳон урушидан кейинги йилларда фойдаланилган, АҚШ, Англия, Франция, Россия каби ривожланган мамлакатларда хорижда талаб юқори бўлган янги маҳсулотлар ишлаб чиқаришни ўзлаштириш учун юқори самарали технология лицензиялар харид қилинган, келгусида фундаметал тадқиқотлар ва лойиҳалардан тортиб то инновацияларни жорий қилиш, уларни мамлакат ичкарасида ва жаҳон бозорида амалга оширишгача бўлган бутун инновацион циклни таъминлаган ўзининг илмий-техник ва илмий-исломий салоҳияти яратилган.


○ 55

8.3. ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ БОШҚАРИШ МЕХАНИЗМИ

- “Ўзлаштириш” стратегияси шундан иборатки, арзон ишчи кучига таянган ўзининг йўқотилаётган илмий-техник салоҳияти бир қисмидан фойдаланган ҳолда илгари саноати ривожланган мамлакатларда ишлаб чиқарилган маҳсулотни ишлаб чиқариш ўзлаштирилади, келгусида ишлаб чиқаришга муҳандислик-техник ҳамкорлик қилиш ҳамда иқтисодиётнинг давлат ва бозор шакллари уйғунлаштирган ҳолда инновацион фаолиятни кучайтиришни таъминлаш, ўзининг илмий-тадқиқотчилик ва тажриба-конструкторлик ишларини ўтказишга қодир бўлган илмий-техник салоҳият тикланади”

8.4. ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ ИШЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ МУҲОФАЗАСИ.

- Халқаро илмий тадқиқотлар БМТ ва бошқа ташкилотлар томонидан қўллаб қувватланади ва назорат комиссияси тузилади.



9- мавзу: Интеллектуал капитал, интеллектуал мулкни шакллантириш ва бошқариш

- 9.1. “Муаллифлик ҳуқуқи ва турдош ҳуқуқлар” тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Қонуни.
- 9.2. Ўзбекистон Республикасининг муаллифлик ҳуқуқини ҳимоя қилишга қаратилган халқаро шартномаларининг ҳуқуқий табиати.
- 9.3. Патент ҳуқуқининг ривожланиш тарихи.
- 9.4. Муҳофаза ҳужжатларининг турлари. Муҳофаза муддатлари

9.1. “Муаллифлик ҳуқуқи ва турдош ҳуқуқлар”
тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Қонуни.

Мустақилликнинг дастлабки
йилларида интеллектуал мулкни
муҳофаза қилишга қаратилган саноат
намуналари ҳуқуқий муҳофазаси
билан боғлиқ қонунлар қабул қилинган
бўлса, кейинчалик муаллифлик ҳуқуқи
ва турдош ҳуқуқлар тўғрисидаги янги
қонунчиликка асос солинди.


9.2. Ўзбекистон Республикасининг муаллифлик
ҳуқуқини ҳимоя қилишга қаратилган халқаро
шартномаларининг ҳуқуқий табиати.

Ўзбекистон Республикасининг
муаллифлик ҳуқуқига оид икки
томонлама ва кўп томонлама
халқаро-ҳуқуқий актлари
миллий қонунчиликни
ривожлантириш ва уни янада
такомиллаштириш учун
халқаро-ҳуқуқий манба бўлади.

Мустақилликнинг дастлабки кунлариданок республикамиз муаллифлик ҳуқуқини халқаро доирада ҳимоя қилишга эътиборини қаратди. Хусусан, 1993 йил 24 сентябрда Ўзбекистон муаллифлик ҳуқуқини биргаликда муҳофаза қилишга қаратилган халқаро-ҳуқуқий фаолиятини кенгайтириш мақсадида МДХ “Муаллифлик ҳуқуқини биргаликда ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Москва Битимини имзолади. Москва Битими республикамизнинг муаллифлик ҳуқуқини халқаро доирада биргаликда муҳофаза қилишга қаратилган дастлабки ҳудудал халқаро-ҳуқуқий акти ҳисобланади.

9.3. Патент ҳуқуқининг ривожланиш тарихи.

- **Патент ҳуқуқи.** У дастлаб феодализмнинг сўнги даврларида феодал жамият негизида хўжалик юритишнинг капиталистик усули вужудга келиб, ривожлана бошлаши билан юзага келди. Патент ҳуқуқи – ишлаб чиқаришнинг капиталистик усули устун келиши ва ҳокимиятнинг буржуазия йўлига ўтиши натижасида шаклланди.



9.4. Муҳофаза ҳужжатларининг турлари. Муҳофаза муддатлари

Ўзбекистонда интеллектуал мулк ҳуқуқларини муҳофазалаш билан боғлиқ масалаларни тартибга солувчи қуйидаги қонунлар амал қилади:

1996-йил 30-августда қабул қилинган “Муаллифлик ҳуқуқлари ва турдош ҳуқуқлар тўғрисида”ги қонун;

1994-йил 6-майда қабул қилинган ва 1997-йил 26-декабрда ўзгартирилган “Ихтиролар, фойдали моделлар ва саноат намуналари тўғрисида”ги қонун;

1993-йил 7-майда қабул қилинган ва 1997-йил 26-декабрда ўзгартирилган “Товар белгилари ва хизмат кўрсатиш белгилари тўғрисида”ги қонун;

1994-йил 6-майда қабул қилинган “ЕХМ ва маълумотлар базалари учун дастурларни ҳуқуқий муҳофазалаш тўғрисида”ги қонун;

1996-йил 30-августда қабул қилинган “Селекция ютуқлари тўғрисида”ги қонун;

2001-йил 12-майда қабул қилинган “Интеграл микрочизмалар топологиясини ҳуқуқий муҳофазалаш тўғрисида”ги қонунлардир.


10- мавзу: Ўзбекистоннинг миллий инновацион тизими

1. Ўзбекистон миллий инновацион тизими ва унинг аҳамияти
2. Фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграцияси.
3. Ўзбекистоннинг жаҳон бозоридаги фан сифими юқори маҳсулотлардаги роли ва ўрни.
4. Давлат илмий техник дастури ва уни бажарилишини мувофиқлаштириш ва мониторинг тизими.

10.1. Ўзбекистон миллий инновацион тизими ва унинг аҳамияти.

Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримов таъкидлаганидек “Ўзбекистон инновацион ривожланиш турининг ҳозирги замон моделига ўтиш учун ҳамма зарур шароитларга эга. Бу модел вужудга келтирилган илмий-техникавий салоҳиятдан кенг ва самарали фойдаланишга, фундаментал ва амалий кенг жорий этишга, юқори малакали, иқтидорли илмий кадрлар сонини кўпайтиришга асосланади”

Инновацион ўзгаришлар амал қилиш майдонига кўра инсон фаолиятининг барча соҳалари ва жамиятнинг ҳар бир жабҳасини камраб олади. Бошланғич, энг кўп ўрганилган технологик инновациялар куйидагилар ҳисобланади: ишлаб чиқариш янги технологик усулининг шаклланиши асосида ётувчи инновациялар; технологик укладлар ва техника (технология) авлодларини ўзгартиришга турки бўлувчи базис инновациялар; янги техника моделлари ва технология модификациялари ёрдамида янги бозорларни ўзлаштиришга хизмат қилувчи яхшиловчи инновациялар.



10.3. Ўзбекистоннинг жаҳон бозоридаги фан сиғими юқори маҳсулотлардаги роли ва ўрни.

Бугунги кунда жамият шу даражада тараққий этиб кетдики, унда ўз ўрнига эга бўлишни истаган ҳар қандай мамлакат ёки компания рақобатга киришмоғи шарт бўлиб қолди. Ривожланган мамлакатларда ёхуд дунё саҳнида айнан мана шундай рақобатбардош компанияларгина ўз ҳаётлари давомийлигини сақлаб қолиши мумкин. Шундай компаниялар ҳам борки, улар инсоният тамаддунидан 20-30 йил илгари юришади. Албатта бундай илдамликка эришда инновацион технологияларнинг ўрни ниҳоятда муҳимдир. Чунки тўйинган бозор иқтисодиёти шароитида корхоналар ўз ўрниларини янги инновацияларни киритиш билан топишлари мумкин.

Барқарор ривожланиш муаммосини тадқиқ этиш унинг стратегияси илмий асосларни фақат атроф-муҳитни барқарорлаштириш ва биологик регуляция назарияси нуқтаи-назаридан олади. Бироқ бу стратегияни амалга ошириш учун қийинроқ, чунки у инсониятнинг бундан олдинги тўпланган барча тажрибалари ва фикрлаш қолипларига энг кўп қаршилик кўрсатади. Уни амалга ошириш учун неосфера ёндашувини атроф-муҳитни барқарорлаштириш ва биологик регуляция назарияси билан бирлаштириш зарур. Бу иккала методологик ёндашув мамлакатимизда илмий асосланган барқарор ривожланиш стратегиясини яратиш учун илмий асос бўла олади. Бу эса барқарор ривожланиш концепциясини янада такомиллаштиришда муҳим аҳамият касб этади.

10.4. Ўзбекистон Республикасида технологик ва социогенетик инновациялар.

Технологик инновациялар табиат кучларидан фойдаланиш ва атроф-муҳитга кўрсатилувчи зарарли таъсирни камайтиришнинг янада самаралироқ усули бўлган иқтисодий инновациялар ҳамда ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва бошқариш, ишлаб чиқарилган маҳсулотлар муомаласи, нарх, молия-кредит, пул механизмлари шаклларини ўзгартиришга олиб келувчи ва такрор ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишга хизмат қилувчи иқтисодий инновацияларнинг асоси бўлиб хизмат қилади.

Келажакни олдиндан кўра билиш, стратегияни ишлаб чиқиш бу - мустакил касб бўлиб. стратегик фикрлашни, турли фанлар бўйича тайёргарлик кўришни ва чуқур илмий ва амалий билимларга эга бўлиш талаб қилинади. Бундай мутахассислар тайёрлаш ҳамда иқтисодчи ва муҳандис кадрлар учун махсус фанлар ўқитишни қайта тиклаш ва буни янги, бозор иқтисодиёти талабларига жавоб берувчи асосларда бажариш лозим. Бу инновацион ўсиш стратегиясини муваффақиятли амалга оширишнинг зарур шартидир.

Муаллифлик ҳуқуқи ва
турдош ҳуқуқлар тўғрисида
Ўзбекистон Республикасининг
Қонуни 1996-йил 30 август
(Ўзбекистон Республикаси
Олий Мажлисининг
Ахборотномаси, 1996-йил,
135-модда) қабул қилинган.

11-мавзу: Инновацион маркетингда товар ва хизматларни стратегик йўналишлари

1. Ўзбекистон Республикасида замонавий инновацион маркетинг стратегиялари.
2. Инновацион маркетингда инновацион стратегияларнинг аҳамияти.


11.1. Ўзбекистон Республикасида замонавий инновацион маркетинг стратегиялари.



Ўзбекистон Республикасида ўтказилган Республика “Инновацион ғоялар, ишламалар ва технологиялар”, “Саноат ярмаркаси ва кооперацион биржалар ярмаркаси” да тақдим этилган илмий-текшириш ишламалари ва технологиялари, қўшма корхоналарда ишлаб чиқарилган товар ва хизматларни сифат кўрсаткичлари халқаро ИСО/МЭК стандарт талабларига мослиги ва Ўзбекистонда локализация фидинган импорт ўрнини босувчи ва экспортга йўналтирилган кўплаб товарлар ишлаб чиқарилмоқда.

Замонавий маркетинг стратегияси куйидаги ҳолатларни кўрсатиб беради:

- 1) янги неъмат тайёрлаш;
- 2) ишлаб чиқаришнинг янги усулини жорий қилиш;
- 3) янги сотув бозорини ўзлаштириш;
- 4) хомашё ёки ярим тайёр маҳсулотлар янги манбасига эга бўлиш;



Ресурслар муаммосининг узил-кесил ҳал этилиши интенсификациянинг иккинчи босқичи билан боғлиқ бўлиб, уни инновацион ўсишга ўтиш сифатида тавсифлаш мумкин. Бундай ўсишнинг ўзига хос жиҳатлари бу — технологияларнинг тубдан ўзгариши, ишлаб чиқариш ва ноишлаб чиқариш истеъмолининг кескин ўзгариши, анъанавий материаллар ва энергия манбаларининг бошқа материал ва манбаларга алмашуви, ўсиб бораётган агросаноат соҳасининг табиатдан ажралиши ва ҳоказолардир.

11.2. Инновацион маркетингда инновацион стратегияларнинг аҳамияти.

Маркетингда инновацион ўсиш стратегия ва инновацион ривожланишининг узок муддатли башоратлари республикамизда ва собиқ СССР республикаларида чуқур ўзгаришларнинг янги боскичига мослаштирилган олдиндан кўра билиш назарияси ва истиқболли режалаштириш методологияси ётади. Биз ушбу назария ва методология асосида Ўзбекистон Республикасини яқин ва узок ўсиш стратегиясини танлашни асослаб асосий инновацион ривожланиш йўналишлари ва бундан келиб чиқувчи таркибий ўзгаришларни таҳлил қилиб кўрмоқчимиз.

Ўтиш даврида ижтимоий ва технологик тизимлар траекторияси кескин ўзгаради. Уларнинг айримлари ўтмишда қолиб кетиб, уларнинг ўрнига янгилари пайдо бўлади ва жаҳон миқёсида кенг тарқалади. Бу даврда олдиндан кўра билишнинг қийинлиги анъанавий инқилобий парадокс — эълон қилинган мақсадлар ва амалда эришилган натижалар ўтасидаги фарқлар билан ҳам изоҳланади.

12-мавзу: Илмий кашфиётлар, ихтиролар ва лицензиялаш

1. “Ихтиролар, фойдали моделлар ва соноат намуналари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни.
2. Илмий кашфиётлар. Кашфиёт объектлари. Кашфиётни аниқлаш тартиблари.
3. “ЭҲМ учун яратилган дастурлар ва маълумотлар базаларини ҳуқуқий муҳофаза қилиш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Қонуни.
4. ЭҲМ учун дастурлар. ЭҲМ маълумотлар базалари. Муаллифлик ҳуқуқининг бузилиши. Дастурлар ёки маълумотлар базаларини рўйхатга олиш учун талабнома.
5. Қонунчиликда муаллифлар мулкӣ ҳуқуқларининг мустаҳкамланиши.

12.1. “Ихтиролар, фойдали моделлар ва соноат намуналари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни.

Ўзбекистон Республикасининг
“Ихтиролар, фойдали
моделлар ва соноат
намуналари тўғрисида”ги
Қонуни 06.05.1994-йилда
қабул қилинган ва мазкур
қонунга 30.07.2008 да
ўзгартириш киритилган.

- Ушбу Қонуннинг асосий мақсади Ўзбекистон Республикасидаги ихтиролар, фойдали моделлар ва саноат намуналарини ҳуқуқий муҳофаза қилиш ҳамда улардан фойдаланиш соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат. Саноат мулки объектлари тўғрисидаги қонун ҳужжатлари ва бошқа ҳужжатлардан иборат. Ўзбекистон Республикаси Давлат патент идораси саноат мулки объектларини ҳуқуқий муҳофаза қилиш соҳасидаги давлат сиёсатининг амалга оширилишини таъминлайди.

12.2. Илмий кашфиётлар. Кашфиёт объектлари. Кашфиётни аниқлаш тартиблари.

- Кашфиёт деб билим даражасига тубдан ўзгартириш олиб кирадиган илгари номаълум бўлган, аммо объектив мавжуд моддий нуқтанинг ҳодиса, хосса ва қонуниятларини тушунтириб берувчи таълимотга айтилади.

Кашфиётни аниқлаш боскичлари	Амалга ошириладиган ишлар
1-боскич	Асос қидирув тадқиқотни илмий-амалий инженерлик тадқиқотдан ажратиш лозим. Тадқиқотнинг объекти табиий ёки техник бўлиши мумкин ва уни тартибли амалга ошириш керак.
2-боскич	Кашфиёт предмети ҳодиса, хосса, қонунийликни олдиндан белгилаш.
3-боскич	Кашфиёт шаклига мувофиқ кашфиёт предмети қатъий шакллантирилади.
4-боскич	Бунда илмий қондалар жамоатчилик томонидан муҳокама қилинади.

- Халқаро патент таснифининг мақсади ахборотни тезда қидириб топиш ва ишлов бериш имкониятини таъминлаш учун патент ҳужжатларини тизимлаштириш (тартибга солиш) тизимини яратишдан иборат. Қбул қилинган таснифлаш тизими асосида патент фондларида патент ҳужжатлари индексастияланади ва жой-жойига қўйилади, маълумотлар базаларида ахборот қидирилади ва ҳоказо.

12.3. “ЭҲМ учун яратилган дастурлар ва маълумотлар базаларини ҳуқуқий муҳофаза қилиш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Қонуни.

- Ўзбекистон Республикасининг “Электрон ҳисоблаш машиналари учун яратилган дастур ва маълумотлар базаларининг ҳуқуқий ҳимояси тўғрисида”ги Қонуни 06.05.1994-йилда қабул қилинган ва 05.04.2002 ва 30.08.2002-йилларда ўзгартиришлар киритилган.

Ушбу Қонун ЭҲМ учун дастур ва маълумотлар базаларини яратиш, уларнинг ҳуқуқий ҳимояси ва улардан фойдаланиш билан боғлиқ муносабатларни Ўзбекистон Республикасида тартибга солади.

12.4. “ЭХМ учун яратилган дастурлар ва маълумотлар базаларини ҳуқуқий муҳофаза қилиш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Қонуни

Кашфиётни аниқлаш босқичлари	Амалга ошириладиган ишлар
1-босқич	Асос қидирув тадқиқотни илмий-амалий инженерлик тадқиқотдан ажратиш лозим. Тадқиқотнинг объекти табиий ёки техник бўлиши мумкин ва уни тартибли амалга ошириш керак.
2-босқич	Кашфиёт предмети ҳодиса, хосса, қонунийликни олдиндан белгилаш.
3-босқич	Кашфиёт шаклига мувофиқ кашфиёт предмети қатъий шакллантирилади.
4-босқич	Бунда илмий қоидалар жамоатчилик томонидан

12.5. ЭХМ учун дастурлар. ЭХМ маълумотлар базалари. Муаллифлик ҳуқуқининг бузилиши. Дастурлар ёки маълумотлар базаларини рўйхатга олиш учун талабнома

- Ҳар қандай ЭХМни икки қисмга бўлиш мумкин:
 1. Аппарат-техник (hardware)
 2. Дастурий таъминот (software).
- Дастурий таъминот ёки ЭХМ учун дастур бу ЭХМ, унинг тармоқлари ва бошқа компьютер воситаларининг муайян натижалар олиш мақсадида ишлаш учун мўлжалланган маълумотлар ва буйруқлар мажмуидир.

12.6. Қонунчиликда муаллифлар мулкый ҳуқуқларининг мустаҳкамланиши

- Айрим олимлар муаллифлик ҳуқуқларини шахсий ва мулкый ҳуқуқларга ажратилиш зарурати ва имкониятларини тан олишмаса, баъзилари муаллиф ҳуқуқларининг бундай ажратилишини шартлиги, баъзилари эса ҳуқуқларни бундай туркумлашни нисбий эканлигини таъкидлашади, яна бир гуруҳ мутахассислар муаллиф шахсий ҳуқуқларини интеллектуал ҳуқуқлар жумласига киритишади.



13-мавзу. Патентлар ва патент ахборотларини излаш


- 13.1. Патент, лицензия ва сертификат олиш учун патент бюросига ариза бериш.
- 13.2. Чет елда патентлаш. Лицензион шартнома хақида тушунча.

13. 1. Патент, лицензия ва сертификат
олиш учун патент бюросига ариза
бериш.

Патентлаш – Ўзбекистон
Республикаси ташкилотлари,
корхоналари, айрим фуқароларининг
чел ел патентлари ва бошқа тегишли
муҳофаза ҳужжатларини ихтиролар,
фойдали моделлар, саноат
намуналарига олиш мақсадида,
шунингдек товар белгиларини амалга
ошириладиган барча ишлар мажмуи.

Патентлаштирувчи ташкилот
патент бериш учун талабнома
материаллари, ихтиро учун
бошқа муҳофаза ҳужжатларини
тайёрлашни таъминлайди ва
мазкур саноат мулклари бўйича
ҳуқуқий муҳофазага тааллуқли
кейинги ишларни амалга
оширади.

13. 2. Чет елда патентлаш. Лицензион шартнома хақида тушунча.




- Лицензион шартнома – лицензиар ва лицензиат ўртасидаги содир этилаётган савдо битими бўйича ҳуқуқ ва мажбуриятларини тартибга солувчи технологик билимларни бериш ва ўзлаштириш хусусидаги ўзига хос савдо муносабатларини ифодалашнинг ҳуқуқий шакли. Шунинг учун лицензион шартнома тузишда битим шартномасига қатъий амал қилиш лозим. Ўзбекистон Республикаси мажбуриятини бажармаган томон, иккинчи томон олдида жавобгар бўлади. Бундай хил битимларда кенг фойдаланиладиган масъулият шакли бўлиб, етказилган зарарни тўридан-тўри тўлаши шарт.

14-Мавзу: Саноат намуналари, бренд ва селекция ютуқлари инновацион ривожланишнинг бошқарув объекти сифатида


1. Саноат намуналари. Саноат намунасининг патентга лаёқатлилик шартлари.
2. Саноат товар белгиларининг турлари ва уларга талабнома тузиш
3. Селекция ютуқлари. Ўсимлик турлари ва навлари, ҳайвон зотлари ва уларга қўйиладиган талаблар.
4. Ўзбекистон Республикасини “Селекция ютуқлари тўғрисида”ги Қонун ва унинг аҳамияти.

14. 1. Саноат намуналари. Саноат намунасининг патентга лаёқатлилик шартлари.

Саноат намунаси инсон ижодий фаолияти йўналишининг амалга ошиши бўлиб, аниқ мақсад ва истемолчилар доирасига эга. Таърифга кўра саноат намуналарига қандайдир бир объект ташқи кўринишининг бадий-конструкторлик (дизайн) ечими киради. Саноат намуналари ҳажмий (моделлар), ясси (расмлар) ёки уларнинг аралаш кўринишида бўлиши мумкин.



14. 2. Саноат товар белгиларининг турлари ва уларга талабнома тузиш



Қонунга мувофиқ қўйидаги белгилар товар белгиси сифатида рўйхатга олинishi мумкин:

сўзлар ёки ҳарфлар бирикмасидан иборат бўлган сўз билан ифодаланадиган белгилар;


тасвирий белгилар—линиялар композицияси, исталган шаклдаги фигураларнинг текисликдаги сояси шаклидаги;

ҳажмий белгилар – уч ўлчамли фазодаги фигуралар (линиялар) ёки уларнинг композицияси шаклидаги;

аралаш-тасвирий, сўзли, ҳажмий ҳарактердаги элементларнинг комбинациясидан иборат ва хоказо.

14. 3. Селекция ютуқлари. Ўсимлик турлари ва навлари, ҳайвон зотлари ва уларга қўйиладиган талаблар.

Ўсимликларнинг янги навлари ва ҳайвонларнинг янги зотлари селекция ютуқларига киради. Бунда нав ва зотлар маълум нав ва зотлардан аниқ фарқлари билан ажралиб туриши, етарли даражада бир хил ва барқарор бўлиши зарур.



Ўсимлик нави наслдан-наслга барқарор равишда ўтадиган белгилари билан ажралиб турадиган ўсимликлар гуруҳидир. Бундай белгилар ўсимлик генотиби ёки генотиплар комбинациясини тавсифлаб бериши, бунда ўсимликлар гуруҳи айнан шу ботаник саксонга мансуб бошқа ўсимликлар гуруҳидан бир ёки бир неча белгилари билан ажралиб туриши зарур. Янги нав сифатида битта ёки бир нечта ўсимликни тақдим этиш мумкин, фақат бундай қисм ёки қисмлардан навнинг бутун бир ўсимликларини кўпайтириш мумкин бўлсин. Навнинг муҳофаза қилинадиган объектлари клон, линия, биринчи авлод, дурагай ва популяцияларидир.

14.4. Ўзбекистон Республикасини “Селекция ютуқлари тўғрисида”ги Қонун ва унинг аҳамияти.

Ўзбекистон Республикасининг
“Селекция ютуқлари тўғрисида”ги
қонуни 30.08.1996-йилда қабул
қилинган. Ушбу Қонуннинг мақсади
селекция ютуқларини яратиш, ҳуқуқий
муҳофаза қилиш ва улардан
фойдаланиш соҳасидаги
муносабатларни тартибга солишдан
иборат.

15-мавзу: Инновацион иқтисодиётда менежмент стратегиялари

- 15.1. Замонавий инновацион стратегиялар ва инновациялар маркетинги
- 15.2. Инновацион маркетингни шакллантиришнинг концептуал асослари.
- 15.3. Илмий тадқиқот, ишланма ва технологияларни натижаларини тижоратлашуви стратегиясини ишлаб чиқишда мақсадли бозор таҳлили.
- 15.4. Янги маҳсулот ва технологияларни бозорга кириш стратегияси.
- 15.5. Юқори технологик маҳсулотларнинг маркетинг хусусиятлари.


15.1. Замонавий инновацион стратегиялар ва инновациялар маркетинги

Ўзбекистон Республикасида ўтказилган Республика “Инновацион ғоялар, ишламалар ва технологиялар”, “Саноат ярмаркаси ва кооперацион биржалар ярмаркаси” да тақдим этилган илмий-текшириш ишламалари ва технологиялари, қўшма корхоналарда ишлаб чиқарилган товар ва хизматларни сифат кўрсаткичлари халқаро ISO/МЕК стандарт талабларига мослиги ва Ўзбекистонда локализация қилинган импорт ўрнини босувчи ва экспортга йўналтирилган кўплаб товарлар ишлаб чиқарилмоқда.

Замонавий маркетинг стратегияси қуйидаги беш ҳолатни кўрсатиб беради:

- 1) янги неъмат тайёрлаш;
- 2) ишлаб чиқаришнинг янги усулини жорий қилиш;
- 3) янги сотув бозорини ўзлаштириш;
- 4) хомашё ёки ярим тайёр маҳсулотлар янги манбасига эга бўлиш;
- 5) соҳа бўйича доимо янгиликни излаш.

15.2. Инновацион маркетингни шакллантиришнинг концептуал асослари.



Инсониятни XXI асрнинг ўзгаришлар ҳамда даврга хос ва базис инновациялар рўй берувчи биринчи ярмида кутиб турган ҳолатларнинг айрим умумий кўринишлари шулар бўлиб, буни тўри тушуниш мамлакатимизнинг бу ўзгаришлардаги роли ва имкониятларини аниқлаб олиш учун замин бўлиб хизмат қилади.

15.3. Илмий тадқиқот, ишланма ва технологияларни натижаларини тижоратлашуви стратегиясини ишлаб чиқишда мақсадли бозор таҳлили.

XXI аср дастлабки кунлариданок дунё ривожланишининг барча жабҳаларида - иқтисодиёт, сиёсат, ижтимоий жараёнлар, демография, геосиёсий ва геоиқтисодий жараёнлар янги сифат ўзгаришларидан дарак бермоқда. Яқин ўтмишда етарлича барқарор ва мувозанатли бўлган бу жараёнлар дуч келаётган ўзгаришлар гирдобидан ортидан замонавий фан вақти келганда улгурмай ҳам қолмоқда.

Замонавий фан ва технология тобора рақобатли бозор курашига жалб қилиб борилмоқда. Фундаментал билимлар ва уламинг яқуний маҳсули - илмий-техник маҳсулот - иқтисодиётнинг глобаллашуви шароитларида давлатларнинг геосиёсий манфаатларини амалга оширишнинг муҳим омилига айланмоқда.

Аҳолининг турмуш фаровонлиги ўсиши, мамлакатнинг иқтисодий ўсиш суръати, таълим, фан ва маданиятнинг ривожланиши, муҳофаза қилиниши бевосита юқори технологияли комплексни таркибий-технологик қайта тузишга боғлиқ. Бу соҳада юқори малакали илмий, тадқиқотчи ва муҳандис кадрлар салоҳияти сақланиб қолган.

15.4. Янги маҳсулот ва технологияларни бозорга кириш стратегияси.

Ривожланган давлатларнинг технологик ютуқларидан фойдаланиш, бу соҳада аввало, МДҲ мамлакатлари билан ҳамкорлик ўрнатиш, халқаро меҳнат тақсими ва кооператсиядан имкон қадар кенг фойдаланишга интилиш зарур. Бундай жараёнлар бутун дунёда рўй бермоқда. Юқорида қайд этиб ўтилдики, технологик жиҳатдан илғор мамлакатлар ягона технологик макон тузган болиб, мамлакатимиз унга тенг ҳуқуқли ҳамкор болиб кириши, айрим йўналишларда еса етакчилик учун курашиши лозим, бунинг учун еса миллий технологик даражада етарлича юқори болиши зарур.

16-мавзу: Инновацион лойиҳаларни молиялаштириш тизими

1. Инновацион лойиҳаларни молиялаштириш тизимининг аҳамияти.
2. Инновацион лойиҳаларни тузилишига қўйиладиган асосий талаблар.

1. Инновацион лойиҳаларни молиялаштириш тизими.

Инновация лойиҳасининг асосий мақсадларидан бири – корхона юқори сифатга эга бўлган керакли миқдорда маҳсулот ишлаб чиқариш лаёқатига эга эканлигини рақобатчиларга исботлашдан иборат.

Инновацион лойиҳаларни амалга ошириш учун уларни молиявий асослаш ва инвестициялаш муҳим аҳамиятга эга. Бунда лойиҳавий молиялаштириш жараёнлари нуктаи назаридан ўзига хос хусусиятларга эга инновацион лойиҳаларни фарқлаш керак:

а)
инвестицион лойиҳалар, масалан, янги саноат объектлари қурилишига (энергетика, транспорт, алоқа ва ҳ.к.) йирик капитал қўйилмалар;

б) илмий-техник (инновацион) – илғор технологиялар, янгиликлар, маҳсулотлар ва хизматлар.

2. Инновацион лойиҳаларни тузилишига қўйиладиган асосий талаблар.

- Инновацион лойиҳаларни пухта ҳамда ҳар томонлама таҳлил қилиш ва танлаш портфель таркибини мақбуллаштириш имконини беради. Ечимни ишлаб чиқиш учун ягона алгоритм йўқ. Ҳар бир алоҳида ҳолда ўзининг мезонлар гуруҳи устунлик қилиши мумкин. Шундан келиб чиқиб, инновацион лойиҳаларни таҳлил қилиш тизими қўлланилаётган усулларнинг кўплиги билан ажралиб туради: бу молиявий, инвестицион ва техник-иқтисодий таҳлил усуллари, математик-статистик моделлари, эксперт баҳолари тизими, илмий-техник даража ва маҳсулот сифати таҳлили усули.

- Инновацион лойиҳаларни ишлаб чиқишда замонавий инновацион лойиҳалар, одатда, катта инвестицияларни талаб қилишини, улар эса доим ҳам бўлавермаслигини ҳисобга олиш зарур. Шунинг учун инвестициялар ҳақидаги масала анча қийин ҳал этиладиган муаммодир, чунки мазкур лойиҳанинг зарурлигини, фойдалилигини ва самаралилигини исботлаш керак бўлади. Бу ҳолатда асосийси молиялаштириш манбаини танлаш, унинг ҳажмини, вақт бўйича тўловлар даражаси ва ҳоказодир. Бу ҳолатда инвестор ўзига лойиҳанинг моҳиятини тушунтириб бериш, ҳамкорлик қандай афзаллик беришини, ва энг асосийси, улар оладиган энг минимал ва энг юқори фойда миқдорини намойиш қилиш талаб этилади. Ушбу кўрсаткичларнинг ҳаммасини инвесторларни капитал ажратишга ишонтириш учун тегишли тарзда расмийлаштириш керак.

17-мавзу: Инновацион соҳада кадрларни бошқариш механизми

1. Кадрларни бошқариш стратегиясининг моҳияти ва турлари.
2. Малакали кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш тизими.

1. Кадрларни бошқариш стартегиясининг моҳияти ва турлари.

Давлат инновацион сиёсати ҳақида гапирганда доимо инновацион иқтисодиёт учун кадрлар тайёрлаш ҳақида ёдда тутиш лозим. Агар иқтисодиётнинг анъанавий секторларида “кадрлар ҳамма нарсани ҳал қилади” қондаси аксарият ҳолатларда тўғри бўлиб чиқса, иқтисодиётнинг кўп илм талаб қиладиган секторларида ушбу фикрнинг аҳамияти бир неча мартаба ортади.

Олий ўқув юртларида кадрлар тайёрлашни марказлаштиришдан ҳудудий йўналишга ўтказиш чора-тадбирлари кўрилди. ўқув юртлари тармоғи кенгайди, университет таълими ривожланиши таъминланди. Янги ихтисосликлар, билимларнинг янги тармоқлари бўйича мутахассислар тайёрлашга киришилди. Умуман, мактаб кўп тармоқли тизимга ўтказилди. Абитуриентлар ва талабаларнинг билим даражасини тест ва рейтинг усулида баҳолашга ўтилди. Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар сифатига қўйилаётган талаблар ҳисобга олинган ҳолда аспирантура ва докторантурада кадрлар тайёрлаш тубдан қайта кўриб чиқилди. Жумладан, Олий Аттестатсия Комиссияси ташкил етилди.

2. Малакали кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш тизими.

Олий ўқув юр்தларининг минтақавий ва маҳаллий ижроня ҳокимияти билан инновацион иқтисодиёт учун кадрлар тайёрлаш соҳасидаги ҳамкорлигини муҳокама қилиш 1990-йилларнинг ўрталари ва 2000-йилларнинг бошидан бошланди. Бундай модел доирасида ҳокимият структураларининг вазифалари каторига қуйидагилар қиради: ОўЎОга талаб юқори бўлган ихтисосликлар доирасида мутахассислар тайёрлаш учун буюртмалар шакллантириш ва меҳнат бозорида мос келувчи ихтисосликлар битирувчиларига талабни таъминлаш учун иш берувчиларни (биринчи навбатда - кичик ва ўрта бизнесни) юқори технологияли бизнес йўналишларида фаолият юритишга рағбатлантириш.

17. 1. Инновацион технологияларни амалга оширишда кластер усулларни қўллашни аҳамияти.

Кластерлар асосан юқори билим даражаси, талабларига рақобатбардошлик мезонларига жавоб берадиган марказларда ташкил топмокда. Ҳозирги вақтда кластер талаблари бўйича олиб борилаётган қўп ишлар иқтисодий томондан ривожланган давлатларда кузатилмокда.

Кластер усулларини бошқа асосий фарқи умумий кооперацияли ишлаб чиқаришда асоси йўналиш истиқболли кластер мўлжаллари ҳозирги даврдаги рақобатбардошлик устунлигини амалий жиҳатдан ишлаб-чиқаришдаги инновацион технологиялар ташкилий, бошқарув ишлари ва ишлаб чиқарилган товарларни истеъмолчиларга йўллаш ҳисобланади.

Кластер моделини ташкил этишда товарлар рақобат мезонини ўрганиб ва уни истиқболлаб рақобатдаги биринчиликка ҳаракат қилинади. Бу эса кластер усулидаги энг керакли ўзаро боғланишни, технологияларни, ахборотлар таъминотини, ишлаш услуби орқали мақсадга йўналтирилган комплекс ишларини бош фирма режалаштиради ва уни ижросини таъмин этишда барча иштирокчилар билан ўзаро келишилган ҳолда мақсадни амалга оширади.

- Аҳолининг турмуш фаровонлиги ўсиши, мамлакатнинг иқтисодий ўсиш суръати, таълим, фан ва маданиятнинг ривожланиши, муҳофаа қобилияти бевосита юқори технологияли комплексни таркибий-технологик қайта тузишга боғлиқ бўлмоқда. Бу соҳада юқори малакали илмий, тадқиқотчи ва муҳандис кадрлар салоҳияти катта рол ўйнайди.

17. 2. Инновацион фаолиятни кластер усулида қўллашда уни давлат томонидан бошқариш.

Инновацион фаолиятни давлат томонидан тартибга солиш ва рағбатлантириш ҳақида юқорида шакллантирилган тезис жаҳон тажрибаларидан келиб чиққан ҳолда мамлакатимиздаги вазиятда инновацион ўсиш стратегиясини амалга ошириш устувор ҳисоблансада, бир қатор сабабларга кўра бугунги кунда уни амалга ошириб бўлмапти.

Хорижий мамлакатларда технологияларни яратиш ва уларнинг трансфери соҳасидаги давлат сиёсати саноат ва илмий-техник сиёсатнинг устуворликларидан бири бўлиб, уларни мамлакатимиз иқтисодиётини инновацион қайта қуришни таъминлашда қўллаш мақсадга мувофиқ.

Янги техниканинг самарадорлигини ҳисоблаш ва таҳлил этишда унинг ижтимоий натижалари ва оқибатларини ҳам ҳисобга олиш керак. Улар жумласига, меҳнат шaroитларини яхшилиш, ҳавфсизлик ва қулайликни таъминлаш, ходимларнинг билими ва илми ҳамда малакасини ошириш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, инсон фаолияти учун энг яхши шaroитлар яратилиши киради.

18-мавзу. Инновацион гоёлар, ишламалар ва технологияларни амалга оширишда кластер усулларини қўллаш зарурияти

- 1. Инновацион технологияларни амалга оширишда кластер усулларини қўллашни аҳамияти.
- 2. Инновацион фаолиятни кластер усулида қўллашда уни давлат томонидан бошқариш.

18.1. Инновацион технологияларни амалга оширишда кластер усулларини қўллашни аҳамияти

- Инновацион маркетинг илмий-техник ва янги гоёлар, ишлама ва технологияларни ҳамда яратилган интеллектуал мулкни чуқур ва ҳар томонлама ўрганиб унинг натижаларини зудлик билан ишлаб чиқаришга трансфера қилиш. Инновацион маркетинг ресурслари замонавий илмий-техник ахборотлар ҳисобланиб, улар иқтисодий қиммат турадиган истеъмол бозори ҳисобланади. Уларни кидириш, таниш, мақсадга йўналтирилган ишларни режалаштириш, амалга ошириш ва булар орқали ўз бизнесини ташкил этиш лозим бўлади.

18. 2. Инновацион фаолиятни кластер усулида қўллашда уни давлат томонидан бошқариш

- Инновацион фаолиятни давлат томонидан тартибга солиш ва рағбатлантириш ҳақида юқорида шакллантирилган тезис жаҳон тажрибаларидан келиб чиққан ҳолда мамлакатимиздаги вазиятда инновацион ўсиш стратегиясини амалга ошириш устувор ҳисоблансада, бир қатор сабабларга кўра бугунги кунда уни амалга ошириб бўлмаяпти.



19-мавзу: Инновацион кластер

1. Инновацион ғоя, ишлама ва технологияларни халқ хўжалигига трансфер қилишда кластер усуллардан фойдаланиш.
2. Инновацион фаолиятни давлат томонидан тартибга солиш.
3. Кластер усулида жорий қилинган инновацион технологияларни иқтисодий самарадорлиги.

19.1. Инновацион ғоя, ишлама ва технологияларни халқ хўжалигига трансфер қилишда кластер усуллардан фойдаланиш.

Кластер усуллари қуйидагиларни таъминлайди:

замонавий инновацион ишламаларни ишлаб чиқаришга йўналтирилганда ишлаб чиқарилган маҳсулотларни рақобатдошлигини ошириш учун фойдаланиладиган барча ахборот воситаларидан унумли фойдаланиш ва улар орқали корхонада хизмат килаётган барча мутахассисларни ахборот билан таъминлаш ва маҳсулот ишлаб чиқаришда кластер талабларини таъминлаган ходимларни рағбатлантириш;

ишлаб чиқариш фирмаларини инновацион кўрсаткичларини ўсиши, тезлик билан янги технологик билимларни тарқалиши ҳамда рақобатдошлик босими бошқа фирмаларни ҳам инновацион фаолиятлардан фойдаланишга ундайди;

ишлаб чиқариш фирмалари янги инновацион ишламаларни ишлаб чиқаришга тадбиқ этиши натижасида янги ишлаб чиқариш фирмаларни бунёд этилиши тезлаштиради.

19. 2. Инновацион фаолиятни давлат томонидан тартибга солиш.

Инновацион фаолиятни давлат томонидан тартибга солиш ва рағбатлантириш ҳақида юқорида шакллантирилган тезис жаҳон тажрибаларидан келиб чиққан ҳолда мамлакатимиздаги вазиятда инновацион ўсиш стратегиясини амалга ошириш устувор ҳисоблансада, бир қатор сабабларга кўра бугунги кунда уни амалга ошириб бўлмапти.

Бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида фан-техника тараққиётининг учта асосий йўналишидан фойдаланиш мумкин:

- а) анъанавий йўналиш;
- б) замонавий йўналиш;
- в) истиқболли, устуворлик йўналишлар.

19. 3. Кластер усулида жорий қилинган инновацион технологияларни иқтисодий самарадорлиги.

Янги техника ва технологияларни жорий этиш учун унинг иқтисодий ва ижтимоий самарадорлигини аниқлаш керак. Шу сабабли янги техника ва технологияларни жорий этиш асосида ишлаб чиқаришида юқори кўрсаткичларга еришиш учун техник чора-тадбирларнинг қайси бири фойдали эканлигини аниқлаш зарур.

Фан-техника таракқиёти тадбирлари иқтисодий самарасини ҳисоблаш тартиби услубий қўлланмаларда изохлаб берилган. Уларга қуйидагилар киради:

- капитал қўйилмаларнинг иқтисодий самарадорлигини аниқлаш бўйича намунали методика;
- халқ хўжалигида янги техника, ихтирочилик ва рационализаторлик тавсифларидан фойдаланишнинг иқтисодий самарадорлигини аниқлаш методикаси;
- корхоналар ва ишлаб чиқариш бирлашмалари бошқару-вининг автоматлаштирилган тизимининг иқтисодий самарадорлигини ҳисоблаш методикаси;
- бошқарувнинг автоматлаштирилган тизими самарадорлигини;
- меҳнатни илмий ташкил этиш, яъни МИТ бўйича тадбир-чораларнинг иқтисодий самарадорлигини аниқлаш методикаси;
- атроф-муҳитни муҳофаза этиш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириш учун сарфланган харажатларнинг иқтисодий самарасини аниқлаш учун вақтинчалик методика.

Fanga doir video ma'ruzalar, video roliklar

<https://www.youtube.com/watch?v=sR-qL7QdVZQ> Philip Kotler: Marketing

<https://www.youtube.com/watch?v=hZLMv5aexto4> Principles of Marketing Strategy

<https://www.youtube.com/watch?v=H8aZr-Ula1w> Marketing Mix: Pricing Strategies

<https://www.youtube.com/watch?v=XBmWEduod5k> Pricing Strategies

<https://www.youtube.com/watch?v=GZgFdPWtVGY> Promotion

<https://www.youtube.com/watch?v=ys7zx1Vc9po> The Seven Ps of the Marketing Mix: Marketing Strategies

<https://www.youtube.com/watch?v=H8FANR-2u2Q> Strategic Planning: SWOT & TOWS Analysis

<https://www.youtube.com/watch?v=qbyb0ht-dsk> McDonalds SWOT

<https://www.youtube.com/watch?v=mCdcdf-b8A> UPEST Analysis

<https://www.youtube.com/watch?v=Zq391bgs6h0> - What is Market Research? An Informative Presentation.

<https://www.youtube.com/watch?v=sdQfld91Y0g> - Ethical Behavior in Marketing

https://www.youtube.com/watch?v=n_L4tBP_KFQ - Market Segmentation: Geographic, Demographic, Psychographic & More - Study.com

<https://www.youtube.com/watch?v=IyjDjr33wAQ> - Live affiliate marketing case study

https://www.youtube.com/watch?v=2Zwlb_IQ23I - Market Feasibility Study: More Important Than a Business Plan

<https://www.youtube.com/watch?v=b0hle7pVLmM> How to Create a Digital Marketing Strategy - A Silverstone Case Study

<https://www.youtube.com/watch?v=ZzPjSqvm9P8> Infragistics Marketing Dashboard Case Study

<https://www.youtube.com/watch?v=laTzwz08M94> Market segmentation: a case study

<https://www.youtube.com/watch?v=bqaEhW3xO> CkMarket Orientation and Sales Orientation

<https://www.youtube.com/watch?v=IggKinwxbZ4> Part 5: Marketing, Community and Apps Case Study featuring Coca-Cola - Salesforce World Tour Chicago

<https://www.youtube.com/watch?v=z-9Yxo02hRk> Case Study 2016: When Content Marketing Meets SEO

<https://www.youtube.com/watch?v=lcoLoIyGw7I> Nike Marketing Strategy | Successful Marketing #1

https://www.youtube.com/watch?v=9_XWp5fnXKc What is Marketing & Brand Strategy?

<https://www.youtube.com/watch?v=CjieRgtjvlc> Eno Mobile Marketing Case Study: 70% Increase in Product Sales

<https://www.youtube.com/watch?v=No67z1C4HPw> Heineken India - Viral Campaign 2013

<https://www.youtube.com/watch?v=-cvv1oC-ZaM> Guerrilla Marketing - Coca-Cola Dancing Vending Machine

**FANNI O'QITISHNING INTERAKTIV
TEXNOLOGIYALARI**

QO'LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI SHARHI

1. Ma'ruza mashg'ulotlarning tashkil etishning asosiy shakllari

Ma'ruza mashg'uloti – OO'Yuda o'qitishni tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanadi, bilimlarni birlamchi egallashga yo'naltirilgan.

Ma'ruzani asosiy belgilanishi – o'qitishni nazariy asosini ta'minlab berish, o'quv faoliyatga va aniq o'quv fanga qiziqishni rivojlantirish, kursantlarga o'quv kursi ustidan mustaqil ishlash uchun orientirlarni shakllantirish.

Ma'ruza materiallarining mazmuni va hajmiga talablar

Ma'ruza materiallarining *mazmuni* quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

- yangilik, ilmiylik, asoslilik va axborot uchun belgilanganlik;
- aniq, ishonchli misol, fakt, asosnoma va ilmiy dalillarning mavjudligi;
- faktga asoslangan (statistik va v.h.) materiallarni ko'p emasligi.

Ma'ruza materiallarining *hajmi* rejalashtirilgan mavzuni yoritish uchun yetarli bo'lishi kerak.

Ma'ruzalar turlari va ularga xos xususiyatlar

O'quv mashg'ulotning maqsadi	Ma'ruza turi, uning o'ziga xos xususiyatlari
<i>Kirish ma'ruzasi</i>	
Fan doirasida o'quv axborotini o'zlashtirish bo'yicha talabalar harakatining yo'naltiruvchi asosini ta'minlash.	Ta'lim berish tuzilishida motivatsion bosqich hisoblanadi. Uning vazifasi – o'quv fani mazmuni, uning o'quv jarayonidagi o'rni va kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatdagi axamiyati to'g'risida dastlabki tasavvurlarni berish, talabalarni ishlash tizimida yo'naltirish, oldinda turgan mustaqil ishning uslubiyoti va tashkillashtirishi bilan tanishtirish, hisobot berish vaqti va baholashni aniqlashtirish.
<i>Axborotli ma'ruza</i>	
O'quv mavzu bo'yicha tasavvurni shakllantirish	Bu an'anaviy ma'ruza turi: ma'ruza rejasiga muvofiq o'quv materialini monologik tarzda izchillikda bayon etish.
<i>Muammoli ma'ruza</i>	
Muammoni belgilash va uni yechimini topishni tashkillashtirish/an'anaviy va zamonaviy nuqtai nazarlarni jamlash va tahlil qilish va v.h. orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Yangi bilimlar savol/vazifa/vaziyatlarning muammoligi orqali kiritiladi. Bu jarayonda talabalarining bilishi o'qituvchi bilan hamkorligiga va dialogiga asoslanadi, hamda izlanuvchilik faoliyatiga yaqinlashadi.
<i>Ko'rgazma ma'ruza</i>	
O'TVdan keng foydalanish orqali o'quv mavzusi bo'yicha	Bunday ma'ruzani o'qish, ko'rib chiqilayotgan ko'rgazmali materiallarni ochib berishga va qisqacha

O'quv mashg'ulotning maqsadi	Ma'ruza turi, uning o'ziga xos xususiyatlari
tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	sharhlashga olib keladi.
<i>Binar ma'ruza</i>	
Talabalarga munozara madaniyatini, muammoni hamkorlikda yechishni namoyish etish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma'ruzani o'qish ikki o'qituvchi/2-maktabning ilmiy vakillari/olim va amaliyotchi/o'qituvchi va talabalarning dialogini o'zida namoyon etadi.
<i>Anjuman-ma'ruza</i>	
O'quv axborotni izlash, tanlash va bayon etish jarayonida talabalarning faol ishtiroklarida yoritib berish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Oldindan belgilangan muammo va uni har tomonlama yoritib berish nazarda tutilgan ma'ruzalar tizimi (5-10 daq. davomiyligida) bilan, ilmiy-amaliy mashg'ulot ko'rinishida o'tkaziladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi mustaqil ish va so'zga chiqishlarga yakun yasaydi, axborotni to'ldiradi/aniqlik kiritadi, asosiy xulosalarni ifodalaydi.
<i>Umumlashtiruvchi ma'ruza</i>	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishsiz tizimlashtirish.	Ma'ruzada bayon etilayotgan nazariy holatlarning negizini kursning yoki katta bo'limlarning ilmiy-tushunchali va kontseptual asosi tashkil etadi.
<i>Maslahatli-ma'ruza</i>	
Bilimlarni chuqurlashtirish, tizimlashtirish.	Turlicha stsenariy bo'yicha o'tishi mumkin. 1. "Savol-javoblar"- o'qituvchi bo'lim yoki to'liq kurs bo'yicha talabalar savollariga javob beradi. 2. "Savol-javoblar-munozaralar": o'qituvchi nafaqat savollarga javob beradi, balki javoblarni izlashni ham tashkillashtiradi.
<i>Yakuniy ma'ruza</i>	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishsiz tizimlashtirish.	Kursni o'rganishni yakunlaydi, butun davr mobaynida o'tilganlarni umumlashtiradi. Yakuniy ma'ruzada o'qituvchi kursning asosiy g'oyalarini ajratadi, kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatda va boshqa fanlarni o'rganishda olgan bilimlarni qanday qo'llash yo'llarini ko'rsatadi, fan bo'yicha yakuniy nazorat xususiyatini tushuntiradi, yakuniy nazorat variantlarining murakab savollarini tushuntiradi.

2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllari

Amaliy mashg'ulot:

- o'quvchilarni o'qituvchi bilan va o'zaro faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan,
- nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi,
- olingan bilimlarni amaliy foydalanish imkoniyatlarini muhokama qilishga mo'ljallangan mashg'ulotning o'qitish shakli.

Amaliy mashg'ulotning mazmuniga quyiladigan talablar

- muhokamaga munozarali savollar olib chiqiladi;
- muhokama qilinuvchi savollar ilm-fanning erishgan zamonaviy yutuqlari tomoni bilan ko'rib chiqiladi;
- nazariya va amaliyotni uzviy birligi ochib beriladi;
- muhokama qilinuvchi materialning talabalarning bo'lg'usi kasbiy faoliyati bilan aloqasi ta'minlanadi;
- ko'rib chiqilayotgan material adabiyotda mavjud emas yoki material, qisman bayon etilgan.

Amaliy mashg'ulotlar turlari va ularga xos xususiyatlari

Amaliy mashg'ulot turi	Amaliy mashg'ulot shakli, uning o'ziga xos xususiyatlari
<p><i>Talabalarining nazariy bilimlarini tizimlashtirish/tuzilmaga keltirish/mustahkamlash/kengaytirish:</i></p> <ul style="list-style-type: none">- metodologik nuqtai nazaridan eng muhim va o'ziga xos fan mavzularining yaxshi o'rganish.- tushunish va o'zlashtirish uchun murakkab bo'lgan mavzu savollarini batafsil o'rganish.- kasbiy tayyorgarlik sifatini aniqlovchi, alohida asosiy bo'lgan mavzularni batafsil o'rganish.	<p><i>Keng ko'lamli suhbat.</i></p> <p>Hamma uchun umumiy bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga talabalarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar, so'zga chiquvchi talabalarni kuchli va kuchsiz tomonlariga talbalar diqqatlarini qarata olish, talabalar diqatti va qiziqishini, ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi tomonlarga o'sha vaqtni o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik talabalarni savollarni muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi. Keng ko'lamli suhbat ba'zi savollar bo'yicha alohida talabalarni avvaldan rejalashtirilgan qo'shimcha ravishda so'zga chiqishlarini istisno qilmaydi, balki, taxmin qiladi. Biroq bunday ma'lumotlar muhokama uchun asos bo'lmaydi, balki muhokama qilingan savollar uchun to'ldiruvchi bo'ladi.</p> <p><i>Ma'ruza va referatlar muhokamasi.</i></p> <p>Muhokamaga 12—15 daqiqa davomiyligidagi 2-3 ma'ruzadan ko'p bo'lmagan ma'ruzalar olib chiqiladi. Ba'zida qo'shimcha ma'ruzachi va opponentlar (muxoliflar) belgilanadi. Oxirgi chiquvchilar mazmunni qaytarmaslik uchun, ma'ruza matni bilan tanishadilar. Biroq ko'p hollarda, ma'ruzachi va opponentlar, qo'shimcha ma'ruzachilardan tashqari, hech kim seminarga jiddiy tayyorlanmaydi. So'zga chiquvchilarni o'zlari ham faqat bir savolni o'rganadilar. SHu bilan birga, odatiy seminar ishiga “quruq nazariyalik” elementini kiritib, bunday mashg'ulotlar talabalarda ba'zi qiziqishlarni uyg'otadi. Talabalarni har birini qo'shimcha ma'ruzachi yoki opponent sifatida tayyorlanib kelishga o'rgatish juda muhim hisoblanadi. Referatli ma'ruzalarni yakuniy seminarda, uning asosiy savollari avvaldan</p>

muhokama qilib bo'lingan, katta bir mavzu bo'yicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Press-konferentsiya.

Qisqa so'zga chiqishdan so'ng birinchi savol bo'yicha ma'ruzachiga (agarda ma'ruzalar bir qator talabalarga berilgan bo'lsa, o'qituvchining o'zi ulardan biriga so'z beradi) so'z beriladi. SHundan so'ng har bir talaba ma'ruza mavzusi bo'yicha unga savol berishi lozim. Savol va javoblar seminarning markaziy qismini tashkil etadi. Qancha ko'p jiddiy tayyorgarlik ko'rilsa, savollar shunchalik chuqur va mahoratli beriladi. Savollarga avval ma'ruzachi javob beradi, so'ngra u yoki boshqalar bo'yicha istagan bir talaba o'z fikrini bildirishi mumkin. Bunday holatlarda qo'shimcha ma'ruzachilar, agarda shundaylar belgilangan bo'lsa, faol bo'ladilar. O'qituvchi har bir muhokama qilinayotgan savol bo'yicha, yoki seminar yakunida o'z xulosasini qiladi.

O'zaro o'qish.

Tushunish va o'zlashtirish uchun eng ko'p murakkablikdagi savollarni o'rganish asosiy maqsadga ega bo'lgan, seminar. Seminar mobaynida talabalarni o'zaro o'qishga yo'naltirish muhim hisoblanadi: har kichik-guruhga mavzuning bir savoli beriladi, bu bo'yicha ular ishlaydilar va bunga asos (ekspert varaqlar – savolni yoritish rejasi, tayyorlangan ma'lumotlarni vizual taqdim etish bo'yicha tavsiyalar) beriladi. Ekspert guruhlarning ish natijalari taqdimotidan so'ng o'qituvchi xulosalar qiladi.

Yumoloq (yozma /og'zaki) stol.

O'tgan mavzu bo'yicha bilimlarni chiqurlashtirish va aniqlashtirish, bor bilimlarni safarbar qilish va har xil vaziyatlarda ularni qo'llash, o'z fikrlarini qisqa va asoslangan xolda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsadga ega bo'lgan, seminar.

Har xil stsenariylar bo'yicha o'tkazilishi mumkin.

1. «Yozma yumoloq stol» - talabaning savoli / yechimi topilishi kerak bo'lgan g'oya yozilgan varaq, doira bo'yicha uzatiladi va har bir ishtirokchi o'z mulohazalarini qo'shadi.

2. «Og'zaki yumoloq stol» - har bir talaba qo'yilgan savolning javobiga o'z qo'shimchalarini kiritadi / oldingi ishtirokchi tomonidan taklif qilingan g'oyani qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi.

Spetsseminar.

Bakalavriatning 4 kursida, magistraturada o'tkaziladi. Ilmiy mavzu bo'yicha yosh tadqiqotchilarni muloqat maktabini ifodalaydi. Spetsseminar vaqtida talabalarning guruhlarda ishlashga va uni baholashga, ilmiy tadqiqotlar

<p><i>Ilm-fanning alohida xususiy muammolarini chuqurroq ishlab chiqish.</i></p>	<p>usullaridan foydalanishga intilishlari katta rol o'ynaydi. Spetsseminarning yakuniy mashg'ulotida o'qituvchi, qoidaga ko'ra, seminarlarni va talabalarning ilmiy ishlarini muhokama qilingan muammolarni kelgusida tadqiqotlar qilish istiqbollari va talabalarni ularda ishtiroq etish imkoniyatini ochib umumlashtiradi.</p>
<p>Maxsus (kasbiy) va umumo'quv ko'nikma va amaliy malakalarni shakllantirish: - amaliy muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechish jarayonida xarakteristik algoritmini aniqlash bilan bog'liq egallagan nazariy bilimlarni amaliy qo'llash.</p>	<p>Ta'limiy o'yin. O'qitish samaradorligini uning ishtiroqchilarini nafaqat bilimlarni olish jarayoniga faol jalb qilish, balki ularni (hozir va shu yerda) foydalanish orqali oshirishga imkon beradi; o'zgaruvchan vaziyatlarda o'zini tutish taktika ko'nikmalarini shallantiradi; <i>выработывае</i> dinamik rolevogo povedeniya; amaliyot imitatsiyasini ifodalaydi; aniq ko'nikma va malakalarni shakllantirishga va ishlab berishga qaratilgan. Seminar natijaviyligini uning tashkiliy-uslubiy ta'minoti belgilaydi: o'yinning texnologik xaritasini ishlab chiqish; o'yin atributlarini va materiallar paketini: vaziyat bayoni, ishtiroksilar uchun yo'riqnomalar, personajlar ta'rifi (agar o'yin rolli yoki ishbilarmon bo'lsa) yoki vaziyatli ko'rsatmalar (agar o'yin modellashtiruvchi bo'lsa) tayyorlash. Amaliy topshiriqlarni bajarish. Amaliy topshiriqlarning ko'pchiligi kichik guruhlar tarkibida bajariladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: yo'riqnoma berish → o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha yo'riqnoma bilan tanishish → topshiriqni bajarish → natijalarning ommaviy taqdimoti → natijalarni umumlashtirish va baholash. Masalalar yechish bo'yicha mashq. Yakka tartibda amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: yo'riqnoma berish – masalani yechish – natijalarni tanlama taqdimoti - umumlashtirish. Muammoli masalalar va vaziyatlarni yechish. Muammoli masalalar va vaziyatlarni ishlab chiqish juda katta mehnat talab qiladi. Lekin talabalar tomonidan amaliy kasbiy faoliyatdan olingan muammoli masalalarni yechish va muammoli vaziyatlarni ko'rib tahlil qilish nazariyani haqiqiy amaliyot bilan bog'lashga imkon beradi. Bu o'qitishni faollashtirishga imkon beradi, talabalarga o'rganilayotgan materialni amaliy foydasini tushunishga yordam beradi. Ta'lim beruvchi amaliy muammoli vaziyatlarni (keys) yechish. Keys (muammoli vaziyatdan farqli ravishda) talabalarni muammoni ifodalash, muammoli vaziyatni tahlil qilish va baholash, uni maqsadga muvofiq yechim variantlarini qidirishga yo'naltiruvchi tashkilotlar, insonlar guruhi yoki</p>

	<p>alohida individlarni hayotining muayyan sharoitlarini yozma ravishda taqdim etilgan bayonini o'z ichiga oladi.</p> <p>Keysni yechish jarayoni quyidagi bosqichlarini o'z ichiga olish muhim:</p> <ul style="list-style-type: none"> → muammoni yakka tartibda tahlil qilish va yechish, → yakka tartibda topilgan yechimni birgalikda (kichik guruhlarda) tahlil qilish, o'zaro maqbul yechim variantini rasmiylashtirish, → guruh ishini taqdimoti, → muammoni yechish usul va vositalarining eng maqbul variantini jamoaviy tarzda tanlash. <p>Fiklash jarayoni, muammoli vaziyatni yechish jarayonida paydo bo'lingan, mustaqil topilgan dalillar orientirlarni, kasbiy boyliklarni topishga va mustaqamlashtirishga, kelgusi kasbiy faoliyati bilan aloqani anglashga ko'maklashadi.</p> <p><i>O'quv loyihalarning taqdimoti va baholanishi</i></p> <p>Ushbu o'quv mashg'ulotini tayyorlashda o'qituvchining roli quyidagilardan iborat: loyiha topshirig'ini ishlab chiqish; talabalarga ma'lumotlarni izlashda yordam berish; o'zi axborot manbai bo'lishi; butun jarayonni muvofiqlashtiri; ishtirokchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; uzluksiz qayta aloqani amalga oshirish; maslahat berish.</p> <p>Ushbu o'quv mashg'ulotida guruhlar o'z faoliyatining natijalari to'g'risida ma'ruza qilishadi va uni belgilangan shaklda taqdim etishadi (loyihaviy faoliyatning natijalarini, hamda loyiha maxsulotini tasviriy va og'zaki taqdimot ko'rinishida).</p> <p>O'qituvchi guruhlarning o'zaro baholanishini tashkillashtiradi va loyiha ishtirokchining faoliyatini baholaydi.</p>
<p><i>Talabalarni nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish va baholash</i></p>	<p><i>Kollokvium.</i></p> <p>O'qituvchining talabalar bilan kollokviumlari (suhbatlashuvi) odatda kursning u yoki bu mavzusi bo'yicha bilimlarini aniqlash, uni chuqurlashtirish maqsadida olib boradi. U ko'pincha 1) dasturda ko'zda tutilmagan, lekin talabalarda qiziqish uyg'otgan qo'shimcha mavzular bo'yicha; 2) fanning alohida murakkab, lekin talabalar tomonidan yetarli darajada o'zlashtirilmagan mavzulari bo'yicha qo'shimcha darslar mobaynida; 3) ohirgi seminar mashg'ulotlarida javob bermagan talabalarni birish darajasini aniqlash uchun.</p> <p>Seminar-kollokvium mobaynida ma'ruza, referat va boshq. Yozma ishlar tekshirilishi mumkin.</p> <p><i>Yozma (nazorat) ish.</i></p> <p>Talabalar nazorat savollariga javob beradilar/ testlarni yechadilar/ nazorat topshiriqlarini bajaradilar. Ularning to'plamini to'g'ri tuzish muhim hisoblanadi: ular</p>

	rejalashtirilayotgan o'quv materialni o'zlashtirish darajasiga mos kelishligi kerak va ularni tekshirishni ta'minlashi kerak.
--	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

3. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar AQLIY HUJUM METODI

Aqliy hujum (breynstroming-aqllar to'zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g'oyasini jamoaviy yuzaga keltirishda qo'llaniladigan metod.

Metod chegaralangan vaqt oralig'i ichida aniq muammo (savol, masala)ni yechishning noan'anaviy yo'llarini izlash bo'yicha o'quvchilarni aqliy faoliyatini yo'naltirishga asoslangan.

O'quv mashg'ulotidagi aqliy hujum uchun muammoni tanlash quyidagi tamoyillar bo'yicha amalga oshiriladi:

- tanlangan muammo nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi hamda o'quvchilarda faol qiziqish uyg'otishi kerak;

- ko'p har xil ma'nodagi yechim variantlariga ega bo'lishi kerak.

O'qitish texnologiyasini ishlab chiqishda aqliy hujum metodi o'quv mashg'ulotining bir lavhasi yoki butun mashg'ulotni o'tkazish asosi sifatida rejalashtirilgan bo'lishi mumkin.

Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi 1-rasmda keltirilgan.



Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi

INSERT TEXNIKASI

INSERT (inglizcha so'zdan olingan bo'lib - INSERT – Interaktive- interfaol Noting – belgilash System - tizim for-uchun Effective – samarali Reading – o'qish and– va Thinking – fikrlash degan ma'noni anglatadi).

1) Samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilar qo'yishning interfaol tizimi hisoblanadi.

Matnni belgilash tizimi:

(√) - mening bilganimni tasdiqlovchi axborot;

(+) –men uchun yangi axborot;

(–) - menning bilganlarimga, zid axborot;

(?) - meni o'ylantirib qo'ydi. Bu bo'yicha menga qo'shimcha axborot kerak.

KEYS–STADI METODI

KEYS – (ingl. sase – to’plam, aniq vaziyat) – nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni yechish jarayonida qo’llash imkonini beruvchi *o’qitish vositasi*.

Keysda bayon qilingan vaziyatni o’rganib va tahlil qilib, o’quvchilar o’zining kelgusidagi kasbiy faoliyatida o’xshash vaziyatlarda qo’llashi mumkin bo’lgan tayyor yechimni oladi.

Keysda bayon qilingan vaziyatlar (kasbiy), amaliy mashg’ulotlarda yechiladigan vaziyatli masalalardan tubdan farq qilinadi. Agar vaziyatli masalalarda har doim shart (nima berilgan) va talab (nimani topish kerak) berilgan bo’lsa, keysda, qoidaga ko’ra, bunday parametrlar mavjud emas.

O’quvchiga taqdim etilgan ixtiyoriy keysda:

- keysning belgilanishi va topshiriq/savollar aniq ifodalangan bo’lishi kerak;
- bayon qilingan muammoli vaziyatni yechish uchun kerakli va yetarli xajmda ma’lumotlarni o’z ichiga olishi kerak
- keysni yechish uchun *uslubiy ko’rsatmalar* bo’lishi kerak.

Keys–stadi (ingl.sase– to’plam, aniq vaziyat, stadi-o’qitish)–amaliy o’qitish vaziyatlarimetodi.

Keys-stadi - o’qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo’yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o’quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo’lgan o’qitish texnologiyasidir.

Ushbu metod o’quvchilarni quyidagilarga undaydi:

- muammoni shakllantirishga;
- amaliy vaziyatni tahlil qilish va baholashga;
- muammo yechimini eng maqbul variantini tanlashga.

O’quv mashg’ulotning o’qitish texnologiyasini tanlashni ikki asosiy dalil belgilaydi:

1. Keysning hajmi (qisqa, o’rtacha miqdordagi, katta)
2. O’quv topshirig’ini taqdim etish usuli:
 - savolli (savollar keysdan keyin keltiriladi)
 - topshiriqli (topshiriq keys kirish qismining oxirida keltiriladi)

O’QUV LOYIHA METODI

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, ma’lum muddat ichida (bitta o’quv mashg’ulot doirasidan 2-3 oy muddat ichida) ta’lim oluvchi guruhli yoki yakka tartibda berilgan mavzu yuzasidan loyiha topshirig’ini bajaradi. Uning vazifasi – muayyan foydalanuvchiga yo’naltirilgan yangi ma’lumot olish, belgilangan muddat ichida berilgan u yoki bu muammoni ilmiy, texnikaviy yechimidan iborat.

O’quv loyihasi tushunchasi:

- muayyan iste’molchiga mo’ljallangan, muammolarni izlash, tadqiq qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko’rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan. Talablarning mustaqil o’quv faoliyatini tashkil qilish *usuli*;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o’quv *vosita va qurollari*;

- rivojlantiruvchi, ta’lim-tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan *didaktik vosita*.

ГРАФИК TASHKIL ETUVCHILAR

KLAUSTER (klaster-tutam, bog'lam)-axborot xaritasini tuzish yo'li- barcha tuzilmaning mohiyatini umumlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish asosida aniq biror mazmuni keltirib chiqaradi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va keng jalb qilishda yordam beradi.

Klasterni tuzish bo'yicha o'quv topshirig'igayo'riqnoma

1. Katta qog'oz varag'i markazida kalit so'z yoki 1-2 so'zdan iborat mavzu nomini aylana ichiga yozing.

2. Kalit so'z bilan birlashdigan yon tomoniga kichkina hajmdagi aylana- "yo'ldoshcha" ichiga mavzu bilan aloqador so'z yoki so'z birikmasini yozing. Ularni chiziq bilan "bosh" so'zga bog'lang.

3. Ushbu "yo'ldoshcha"larda "kichik yo'ldoshlar" ham bo'lishi mumkin, ular ichiga yana so'z yoki iboralar yozib ajratilgan vaqt tugagunga qadar yoki g'oyalar tugamagunga qadar davom ettiriladi.

«NIMA UCHUN?» **SXEMASI** –muammoning dastlabki sababini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri bo'lib,tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Nima uchun?» sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammosababini aniqlash uchun:


- 1) Muammoni yozing va strelka chizig'ini chiqarib «Nima uchun?» so'rog'ini yozing.
- 2) Savolga javob yozib nima uchun so'rog'ini takror yozib boravering. Bu jarayonni muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom ettiring

«BALIQ SKELETI» **CHIZMASI** – bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

“Baliq skeleti” sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammo maydonini tavsiflash uchun:

1.«Baliq skeletini” chizing:



2. «Suyak»ning chap qismida (yoki yuqori suyakda) muammo osti muammoni yozing, o'ng qismida (pastki suyakda) – muammo osti muammoni amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi dalillarni yozing.

«QANDAY?» IERARXIK DIAGRAMMASI - muammo to'g'risida umumiy tasavvurlarni olishga, uning yechimini topish usul va vositalarini topishga imkon beruvchi mantiqiy savollar zanjiridan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Qanday?» diagrammasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

«Qanday?» diagrammasini tuzishdan avval, siz quyidagilarni bilishingiz kerak: ko'p hollarda Sizga muammolar hal etishda «Nima qilish kerak?» haqida o'ylashga hojat bo'lmaydi. Muammo yechimini topish uchun asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo'ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

1. Doira chizing va uning ichiga yechilishi lozim bo'lgan muammoni yozing.

2. Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'ying va shu savolga javob bering. SHu tartibda savollarni ketma-ket berib boravering va javoblarni o'ylab o'tirmasdan, solishtirmasdan, baholamasdan, tez-tez yozishda davom eting.

Maslahat va tavsiyalar:

Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko'rinishida, yuqoridan pastga yoki chapdan o'ngga. Eng muhimi esda tuting: nisbatan ko'p miqdordagi foydali g'oyalar va muammo yechimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

Agarda siz muammoni yechimini topish uchun to'g'ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo'nalishini namoyon bo'lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi.

«NILUFAR GULI» CHIZMASI - muammoni hal etish vositasi. O'zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o'z navbatida to'qqizta kichik kvadratdan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash qo'nikmalarini shakllantiradi.

«Nilufar guli» sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammoni hal etish vositalarini topish uchun:

1) O'zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan sxemani chizing. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o'z navbatida to'qqizta kichik kvadratdan iborat;

	B	
	D	
	G	

	Z	
B	Z	C
D	A	F
G	H	Y
	H	

	C	
	F	
	Y	

2) asosiy muammoni markaziy kvadratning markaziga yozing. Uni hal etish g'oyalari markaziy kvadrat atrofida joylashgan qolgan sakkizta kvadratlarga yozing;

3) har bir ushbu sakkizta g'oyani markaziy kvadrat atrofida joylashgan sakkizta katta kvadrat markaziga o'tkazing, boshqacha aytganda, nilufar gulidan uning gul bargiga o'tkazing. SHunday qilib, ular har biri, o'z navbatida, yana bir muammo sifatida qaraladi.

MUSTAQIL TA'LIMGA OID TOPSHIRIQLAR

MUSTAQIL TA'LIMGA OID TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasidan kelib chiqqan holda fanning vazifalari.

2. 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish masalalar

3. Real sektor korxonalarini innovatsion rivojlantirishda investorlarning roli.

4. Real sektorda innovatsion faoliyatning ahamiyati.

5. Real sektor korxonalariga innovatsion loyihalari asosida mablag'larni jalb qilishni tashkil etish.

6. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida real sektor korxonalarini innovatsion rivojlantirish.

7. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida real sektor korxonalarida innovatsion siyosati va uni rejalashtirish.

8. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekistonda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishi.

9. Real sektor tarmoqlarida innovatsion faoliyatning tashkiliy-huquqiy shakllari va uning xususiyatlari.

10. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida real sektorda innovatsion faoliyatning ilmiy va amaliy asoslari.

11. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida real sektor innovatsion faoliyatida tavakkalchilikni boshqarish.

12. Real sektorda innovatsion faoliyatning kompleks ta'minoti.

13. Real sektorda yangiliklar va innovatsiyalar portfelini shakllantirish.

14. Yirik real sektor korporatsiyalari rivojlanish strategiyalarining evolyutsiyasi .

15. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yangiliklar dasturi va loyihalarni ishlab chiqish.

16. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini tashkil etish.

17. Yangiliklarni ishlab chiqarishni tashkiliy – texnologik tayyorgarligining asoslari.

18. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida sanoat innovatsion faoliyatida bashorat qilish asoslari.

19. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida real sektorda innovatsiyalar marketingi.

20. Real sektorda innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi.

21. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish istiqbollari.

GLOSSARIYLAR

GLOSSARIYLAR

Atamaning o'zbek tilidagi nomlanishi	Atamaning ingliz tilidagi nomlanishi	Atamaning rus tilidagi nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Innovatsiya	Innovation	Innovatsiya	bu qandaydir yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayonni, marketingning yangi uslubini ish amaliyotida, ish joylarini tashkil qilishda yoki tashqi aloqalarda yangi tashkiliy uslubni iste'molga kiritishdir.
Innovatsion faoliyat	Innovative activity	Innovatsionnaya deyatel'nost'	innovatsiyani amalga oshirishga olib keladigan yoki shu maqsad bilan ko'zlab qilingan barcha ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, tijorat, marketing harakatlardir. Innovatsion faoliyat shuningdek qandaydir aniq innovatsiyani tayyorlash bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan tadqiqotlar va ishlanmalarni o'z ichiga oladi.
Texnologik innovatsiyalar	Technological innovations	Texnologicheskie novinki	bu yangi mahsulot va jarayonlarni ishlab chiqarish va joriy etish, shuningdek mahsulot va jarayonlarni sezilarli takomillashtirish; texnologik jihatdan yangi yoki sezilarli takomillashtirilgan xizmatlar, yangi yoki sezilarli takomillashtirilgan xizmatlarni ishlab chiqarish (ko'rsatish) usullarini ishlab chiqarish va joriy etish.
Mahsulot innovatsiyasi	Product innovation	Innovatsiya produkta	bu yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan tovar va xizmatlarni joriy etishdir. Masalan, texnika xususiyatlari, komponent va materiallari, ichiga o'rnatilgan dasturiy ta'minoti, foydalanuvchi uchun qulayligi yoki boshqa funktsional xususiyatlari.
Jarayon innovatsiyasi	Process innovation	Innovatsionnyy protsess	yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan ishlab chiqarish yoki yetkazib berish uslubini, texnik jarayonlar, uskunalari va/yoki dasturiy ta'minotdagi sezilarli o'zgarishlarni joriy etishdir.
Marketing innovatsiyasi	Marketingovyie innovatsii	Marketing innovation	bu firma tomonidan marketingning yangi uslubini joriy etish (mahsulotning dizayni va qadoqlash, uni joylashtirish, narx belgilash, bozorga chiqarish) agarda u firma tomonidan birinchi marta ishlatilayotgan bo'lsa.

Tashkiliy innovatsiya	Organizational innovation	Organizationalnaya innovatsiya	bu firmaning ish amaliyotiga yangi tashkiliy uslubni joriy etish.
Nou-xau	Know-how	Nou-xau	bu ishlab chiqarish siri hisoblangan, egasi bu ma'lumotlarni uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy ishlatilishidan himoya qilish huquqiga ega bo'lgan, himoyalovchi hujjatlar (masalan, patentlar) bilan muhofazalanmagan va to'liq yoki qisman nashr qilinmagan texnik, tashkiliy yoki tijorat ma'lumotlaridir.
Tovar belgisi	Trademark	Товарный знак	bu biror ishlab chiqaruvchining tovar va xizmatlarini boshqa ishlab chiqaruvchining o'xshash tovar va xizmatlaridan farqlash uchun mo'ljallangan original grafik tasvir, raqam, harf yoki so'zlarning birikmasidir.
Ixtiro	Invention	Изобретение	bu turli sohalardagi mahsulotga (xususan, qurilma, modda, mikroorganizm shtamlari, o'simlik va hayvonlar hujayralariga) yoki usulga (moddiy vositalar yordamida moddiy ob'ektlar ustidan harakatni amalga oshirish jarayoniga) tegishli texnik yechim.
Foydali model	Model	Полезная модель	bu moslamaga taalluqli texnik yechim. Ishlab chiqarish vositalarining konstruktiv bajarilishi va iste'mol qilish predmetlari hamda ularning tarkibiy qismi foydali modellarga kiradi.
Sanoat namunalari	Industrial Designs	Промышленные образцы	bu sanoat yoki hunarmandlik buyumlarining tashqi ko'rinishini belgilovchi badiiy-konstruktorlik yechimidir.
Seleksion yutuqlar	Selection achievements	Seleksionnye dostijeniya	ijodiy mehnat orqali o'simlikning yangi navi yoki hayvonlarning yangi turini yaratish (aniqlash) kabi insonning aniq bir maqsadga qaratilgan faoliyatining natijasidir.

TAVSIYa** ETILADIGAN ELEKTRON JURNALLAR
VA INTERNET SAYTLAR**

**TAVSIYA ETILADIGAN ELEKTRON JURNALLAR VA
INTERNET SAYTLAR**

Elektron jurnallar

1. International Journal of Business Forecasting and innovation.
www.inderscience.com
2. Ansoff matrix. www.free-management-ebooks.com
3. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy-elektron jurnal. www.iqtisodiyot.uz
4. Ekonomicheskoe obozrenie. www.cer.uz
5. Journal of Innovation. www.ama.org
6. Journal of Marketing Research. www.ama.org

Internet saytlar

1. www.digitalmetricsplaybook.com
2. www.Innovato.com
3. www.bizneslab.uz
4. www.study.com
5. www.inderscience.com
6. www.free-management-ebooks.com

**Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Sotvoldiyev Nodirbek Jurabayevich**

“Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish”

**Fani bo'yicha
o'quv-uslubiy majmua**

Ma'ruza mashg'uloti uchun